

TDIU HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADR LARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI



## O'QUV USLUBIY MAJMUA

TOSHKENT-2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY-METODIK  
MARKAZI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH  
TARMOQ MARKAZI**

**“BANK ISHI”**

YO'NALISHI

**“Bank ishining dolzarb muammolari va  
zamonaviy yutuqlari”**

**moduli bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY  
MAJMUA**

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagи 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchi:** Toymuxamedov I.R.– TDIU, “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

**Taqrizchi:** Isakov J.YA.- TDIU “Bank ishi va investitsiyalar” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori.

O‘quv-uslubiy majmua oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (“\_\_”  
\_\_\_\_\_ 2023-yildagi \_\_\_\_ -sonli bayonoma)

## **MUNDARIJA**

<b>I. ISHCHI DASTUR.....</b>	<b>4</b>
<b>II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI .....</b>	<b>12</b>
<b>III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI.....</b>	<b>21</b>
<b>IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....</b>	<b>98</b>
<b>V. MUSTAQIL TA’LIM MAVZULARI .....</b>	<b>127</b>
<b>VI. GLOSSARIY .....</b>	<b>129</b>
<b>VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>	<b>137</b>

## **I. ISHCHI DASTUR**

### **KIRISH**

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdan tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2022-yil 28- yanvardagi “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-son Qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni O‘zbekistonning milliy tiklanishdan milliy yuksalish bosqichida oliy ta’lim vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, ilg‘or ta’lim texnologiyalari va pedagogik mahorat, ta’lim jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, amaliy xorijiy til, tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari, maxsus fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, global Internet tarmog‘i, multimedia tizimlaridan foydalanish va masofaviy o‘qitishning zamonaviy shakllarini qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari, dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining maxsus fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

#### **Modulning maqsadi va vazifalari**

“Bank ishining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” **modulining maqsadi:** qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini zamonaviy bank ishidagi dolzarb muammolar haqidagi bilimlarini takomillashtirish, bank tizimi

faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ishlar bilan tanishtirish, bank tizimi infratuzilmani takomillashtirish, foydalanuvchilar va yetkazib beruvchilar o'rtasida samarali muloqot o'rnatish, axborot-telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, tarmoq hamda hududlar iqtisodiyotini takomillashtirish masalalari bo'yicha ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish asosida ularning kasbiy kompetentligi va mahoratini doimiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

**"Bank ishining dolzARB muammolari va zamonaviy yutuqlari" modulining vazifalari:**

- bank ishini olib borishni takomillashtirish va soddalashtirish;
- bank faoliyatini texnologik rivojlantirish orqali xo'jalik yurituvchi subektlar uchun bank xizmatlarini kengaytirish va ularni bank faoliyati bilan aloqasini yaqinlashtirish yuzasidan zarur ishlar bilan tanishtirish;
- zamonaviy iqtisodiyot talablaridan kelib chiqqan holda banklarning yangi xizmat turlarini bank amaliyotiga to'liq joriy qilish ishlari bilan tanishtirish;
- mamlakat YaIM ko'rsatkichlarida "Bank ekotizimlari" hajmlarini qamrab olish yuzasidan olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish;
- O'zbekistonning milliy bank tizimini xalqaro bank muassasalari bilan aloqasini va unda banklar ishtirokini ta'minlash va natijalari bilan tanishtirish;
- bank-mijoz sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKTni joriy etish, bank operatsiyalari va xizmatlari bilan bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish bilan tanishtirish.

### **Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimiga, ko'nikma, malakasi va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Maxsus fanlar bo'yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

#### **Tinglovchi:**

- bank ishi sohasida olib borilayotgan tashkiliy, xuquqiy ishlar;
- bank ishida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKTni joriy etish;
- bank faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish;
- bank tizimida bank xizmatlari markazlarini ko'paytirish orqali bank faoliyatini axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'tkazish;
- pul-kredit siyosatini amalga oshirish negizida inflyatsiyani jilovlash yo'nalishlari;
- bank faoliyatida internet orqali amalga oshirishga mo'ljallangan onlayn bank xizmatlari tizimi **to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim;**

#### **Tinglovchi:**

- bank mijozlari geografiyasi va turlarini kengaytirish;
- bugungi kunda xalqaro bank ishi, XVF, YETTB, Islomiy moliyalashtirish tashkilotlari, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tashkilotlar faoliyatini o'rganish;
- xalqaro taqqoslash dasturi doirasida milliy valyutaning xarid qobiliyati paritetini aniqlash;
- pul-kredit siyosati va inflyatsiya darajasini prognozlash;

- milliy iqtisodiyotdagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qonuniyatlarini bilishga asoslanib uzoq istiqboldagi davrda milliy iqtisodiyotni pul-kredit siyosati orqali boshqarish modellarini ishlab chiqish;

- tijorat banklari faoliyatini tahlil qilish, bank xizmatlari va mahsulotlarining sifatini oshirishga oid ***ko‘nikmalarini egallashi lozim***;

***Tinglovchi:***

- zamonaviy va innovatsion bank tizimi faoliyatni tashkil etish;

- iqtisodiy jarayonlarni taxlil qilishda iqtisodiy va moliyaviy qonunlar, ilmiy tushunchalarni (kategoriyalarni) yechimlar qabul qilishda ishlata olish;

- iqtisodiy jarayonlarni makroiqtisodiy tahlil qilish va prognozlash;

- mamlakat bank tizimining iqtisodiyotni tartibga solishdagi optimal darajasini aniqlash va mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirishga oid;

- bank faoliyatida ahamiyatga ega bo’lgan moliyaviy tovar va xizmatlarni yaratish borasida optimal qarorlarni ishlab chiqish;

- pul-kredit siyosati va inflyatsiya darajasini tadqiq qilishda makroiqtisodiy modellar tizimidan foydalanish;

- pul-kredit siyosati va inflyatsiya ko‘rsatkichlarni prognozlashda maxsus kompyuter dasturlaridan foydalanish;

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki pul-kredit siyosatining maqsadi, vazifalari, xususiyatlarini bilish va makroiqtisodiy darajada fikrlash asosida tegishli qarorlar qabul qilish ***malakalarini egallashi kerak***;

***Tinglovchi:***

- innovator, tyutor, moderator va fasilitatorlik faoliyatini samarali amalga oshirish;

- jahon bank tizimidagi va mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil etish va olingan xulosalarini keng jamoatchilikga tushuntirib berish, bank sohasida tayyorlanayotgan mutaxassislarni o‘qitish jarayoni nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini ta’minlash;

- bank ishiga mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg’or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) to’liq joriy etish;

- tinglovchilarda bank moliyaviy texnologiyalari bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini zamonaviy texnologiyalar asosida shakllantirish;

- mamlakatimiz bo‘yicha aholini bank tizimiga va bank xizmatlariga bo’lgan talabni to’liq qondirish yo’llarini o’rganish;

- yil yakunlari bo‘yicha bank xizmatlari ommabopligi kuzatuvarlarini o’rganish va ularning natijalarini Markaziy bank hamda bank reyting kompaniyalarining rasmiy saytida e’lon qilish, ular bo‘yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqish, innovatsion va strategik rivojlantirish ***kompetensiyalarini egallashi lozim***.

### **Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar**

“Bank ishining dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” moduli ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo’llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida

zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blits-so'rovlardan, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruqlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'limga metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi**

"Bank 1shining dolzarb muammoları va zamonaviy yutuqları" moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi "Ilg'or ta'limga texnologiyalari va pedagogik mahorat" o'quv modulining "Innovatsion ta'limga texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" submodullari, "Ta'limga jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash", "Amaliy xorijiy til", "Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari", "Maxsus fanlar" o'quv modullari bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

### **Modulning oliy ta'limga o'rni**

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar bank 1shining dolzarb muammoları va zamonaviy yutuqlarini tahlil etish va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

#### **Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:**

№	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi			Mustaqil ta'limga jumladan	
			jam'i	Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot		
1.	Bank tizimini transformatsiyalashuvi va bank infratuzulmasin o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishdagi muammolar			2	2	2	
2.	Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar			2	4	2	
3.	Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtasida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar			2	2	2	
<b>Jami:</b>			<b>20</b>	<b>20</b>	<b>6</b>	<b>8</b>	<b>6</b>

### **NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

#### **1-mavzu: Bank tizimini transformatsiyalashuvi va bank infratuzulmasin o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishdagi muammolar**

Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari. Bank tizimi infratuzulmasi va uning tarkibiy qismlari. Tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi

hamda ularni boshqarish muammolari. Milliy bank tizimida transformatsiya jarayonlari va ularning ahamiyati. Bank xizmatlari markazlari va banklarning tashkiliy tuzulmasini boshqarishdagi kamchiliklar. Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligini boshqarishdagi kamchilik va muammolar.

**2-mavzu: Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar**

Bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKT. Bank faoliyatini va bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish orqali bank tizimida ma'lumotlarga ishlov berish bilan mavjud bo'lgan ayrim kamchilik va muammolarni bartaraf etish. Tijorat banklarining an'anaviy va noan'anaviy xizmatlari. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirishda yuzaga keladigan ayrim kamchilik va muammolar. Bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg'or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) joriy etishdagi kamchiliklar. Bankda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va ulardan foydalanishdagi muammolar.

**3-mavzu: Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar.**

Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar. Bank raqobati va uni tashkil etish tartiblaridagi kamchiliklar. Nobank kredit tashkilotlari va ularning bank tizimi va ularning xizmatlarini joriy jtishdagi kamchiliklar. Bank tizimida to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar. Xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalari va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolar. Mamlakat bo'yicha aholini bank tizimiga va bank xizmatlariga bo'lgan talabni to'liq qondirish yo'llarini o'rganish.

**AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI**

**1-amaliy mashg'ulot:**

**Bank tizimini transformatsiyalashuvi va bank infratuzulmasin**

**o'rtaisdagi bog'lanishlarni o'rganishdagi muammolar**

Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari. Bank tizimi infratuzulmasi va uning tarkibiy qismlari. Tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi hamda ularni boshqarish muammolari. Milliy bank tizimida transformatsiya jarayonlari va ularning ahamiyati. Bank xizmatlari markazlari va banklarning tashkiliy tuzulmasini boshqarishdagi kamchiliklar. Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligini boshqarishdagi kamchilik va muammolar.

**2-amaliy mashg'ulot:**

**Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar**

Bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKT. Bank faoliyatini va bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish orqali bank tizimida ma'lumotlarga ishlov berish bilan mavjud bo'lgan

ayrim kamchilik va muammolarni bartaraf etish. Tijorat banklarining an'anaviy va noan'anaviy xizmatlari. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari.

### **3-amaliy mashg'ulot:**

#### **Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar**

Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirishda yuzaga keladigan ayrim kamchilik va muammolar. Bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg'or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) joriy etishdagi kamchiliklar. Bankda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va ulardan foydalanishdagi muammolar.

### **4-amaliy mashg'ulot:**

#### **Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar.**

Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar. Bank raqobati va uni tashkil etish tartiblaridagi kamchiliklar. Nobank kredit tashkilotlari va ularning bank tizimi va ularning xizmatlarini joriy jtishdagi kamchiliklar. Bank tizimida to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar. Xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalarini va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolar. Mamlakat bo'yicha aholini bank tizimiga va bank xizmatlariga bo'lган talabni to'liq qondirish yo'llarini o'rganish.

## **KO'CHMA MASHG'ULOT**

### **1-ko'chma mashg'ulot:**

#### **Bank tizimini transformatsiyalashuvi va bank infratuzulmasin o'rtaсидаги bog'lanishlarni o'rganishdagi muammolar.**

Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari. Bank tizimi infratuzulmasi va uning tarkibiy qismlari. Tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi hamda ularni boshqarish muammolari. Milliy bank tizimida transformatsiya jarayonlari va ularning ahamiyati. Bank xizmatlari markazlari va banklarning tashkiliy tuzulmasini boshqarishdagi kamchiliklar. Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligini boshqarishdagi kamchilik va muammolar.

### **2-ko'chma mashg'ulot:**

#### **Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar.**

Bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKT. Bank faoliyatini va bank operatsiyalarini avtomatlashtirish va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratish orqali bank tizimida ma'lumotlarga ishlov berish bilan mavjud bo'lган ayrim kamchilik va muammolarni bartaraf etish. Tijorat banklarining an'anaviy va noan'anaviy xizmatlari. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari. Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirishda yuzaga keladigan ayrim kamchilik va muammolar. Bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va

boshqarishning ilg'or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) joriy etishdagi kamchiliklar. Bankda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va ulardan foydalanishdagi muammolar.

### **3-ko'chma mashg'ulot:**

#### **Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar**

Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtaida raqobat muhining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar. Bank raqobati va uni tashkil etish tartiblaridagi kamchiliklar. Nobank kredit tashkilotlari va ularning bank tizimi va ularning xizmatlarini joriy jtishdagi kamchiliklar. Bank tizimida to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar. Xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalari va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolar. Mamlakat bo'yicha aholini bank tizimiga va bank xizmatlariga bo'lgan talabni to'liq qondirish yo'llarini o'rganish.

### **O'QITISH SHAKLLARI**

Ushbu modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rileyotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Laurence M. Ball. Money, Banking, and Financial Markets, Pearson Education Limited. 2016
2. Bankovskoe delo: Uchebnik. U.Azizov i drug.
3. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. T.: «Iqtisod-Moliya» nashriyoti, 2017.
4. Tijorat banklari aktiv va passivlarini boshqarish. O'quv qo'llanma. A.Azlarova, M.Abduraxmanova. T.: "IQTISODIYOT".2019.- 350 b.
5. Bobaqulov T.I., Abdullayev U.A. "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" Darslik. - Moliya.- Toshkent, 2019yil , 446 b.
6. Tojiev R.R. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik.- Toshkent. TDIU nashriyoti, 2019 yil, 473 b.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-soni Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi 12.05.2020 yildagi PF-5992-soni Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 – 2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 04.10.2019 yildagi PQ-4477-sonli Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 09.01.2020 yildagi PQ-4563 -sonli Qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25.01.2020. <https://uza.uz/>

6. Mirziyoyev Sh.M. Investorlar uchun qulay va jozibador sharoit yaratishga qaratilgan amaliy ishlarimizni yanada jadallashtiramiz. Yangi O‘zbekiston №60 (582), 2022 yil 22 mart soni.

7. Abduvaxidov F.T. Banklarda buxgalteriya hisobi. – T.: TDIU – IQTISODIYOT 2019 y. 366 bet.

8. Samuelson, Pol E., Nordxaus, Vilyam D. Makroekonomika. Uchebnoe posobie. M.: OOO «I.D. Vilyams», 2009. -592 s.

9. Pul-kredit siyosatining 2022 yil va 2023-2024 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2021 yil. 110 bet.

10. Pul-kredit siyosatining 2023 yil va 2024-2025 yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari [https://cbu.uz/upload/medialibrary/04f/xz40kyjhrad5rrk7otjgimsys6pbb5ud/Asosiy\\_yunalishlar\\_2022.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/04f/xz40kyjhrad5rrk7otjgimsys6pbb5ud/Asosiy_yunalishlar_2022.pdf)

### **Internet resurslar**

1. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
2. [www.aci.uz.](http://www.aci.uz)
3. [www.acs.org](http://www.acs.org)
4. [www.edu.uz.](http://www.edu.uz)
5. [www.ictcouncil.gov.uz.](http://www.ictcouncil.gov.uz)
6. [www.lib.bimm.uz](http://www.lib.bimm.uz)
7. [www.sciencedirect.com](http://www.sciencedirect.com)
8. [www.undp.org.](http://www.undp.org)
9. [www.uzreport.com.](http://www.uzreport.com)
10. [www.cbu.uz.](http://www.cbu.uz)
11. [www.cer.uz.](http://www.cer.uz)
12. [www.mf.uz.](http://www.mf.uz)

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“SWOT-tahlil” metodi.

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostonart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



“Pul-kredit siyosati va barqaror iqtisodiy o‘sish strategiyalari” g‘oyasini “SWOT – tahlil” asosida tahlil qilish.

	<i>Tahlil tarkiblari</i>	<i>Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>
S	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishningichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi; - yangi loyihalarning moliyaviy asosi hisoblanadi; - to‘siqlarni yengib o‘tishining yo‘li bo‘lishi mumkin.
W	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati nomonetar usullardagi muammolarni yengib o‘tishga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim; - yangi rivojlanish yo‘llari uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur
O	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlashning asosiy ko‘rsatkichi yoki asosiy manbasi bo‘lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo‘ladi; - yangi tadbirkorlikning asosi yoxud hamkorlikni izlash manbasi bo‘lishi mumkin.
T	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi rivojlanish imkoniyati loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni yengib o‘tish yoki betaraf etish yo‘llari ishlab chiqilishi kerak; - ba’zida mantiqqa mos kelmaydigan “raqiblar” “ittifoqchilarga” aylanishi bo‘lishi mumkin.

**Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar,

muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlar bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Методни амалга ошириш тартиби:



тренер-ўқитувчи иштирокчиларни 5-6 кишидан иборат кичик групкаларга ажратади;



тренинг мақсади, шартлари ва тартиби билан иштирокчиларни таништиргач, хар бир групга умумий муаммони таҳлил қилиниши зарур бўлган қисмлари туپтирилган тарқатма материалларни тарқатали;



хар бир груп ўзига берилган муаммони атрофлича таҳлил қилиб, ўз муроҳазаларини тавсия этилаётган схема бўйича тарқатмага ёзма баён қиласди;



навбатдаги босқичда барча групкалар ўз тақдимотларини ўтказадилар. Шундан сўнг, тренер томонидан таҳлиллар умумлаштирилади, зарурий ахборотлар билан тўллирилали ва мавзуз якунланали.

#### Namuna:

Pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari					
Makroko‘lamdagi muvozanatni ta’minlash		Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning milliy modellari		Xalqaro moliya institutlari	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
<b>Xulosa:</b>					

#### “Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan

iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

### “Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
<b>1-bosqich:</b> Keys va uning axborot ta’moti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;</li> <li>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);</li> <li>✓ axborotni umumlashtirish;</li> <li>✓ axborot tahlili;</li> <li>✓ muammolarni aniqlash</li> </ul>
<b>2-bosqich:</b> Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;</li> <li>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash</li> </ul>
<b>3-bosqich:</b> Keysdagি asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ individual va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;</li> <li>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;</li> <li>✓ muqobil yechimlarni tanlash</li> </ul>
<b>4-bosqich:</b> Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ yakka va guruhda ishlash;</li> <li>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;</li> <li>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;</li> <li>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish</li> </ul>

Masalan, mamlakatimizdagi o‘sish sur’atining 9% darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 7,7 yil talab etiladi (70:9). Xolbuki, iqtisodiy o‘sishning 2000 yildagi 4,0% darajasida bu ko‘rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi. Keyingi yillarda iqtisodiy o‘sish sur’atining yanada oshirilishi bu muddatning ahamiyatli ravishda qisqarishiga olib keladi.

Ijtimoiy mahsulotning o‘sish sur’ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o‘zgarishi o‘rtasidagi nisbat iqtisodiy o‘sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi. Bu turlari bo‘yicha izoh keltiring.

### Keysni bajarish bosqchilarini va topshiriqlar:

- Keysdagи muammoni keltirib chiqargan asosiy sabablarni belgilang(individual va kichik guruhda).
- iqtisodiy o‘sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini izohi keltirilgan ketma-ketligini belgilang (juftliklardagi ish).

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

### Namuna.

**Fikr:** “**Inflyasiyani samarali boshqarish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishi**”.

**Topshiriq:** Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.


### “Assesment” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta'lif oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lif oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'zo'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi to'g'ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### “Tushunchalar tahlili” metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- tinglovchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- tinglovchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq

izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
<b>Sikllarning asosiy turlari</b>	Kitchin sikli 2–4 yil, Juglar sikli 7–12 yil, Kuznets sikli 16–25 yil, Kondratev sikli 40–60 yil, Forrester sikli 200 yil, Toffler sikli 1000–2000 yil	
<b>Monetar konsepsiya</b>	Foiz stavkasi va valyuta kursi o’tasida bog‘liqliknini aks etgan	
<b>Optimal valyuta hududlar nazariyasи</b>	Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan integratsiya jarayonlari XVF mutaxassislari Robert Mandell va Markus Fleming tomonidan 1960 – yillarda yaratilgan optimal valyuta hududlar nazariyasiga asoslangan	
<b>Jahon valyuta tizimi evolyutsiyasi</b>	1867–1913 yillar Parij valyuta tizimi, 1922– 1936 Genuya valyuta tizimi, 1944 – 1976 Bretton Vuds valyuta tizimi, 1976-hozirga qadar Yamayka valyuta tizimi	
<b>Xalqaro valyuta fondi (XVF)</b>	Moliyaviy sohasida xalqaro hamkorlikni ta’minlovchi tashkilot hisoblanadi va hozirgi paytda 183 a’zolardan iborat. XVF Jahon banki bilan bir vaqtida 1945 yilda Bretton Vuds konferensiyasi qarori bilan tashkil etilgan	

**Izoh:** Ikkinci ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo’shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.


#### Venn Diagrammasi metodi

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiyligi va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;
- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar;
- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birqalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiyligi jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

**Namuna: O‘zbekistonning xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan hamkorligini o‘ziga xos xususiyatlarida mobil ilova ma’lumotlarini saqlash turlari bo‘yicha**



### “Blits-o‘yin” metodi

**Metodning maqsadi:** o‘quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Mazkur metodni baholash va mustahkamlash maksadida qo‘llash samarali natijalarni beradi. **Metodni amalga oshirish bosqichlari:**

1. Dastlab ishtirokchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya’ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o‘rganish talab etiladi. Shundan so‘ng, ishtirokchilarga to‘g‘ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda trener-o‘qituvchi ishtirokchilarga uch kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiradi va guruh a’zolarini o‘z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib, bahslashib, bir-biriga ta’sir o‘tkazib, o‘z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to‘xtamga kelib, javoblarini “guruh bahosi” bo‘limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o‘z ishlarini tugatgach, to‘g‘ri harakatlar ketma-ketligi trener-o‘qituvchi tomonidan o‘qib eshittiriladi, va o‘quvchilardan bu javoblarni “to‘g‘ri javob” bo‘limiga yozish so‘raladi.

4. “To‘g‘ri javob” bo‘limida berilgan raqamlardan “yakka baho” bo‘limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa “0”, mos kelsa “1” ball quyish so‘raladi. Shundan so‘ng “yakka xato” bo‘limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo‘shib chiqilib, umumiyligini yig‘indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda “to‘g‘ri javob” va “guruh bahosi” o‘rtasidagi farq chiqariladi va ballar “guruh xatosi” bo‘limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo‘shiladi va umumiyligini yig‘indi keltirib chiqariladi.

6. Trener-o‘qituvchi yakka va guruh xatolarini to‘plangan umumiyligini yig‘indi bo‘yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. Ishtirokchilarga olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo‘yicha o‘zlashtirish darajalari aniqlanadi.

**“Bank tizimida iqtisodiy islohotlar tamoillari, strategiyasi, bosqichlari va yo‘nalishlari”  
bo‘yicha tushuncha bering. O‘zingizni tekshirib ko‘ring!**

<b>Harakatlar mazmuni</b>	<b>Yakka baho</b>	<b>Yakka xato</b>	<b>To‘g‘ri javob</b>	<b>Guruh bahosi</b>	<b>Guruh xatosi</b>
Bank tizimida iqtisodiy islohotlar strategiyasi bosqichlari					
Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash					
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va moliyaviy himoya qilishni ta‘minlash institutlari					
Hududlarni rivojlantirish va ularni investitsion jozibodorligini baholash					
Bank tizimini rivojlanish reytingi					

**“Insert” metodi**

☝ **Metodning maqsadi:** Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilarni orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

<b>Belgilari</b>	<b>1-matn</b>	<b>2-matn</b>	<b>3-matn</b>
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta‘lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

**Ta‘lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasi**

☝ **O‘quv mashg‘ulotida ta‘lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqish.**  
*Eslatma: topshiriqni bajarishda yo‘riqnomaga amal qiling.*

## YO'RIQNOMA

Aniq fan va mavzu bo'yicha mashg'ulotning ***ta'lismodeli*** jadval ko'rinishida bo'lib, unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- *dastlabki ma'lumotlar*: o'quv mavzusi, vaqt, talabalar soni;
- *shakl* (ma'ruza, seminar va boshq.) va *ko'rinishi* (masalan, muammoli ma'ruza va bosh.), o'quv mashg'uloti rejasi/tuzilishi, uning maqsadi, o'quv faoliyatining ko'zlanayotgan natijalari, pedagogik vazifalari;
- tanlangan ta'lismodeli: *usullar, shakllar va o'qitish vositalari*;
- *ta'lism berish sharoiti*: maxsus jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar;
- *monitoring va baholashga* asoslangan qaytar aloqaning yo'l va vositalari: nazorat turi (yozma va og'zaki), nazorat shakli (tezkor-so'rov, test olish, taqdimot, o'quv topshiriqlari va boshq.).

**O'quv mashg'ulotining texnologiya xaritasi** uch qatorni o'z ichiga olib, 1,5-2 varaqda jadval ko'rinishida bajariladi: (1) o'quv mashg'uloti bosqichlari va vaqt; (2) ta'lism beruvchi faoliyati; (3) ta'lism oluvchi faoliyati.

**Ilova.** O'quv jarayonining tashkiliy - didaktik vazifasini bajaradi: o'quv/mustaqlilish uchun savol va topshiriqlarni, uni baholash mezonlarini, o'quv ish jarayonida talabalar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar, ta'lism beruvchi foydalanadigan tayanch yozmalar, shuningdek chizma, jadval, slaydlar va boshqa ko'rgazmali materiallar, rejalashtirilgan maqsadlarga erishishni nazorat qilish uchun topshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlar va mashqlar).

Bu yerda taqdim etilayotgan materiallar chegaralanmaydi. Faqat ular katta hajmli, yaxshi tuzilmaga keltirilgan va grafikli chizmalarda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

### **O'quv mashg'ulotida ta'lism texnologiyasi modeli**

**Mavzu** (raqami) .....(nomi).....

Vaqt: ...soat	Talabalar soni:...
<i>O'quv mashg'ulotining shakli va turi</i>	Ma'ruza (axborotli/birlashgan dars va boshq..), seminar (bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish bo'yicha), amaliy mashg'ulot
<i>Ma'ruza rejasi / o'quv mashg'ulotining tuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i>	Shakllantirish / bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish
<i>Pedagogik vazifalar:</i> ... bilan tanishtirish; ... tasnifini berish; ... tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> ... ko'rsatadilar; ... tasniflaydilar; ... aytib beradilar; ... tartibli ravishda ochib beradilar
<i>O'qitish metodlari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>O'quv faoliyatini tashkillashtirish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan xonalar
<i>Qaytar aloqaning yo'l va vositalari</i>	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov va boshq. Yozma nazorat: referat, test va boshq.

### O‘quv mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat	
	ta’lim beruvchi	ta’lim oluvchilar
1-bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (daq.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarini yetkazadi. Mashg‘ulot rejasи bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro‘yxatini aytadi.</p> <p>1.3. O‘quv mashg‘ulotida o‘quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.</p>
2-bosqich. Asosiy (daq.)	<p>2.1. Tezkor-so‘rov / savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi.</p> <p>2.2. Ma’ruza/ seminar/ amaliy mashg‘ulotning rejasи va tuzilishiga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha harakatlar tartibini bayon etadi</p>	<p>Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.</p>
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	<p>3.1. Mavzu bo‘yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi muhimligiga talabalar e’tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Guruhlar ishini baholaydilar, o‘quv mashg‘ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi.</p> <p>3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi .</p>	<p>O‘z-o‘zini, o‘zaro baholashni o‘tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar</p>

### III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

#### 1-MAVZU: Bank tizimini transformatsiyalashuvi va bank infratuzulmasin o'rtaqidagi bog'lanishlarni o'rganishdagi muammolar

Reja:

- 1.1 Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari.
- 1.2 Tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi hamda ularni boshqarish muammolari.
- 1.3 Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligini boshqarishdagi kamchilik va muammolar.

##### ❖ Tayanch iboralar:

*Bank, tijorat banki, Markaziy bank, litsenziya, ruxsatnoma, kapital, operatsiya, mikromoliyalashtirish tashkiloti, resurs, passiv, aktiv, depozit, nodepozit, foyda, omonat, sug'urta, likvididlilik, to'lov qobiliyati, ko'rsatkichlar, koeffitsient, layoqatlilik ko'rsatkichlari, inqiroz, passivlarni boshqarish, kredit, aktivlar sifati, zaxira.*

##### 1.1. Tijorat banklarini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari.

Tijorat banklarining faoliyatini tashkil etishning huquqiy va iqtisodiy asoslari haqida to'xtalishdan oldin bank o'zi nima ekani, banklarning bugungi kunda zarurligi va ahamiyati, tijorat banklari tushunchalari haqida tanishib olish maqsadga muvofiqdir. Banklar Yaponiya va Germaniya kabi ba'zi rivojlangan mamlakatlar va rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning aksariyati, shu jumladan O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida ham muhim rol o'ynadi. Bugungi kunda banklar nafaqat iqtisodiy o'sish, balki moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhimdir.

«Bank» so'zi italyancha «Banca» so'zidan olingan bo'lib, «stol», aniqrog'i «pullik stol» degan ma'noni anglatadi. XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «Bancherii» deb atashgan. Agar puldorlardan birortasi ishonchni oqlamasva o'z ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stolni sindirib tashlashgan va uni «Banco rotto», ya'ni «bankrot» deb atashgan. Bugungi kunda bizga ma'lum bo'lgan «bankrot» so'zi ham italyancha «Banca rotto» so'zidan olingan.<sup>1</sup>

O'zbekistonda bank so'zining ta'rifi “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga ko'ra, “**bank** — bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to'lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag'larini jalb etish, o'z nomidan kreditlar berish bo'yicha bank faoliyati sifatida aniqlangan operatsiyalar majmuuni amalga oshiruvchi tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs”<sup>2</sup> deya berilgan.

A.Erdonayev fikricha “bank – bu bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan, bank faoliyatini amalga oshirishga yordam beradigan hamkorlar bilan faol muloqot va hamkorlikka kirishuvchi texnologik kompaniya”<sup>3</sup>.

Tijorat banklari – bank tizimining quyi bo'g'ini bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning bo'sh turgan pul mablag'larini jalb qilish va ularni o'z nomidan, to'lovlilik, muddatlilik, qaytib berish sharti asosida joylashtirish operatsiyalarini va boshqa bank faoliyati deb hisoblanadiganbarcha operatsiyalarni bajaruvchi tijorat tashkilotidir.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rilib turibdiki, so'ngi yillarda mamlakatimiz bank-moliya tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Banklararo va nobank tashkilotlarining raqobat kurashi natijasida tijorat banklari soni kamyish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda. Aksincha nobank kredit tashkilotlari, shundan, Mikromoliya tashkilotlari bir yil mobaynida -20 taga, Lombardlar-8 taga, bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar) esa 299 taga va nihoyat 24/7 shoxobchalari soni 2022 yilda 687 taga ko'paygan.

<sup>1</sup> Abdullayev Yo. Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010-yil. - 532 bet.

<sup>2</sup> “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son.

<sup>3</sup> A.Erdonayev. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish” i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.

Demak, bank tizimida huquqiy normalarni optimallashtirish, ularni davr talabi bo'yicha mijozlarga qulay me'yorlarini o'rnatish zarurdir.

### 1-jadval

#### O'zbekiston respublikasida kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari soni<sup>4</sup>

Kredit tashkilotlari turi	01.01.22	01.01.23	O'zgarishi (+, -)
1	2	14	
<b>1. Kredit tashkilotlari, jami*</b>	<b>177</b>	<b>199</b>	<b>+22</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Tijorat banklari, shundan:</b>	<b>33</b>	<b>32</b>	<b>-1</b>
Davlat ulushi mavjud banklar	12	12	-
Boshqa banklar	21	20	-1
<b>Nobank kredit tashkilotlari, shundan:</b>	<b>144</b>	<b>167</b>	<b>+20</b>
Mikromoliya tashkilotlari	70	85	+15
Lombardlar	73	81	+8
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari	1	1	-
<b>2. Tijorat banklari filiallari, jami</b>	<b>860</b>	<b>832</b>	<b>-28</b>
<b>3. Bank xizmatlari markazlari (xizmat ofislari va mini-banklar)</b>	<b>1244</b>	<b>1543</b>	<b>+299</b>
<b>4. 24/7 shoxobchalar</b>	<b>2287</b>	<b>2974</b>	<b>+687</b>

Respublikamizda bank faoliyati sohasida milliy tajribaning to'plana borishi, xalqaro tajribalar va ilg'or yutuqlarning sinchkovlik bilan o'rganilib va umumlashtirib borilishn natijasida iqtisodiy islohotlarning keyingi bosqichlariga kelib, mamlakatimizda bank, kredit, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va ularni boshqarish sohasida zamonaviy qonunlar tizimi yuzaga kela boshladi.

Hozirgi davrda tijorat banklarining faoliyati juda ham xilma-xildir. Ular pul muomalasi va kredit munosabatlarini tashkil qilishdan tashqari, xalq xo'jaligini mablag' bilan ta'minlash, sug'urta operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi, ayrim hollarda vositachilikni va mulkni boshqarishni amalga oshiradi. Shuningdek, maslahatchi sifatida xalq xo'jalik dasturlarini muhokama qilishda ishtirok etadilar, statistikani olib boradilar.

Tijorat bankining mohiyatini aniqlash uchun ularning:

- nima bilan shug'ullanishini;
- qanday operatsiyalarni bajarishini;
- qanday sifatlarga egaligini;
- o'ziga xos xususiyatlarini;
- asosi nima bilan belgilanishini;
- ichki tizimi qandayligini tushunib yetmoq lozim.

Demak, tijorat banki tushunchasi bank faoliyatini xarakterlovchi tasodifiy savollar yig'indisi emas, balki uslub bo'yicha qo'yiladigan aniq savollarni ko'rib chiqishni talab etadi. Bunday yondashish bankka quyidagilar nuqtayi nazaridan ta'rif berishga asos bo'lishi mumkin:

- bank tashkilot yoki muassasa sifatida;
- bank korxona sifatida;
- bank tijorat yoki savdo korxonasi sifatida;
- bank vositachi korxona sifatida;
- bank birja agenti sifatida;
- bank kredit beruvchi korxona sifatida.

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi markaziy banki yillik statistik byuleteni. 2022 yil.

Tijorat banklari bir-biridan quyidagilar bilan farq qiladi (2-jadval).

**2-jadval**

**Tijorat banklarining turlari va ularning bir - biridan farq qiluvchi jihatlari**

<b>Nº</b>	<b>Turkumlash belgilari</b>	<b>Farq qiluvchi jihatlar</b>
1.	Mulkchilik shakliga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Davlat banklari</li> <li>- Aksioner banklar</li> <li>- Kooperativ banklar</li> <li>- Xususiy banklar</li> <li>- Mintaqaviy banklar</li> <li>- Qo'shma banklar</li> <li>- Xorijiy banklar</li> </ul>
2.	Bajariladigan operatsiyalariga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Universal banklar</li> <li>- Maxsus banklar (investitsiya banklari, eksportimport operatsiyalarini olib boruvchi banklar va h.k.)</li> </ul>
3.	Faoliyat ko'rsatish hududi yoki joylashgan joyiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro bank</li> <li>- Respublika miqyosidagi bank</li> <li>- Mintaqaviy bank</li> <li>- Viloyat banklari</li> </ul>
4.	Tarmoq yo'nalishiga qarab	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Sanoat banki</li> <li>- Qurilish banki</li> <li>- Qishloq xo'jalik banki</li> <li>- Savdo banki va h.k.</li> </ul>

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklarining faoliyati O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'grisida"gi<sup>5</sup> Qonuni hamda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi<sup>6</sup> Qonun, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida" gi Qonun, "Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to'g'risida"gi Nizom va boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solib boriladi.

Ushbu qonunlarda bank tushunchalariga va ularning operatsiyalariga ta'riflar keltirilgan.

Unga ko'ra banklar bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'limgan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas.

Banklar aksiyadorlik jamiyatni shaklida tashkil etiladi.

Banklar Markaziy bankda davlat ro'yxatiga olingan paytdan e'tiboran yuridik shaxs maqomini oladi.

Banklar O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan beriladigan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi<sup>7</sup>.

Litsenziya uning amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

Litsenziyanı yoki unga doir huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish taqiqlanadi.

Litsenziyasiz amalga oshiriladigan bank faoliyati g'ayriqonuniy deb hisoblanadi va javobgarlikka sabab bo'ladi. Bunday faoliyat natijasida olingan daromad O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga olib qo'yiladi.

Banklarni litsenziyalash tartib-taomili quyidagi ikki bosqichdan iborat:

Markaziy bank tomonidan bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish; bir vaqtning o'zida litsenziya bergen holda bankni davlat ro'yxatidan o'tkazish.

<sup>5</sup> "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-soni.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 11-noyabr, O'RQ-582-soni.

<sup>7</sup> "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-soni.

Amalga oshirilishi uchun qonunchilikka muvofiq alohida litsenziyalar yoki ruxsatnomalar olinishi talab etiladigan faoliyat banklar tomonidan tegishli hujjatlar olinganidan keyin amalga oshiriladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun muassislar tomonidan bank tashkil etish bo'yicha o'z manfaatlarini Markaziy bankda ifoda etishga vakil qilingan shaxs ta'sis shartnomasi imzolaganidan keyin uch oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni ilova qilgan holda ariza taqdim etadi:

- ta'sis shartnomasini;
- ikki nusxadagi bank ustavini;
- ta'sis yig'ilishining bayonnomasini;
- muassislar ro'yxatini;

• hal qiluvchi egalikka ega bo'lган bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi axborotni, shuningdek baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lган axborotni;

- hal qiluvchi egalikka ega bo'lган shaxslar mavjud bo'lмаган taqdirda, bankning ustav kapitalida eng ko'p ulushlarga ega bo'lган, umumiyl ulushi kamida ellik foizni tashkil etadigan bevosita va bilvosita muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar to'g'risidagi axborotni, shu jumladan baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lган axborotni;

- muassis bo'lган yuridik shaxsning auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan oxirgi uch yil uchun moliyaviy hisobotlarini;

- bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kiritilgan mablag'larning manbalari to'g'risidagi hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni;

- bankning kuzatuv kengashi va boshqaruvi a'zolari to'g'risidagi, bu a'zolarning talablarga muvofiqligini baholash uchun zarur bo'lган axborotni;

- bankning tashkiliy tuzilmasini;

- bankning ichki audit xizmati to'g'risidagi nizom loyihasini;

- bankning keyingi uch yilga mo'ljallangan biznes-rejasini;

- keyinchalik bankning kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi lozim bo'lган, bankning kredit, investitsiya va emissiya siyosatining loyihalarining, shuningdek tavakkalchiliklarni boshqarish va ichki nazorat siyosati loyihalarining ko'chirma nusxalarini;

- arizani ko'rib chiqqanlik uchun yig'im to'langanligini tasdiqlovchi hujjatni.

Taqdim etilgan hujjatlarda Markaziy bank tomonidan kamchiliklar aniqlangan va ko'rsatilgan hujjatlar ariza beruvchi to'liq hajmda taqdim etilmagan taqdirda, Markaziy bank ariza beruvchiga bartaraf etilishi lozim bo'lган kamchiliklar va (yoki) taqdim etilishi zarur bo'lган hujjatlar ro'yxati ko'rsatilgan holdagi xabarnomani ariza taqdim etilgan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida yuboradi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi ariza bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun zarur bo'lган barcha hujjatlar taqdim etilgan kundan e'tiboran uch oy ichida Markaziy bank tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Mazkur muddat to'rt oygacha uzaytirilishi mumkin.

Agar ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan, ko'rsatilgan hujjatlar va axborot bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun yetarli bo'lmasa, Markaziy bank ariza beruvchidan qo'shimcha hujjatlar va axborot so'rashga haqlidir.

Ariza beruvchi Markaziy bank so'ragan hujjatlar va axborotni so'rov olingen kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan oshmagan muddatda taqdim etishi kerak, ushbu muddat mobaynida bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqiladigan uch oylik davr to'xtatib turiladi.

Markaziy bank ariza beruvchini qabul qilingan qaror to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnama olingen kundan e'tiboran olti oydan oshmagan muddat ichida yuridik kuchini saqlab turadi.

Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnama quyidagi hollarda amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilinadi:

- dastlabki ruxsatnama soxta hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlanganda;
- ilgari baholashdan o'tgan va Qonun talablariga javob bergen muassislar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo'limganda;
- ilgari baholashdan o'tgan va Qonun talablariga javob bergen bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvi a'zolari endilikda ushbu modda talablariga muvofiq bo'limganda, shuningdek bank kuzatuv kengashi va (yoki) boshqaruvining yangi tayinlangan a'zolari to'g'risida axborot taqdim etilmaganda;
- taqdim etilgan biznes-rejaga tarkibiy o'zgartishlar kiritilganda;
- bankni xavfsiz va barqaror boshqarishni ta'minlab bo'lmasligini ko'rsatuvchi faktlar aniqlanganda.

Bankni tashkil etishda yoki bankning ustav kapitalida chet el banki ishtirok etganda yuqorida ko'rsatilgan hujjatlardan tashqari quyidagi hujjatlar qo'shimcha ravishda taqdim etiladi:

- chet el banki vakolatlari organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish to'g'risidagi qarori;
- chet el bankingning ustavi;
- chet el banki bankni nazorat qilish organining mazkur chet el banki uning konsolidatsiyalashgan nazorati ostida turishi, pul mablag'larini depozitlarga qabul qilish huquqiga ega ekanligi va unga bankni nazorat qilish organining bankni tashkil etish yoki bankning ustav kapitalida ishtirok etish uchun ruxsatnomasi berilganligi to'g'risidagi yozma tasdiqnomasi yoxud shunday ruxsatnama talab etilmasligi to'g'risidagi tasdiqnomasi;
- chet el banki kapitalining va kredit reytingining Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjat.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya olish uchun ariza beruvchi bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnama olingenidan keyin olti oydan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagilarni taqdim etishi kerak:

- ✓ bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish to'g'risidagi ariza;
- ✓ Qonun bilan belgilangan eng kam miqdordan kam bo'limgan summada bankning ustav kapitali shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek muassislarining ro'yxati;
- ✓ bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari to'g'risida ularning Qonun talablariga muvofiqligini baholashdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan axborot;
- ✓ tashkil etilayotgan bank joylashgan yerdagi Markaziy bank hududiy bosh boshqarmasining bank binolari, ularning muhofaza qilinishi ta'minlanganligi, uskunalar, ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy ta'minotining Markaziy bank talablariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi;
- ✓ yuqorida sanab o'tilgan barcha hujjatlarning elektron shakldagi ko'chirma nusxalari.

Bankni davlat ro'yxatiga olish va litsenziya berish haqidagi qaror ariza barcha zarur hujjatlar bilan olingen kundan e'tiboran bir oydan oshmagan muddatda qabul qilinadi.

Markaziy bank tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran uch ish kuni ichida ariza beruvchini qabul qilingan qaror haqida yozma shaklda, shu jumladan axborot-kommunikatsiya tizimi orqali elektron shaklda xabardor qiladi.

Litsenziya berilganligi uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat boji undiriladi.

Bankning davlat ro'yxatiga olingenligi va unga litsenziya berilganligi to'g'risidagi axborot Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Litsenziyaning qalbaki hujjatlardan foydalangan holda olinganligi fakti aniqlangan taqdirda litsenziya Markaziy bank tomonidan chaqirib olinadi.

Bankni davlat ro‘yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish. Bankni davlat ro‘yxatiga olishni va litsenziya berishni rad etish uchun quyidagilar asos bo‘ladi:

- Bankning shakllantirilgan ustav kapitali miqdorining bankni davlat ro‘yxatiga olish va litsenziya berish to‘g‘risidagi arizani topshirish paytida Qonun talablariga muvofiq emasligi;
- ilgari baholashdan o‘tgan va Qonunning talablariga javob bergen muassislarining, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlarning endilikda ushbu modda talablariga muvofiq emasligi;
- muhim ahamiyatga ega xodimlarning Markaziy bankning malaka talablariga muvofiq emasligi;
- bankning binolari, ularning muhofaza qilinishi ta’minlanganligi, uskunalar va ishlarni tashkil etish texnika vositalari bilan jihozlanganligining va dasturiy ta’minotining Markaziy bank talablariga muvofiq emasligi.

Banklar boshqa bankning aksiyalarini bevosita yoki bilvosita olishdan oldin Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Banklar boshqa bankning ustav kapitalidagi ulushini ko‘paytirish uchun Markaziy bankning takroriy dastlabki ruxsatnomasini olishi shart.

Bankning ustav kapitali bank muassislarini va aksiyadorlari to‘lagan pul mablag‘laridan tashkil topib, uning summasi bank ustavida ko‘rsatiladi va bank ishini boshlashning boshlang‘ich, tayanch nuqtasi hisoblanadi. Bankning tashkil qilinish shakliga qarab uning ustav kapitali ham turlicha bo‘lishi mumkin. Agar bank aksiyadorlik jamiyatni tariqasida tashkil qilinadigan bo‘lsa, u holda bank ustav kapitali yoki fondi aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo‘li bilan tashkil topadi<sup>8</sup>.

Ustav kapitali ta’sis hujjatlarida belgilangan hissalarning (pulda ifodalangan holdagi) yig‘indisini aks ettiradi.

Tijorat banklarining barqarorligida ularning ustav kapitali muhim o‘rin tutadi. Shakllangan kapital yildan-yilga iqtisodiy normativlarning barcha parametrlarini bajarilishini to‘liq ta’minladi, yana shu bilan birga, u o‘rnatalgan minimal belgilardan bir necha baravar yuqori bo‘lishiga olib keldi.

### 3-jadval

#### O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining kapital miqdori bo‘yicha guruhlanishi<sup>9</sup>

Ko‘rsat-kichlar	Jami		shulardan:											
			100 mlrd so‘mgacha		100 dan 300 mlrd so‘mgacha		300 dan 500 mlrd so‘mgacha		500 mlrd so‘mdan 1 trln so‘mgacha		1 trln so‘mdan 2 trln so‘mgacha		2 trln so‘m va undan yuqori	
	banklar so‘ni	miqdori, mlrd so‘m	banklar so‘ni	ulush i foizda	banklar so‘ni	ulush i foizda	banklar so‘ni	ulush i foizda	banklar so‘ni	ulush foizda	banklar so‘ni	ulush i foizda	banklar so‘ni	ulush i foizda
<b>01.01.2022 yil holatiga</b>														
Jami kapital	33	70 917,6	2	0,1	8	1,8	5	2,6	2	2,1	8	17,3	8	76,0
shundan ustav kapitali	33	54 760,0	2	0,2	11	2,8	7	4,7	3	4,4	3	8,2	7	79,7
<b>01.01.2023 yil holatiga</b>														
Jami kapital	31	79 565,4	1	0,1	5	1,1	4	1,9	5	4,5	5	10,4	11	82,1
shundan ustav kapitali	31	59 856,7	1	0,1	7	1,5	7	4,1	5	5,7	4	9,4	7	79,2

Bankning ustav kapitali uning balans passivida ko‘rsatilib, summasi qonun bilan chegaralanmaydi. Ammo uning uchun eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi va bu eng kam ustav kapitali bank muassislarini tomonidan uni ro‘yxatga olish paytigacha to‘lanishi kerak.

<sup>8</sup> Abdullayev Yo. Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010-yil. - 112 bet.

<sup>9</sup> <http://www.cbu.uz> “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni”. © O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2023 yil.

Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:

2023-yil 1-sentabrga qadar yuz milliard so‘mni;

2023-yil 1-sentabrdan e’tiboran ikki yuz milliard so‘mni;

2024-yil 1-apreldan e’tiboran uch yuz ellik milliard so‘mni;

2025-yil 1-yanvardan e’tiboran besh yuz milliard so‘mni tashkil etishi kerak<sup>10</sup>.

Bankning ustav kapitali O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag‘laridan yoki davlatning qimmatli qog‘ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

- bank aksiyalarini bankning kreditorlari orasida joylashtirish va bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo‘yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo‘li bilan ularning haqini to‘lash;
- qimmatli qog‘ozlarni bank aksiyalariga ayirboshlash;
- bankning joylashtirilgan bir turdagি aksiyalarini ushbu bankning boshqa turdagи aksiyalariga almashtirish.

Bankni qayta tashkil etish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

**Litsenziyani chaqirib olish.** Markaziy bank quyidagi hollarda litsenziyani chaqirib olishga haqli:

- ❖ agar bank litsenziyani olganidan keyin o‘n ikki oy ichida bank faoliyatini amalga oshirishni boshlamagan, bu faoliyatdan to‘g‘ridan to‘g‘ri voz kechgan yoki moliyaviy operatsiyalarni uch oydan ortiqroq muddat davomida amalga oshirmagan bo‘lsa;
- ❖ litsenziya berish shartlari bank tomonidan bajarilmaganda;
- ❖ qonunda ko‘rsatilgan qo‘pol qoidabuzarliklardan biri bank tomonidan sodir etilganda;
- ❖ agar bank ketma-ket keluvchi uch chorakning har birida bank reguliyativ kapitalining o‘n foizidan ortiq yoki muddatidan qat‘i nazar, reguliyativ kapitalning ellik foizidan ortiq miqdorda zarar ko‘rgan bo‘lsa yoki zarar ko‘rish ehtimoli mavjud bo‘lsa;
- ❖ qayta tashkil etish natijasida bankning faoliyati tugatilganda;
- ❖ aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida bankni ixtiyoriy ravishda tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinganda;
- ❖ O‘zbekiston Respublikasida bank tashkil etgan chet davlat bankidan litsenziya chaqirib olinganda;
- ❖ bank to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lib qolganda.

Bankning **to‘lovga qobiliyatsizligi** deganda quyidagi hollar tushuniladi<sup>11</sup>:

- bank mijozlarning o‘ziga nisbatan qo‘ygan talablarini o‘n besh kun ichida to‘lashga qodir bo‘lmasa;
- bankning majburiyatlari uning aktivlaridan ortib ketsa;
- omonatchilar va kreditorlar tomonidan bankka ishonib topshirilgan mablag‘larning butligiga xavf soluvchi har qanday boshqa holatlar mavjud bo‘lsa.

Bank boshqaruvi bankning to‘lovga layoqatsizlik holati yuzaga kelgan yoki mijozlar tomonidan talab etilgan da’volarni qanoatlantira olmaslikka oid tavakkalchilik mavjud bo‘lgan hollarda darhol Markaziy bankka xabar berishi kerak.

Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g‘risidagi qarori ushbu qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran kuchga kiradi.

Markaziy bank boshqaruvining qarori ushbu qaror qabul qilingan kuni bank rahbariyatiga imzo qo‘ydirib topshiriladi.

<sup>10</sup> “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 5-noyabr, O‘RQ-580-son.

<sup>11</sup> “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 5-noyabr, O‘RQ-580-son.

Bankning litsenziyasi chaqirib olinganligi to‘g‘risidagi axborot mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran bir kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek Markaziy bankning rasmiy veb-saytida e‘lon qilinishi lozim.

Bankka Markaziy bank boshqaruvining litsenziyani chaqirib olish to‘g‘risidagi qarori qabul qilingan paytdan e‘tiboran ushbu Qonunga muvofiq banklar uchun ruxsat etilgan faoliyatni amalga oshirish taqiqlanadi, bundan bankning tugatilishi bilan bog‘liq harakatlar mustasno.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy (Markaziy bank tomonidan litsenziya chaqirib olinganda) shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish uchun:

- bank aksiyadorlari umumiyligi yig‘ilishining bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarori;
- Markaziy bank boshqaruvining bankni majburiy tugatish haqidagi qarori asos bo‘ladi.

Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish, shu jumladan ixtiyoriy shaklda tugatish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Bankni tugatish Banklarning davlat reyestriga tegishli yozuv kiritilgan kundan e‘tiboran tamomlangan deb va bank tugatilgan deb hisoblanadi.

**Ixtiyoriy tugatish.** Ixtiyoriy tugatish bank aksiyadorlari (ishtirokchilar) umumiyligi yig‘ilishining ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qarori asosida, kreditorlar va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish imkoniyati mavjud bo‘lganda hamda Markaziy bankning ruxsati olinganda amalga oshiriladi.

Bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etayotgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlar ovozlarining to‘rtadan uch qismidan iborat ko‘philik ovozi bilan qabul qilinadi.

Bank Markaziy bankka aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risida qabul qilingan qaror haqida darhol yozma shaklda xabar berishi shart.

Bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat olish uchun bank aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishining mazkur qarori qabul qilinganidan keyin besh kundan kechiktirmay Markaziy bankka quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda ariza beradi:

- bankni tugatish to‘g‘risida aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan tugatish sabablari ko‘rsatilgan holda qabul qilingan qaror;
- aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan tasdiqlangan, tugatish jarayonini, kreditorlarning va omonatchilarning talablarini qanoatlantirish tartib-taomillari va muddatlarini doirasidagi tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan tugatish rejasi;
- ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g‘risida Markaziy bankka ariza bilan murojaat etilgan paytdagi talablarini qanoatlantirish uchun mablag‘lar yetarli ekanligini tasdiqlovchi balans hisoboti;
- tugatish komissiyasining tarkibi to‘g‘risidagi axborot va boshqa zarur ma’lumotlar.

Bankni tugatish komissiyasi oldindan Markaziy bank bilan kelishilgan holda aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishi tomonidan tayinlanadi. Agar tugatish komissiyasi tayinlanmagan bo‘lsa, bankni tugatish bo‘yicha komissiya Markaziy bank boshqaruvining qarori bilan tashkil etiladi.

Markaziy bank bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi arizani olgan kundan e‘tiboran ikki oy ichida taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi va quyidagi shartlar bajarilgan bo‘lsa, bankni ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat beradi, agar:

- ✓ bankni ixtiyoriy tugatish to‘g‘risidagi qaror qonunchilikka muvofiq qabul qilingan bo‘lsa;
- ✓ bank to‘lovga layoqatli bo‘lsa;
- ✓ bank tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda to‘liq va yetarli ma’lumotlar mavjud bo‘lsa;
- ✓ taqdim etilgan tugatish rejasi kreditorlar va omonatchilarning talablari to‘liq qanoatlantirilishi uchun imkoniyatlar bo‘lishini ta‘minlasa;
- ✓ bank Markaziy bankning so‘rovnomasiga ko‘ra bankni ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish shartlari bajarilganligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan qo‘sishimcha hujjatlarni belgilangan muddatda taqdim etgan bo‘lsa.

Markaziy bank salbiy qaror qabul qilgan taqdirda ixtiyoriy tugatishga ruxsat berish rad etilgani to‘g‘risidagi asoslantirilgan qarorni bankning kuzatuv kengashiga yetkazadi. Zarur hollarda Markaziy bank tugatish rejasi va jadvalining qayta ko‘rib chiqilishini yoki qo‘srimcha hujjatlar va axborot taqdim etilishini talab qilishi mumkin.

Markaziy bank ixtiyoriy tugatish uchun ruxsat bergenidan keyin bank litsenziyasini chaqirib oladi.

Agar ixtiyoriy tugatish jarayonida bank to‘lovga layoqatsiz ekanligi aniqlansa, tugatish komissiyasi zudlik bilan Markaziy bankka xabar berishi hamda bankning moliyaviy ahvolini tasdiqlovchi tegishli hisobot va hujjatlarni taqdim etishi kerak.

**Majburiy tugatish.** Bank Markaziy bank boshqaruving litsenziyanı chaqirib olish to‘g‘risidagi qarori asosida majburiy tugatiladi.

Bankni majburiy tugatish chog‘ida tugatish komissiyasi Markaziy bank tomonidan tayinlanadi.

Markaziy bank tugatish komissiyasi tarkibiga Markaziy bank xodimlarini kiritishga haqli.

Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e’tiboran bank ishlarini boshqarish bo‘yicha, shu jumladan bank aksiyadorlarining umumiyligi yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va boshqaruvi vakolatlari ushbu komissiyaga o‘tadi.

Tugatish komissiyasi tayinlangan sanadan e’tiboran ikki kun ichida ommaviy axborot vositalarida, shuningdek bankning rasmiy veb-saytida bank tugatilganligi, shu jumladan uning omonatchilarini va kreditorlari tomonidan talablarni qanoatlantirish to‘g‘risidagi arizalarini berish tartibi va muddatlari to‘g‘risidagi e’lonni chop etishi shart. Talablarni taqdim etish muddati bank tugatilganligi to‘g‘risidagi xabar e’lon qilingan kundan e’tiboran ikki oyni tashkil etadi va mazkur muddat tugaganidan so‘ng tugatish komissiyasi tomonidan talablar qabul qilinmaydi.

Tugatish komissiyasi qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq axborotni ham oshkor qilishi kerak.

Tugatish komissiyasi litsenziya chaqirib olingan kundan e’tiboran ikki oy ichida kreditorlarni aniqlash hamda debitorlik qarzlarini va Markaziy bankning majburiy zaxiralar jamg‘armasida depozitga qo‘yilgan mablag‘larni olish choralarini ko‘radi. Mazkur mablag‘lar birinchi navbatda tugatilayotgan bankning qarzlarini jismoniyligi shaxslarning talablari asosida to‘lashga qaratiladi, bundan bankka aloqador bo‘lgan shaxslar mustasno.

## **1.2.Tijorat banklari passivlari va aktivlari tarkibi hamda ularni boshqarish muammolari.**

Aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning banklardagi depozitlari hajmining o’sishini rag‘batlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar, jumladan, doimiy ravishda jozibador omonat turlarini taklif qilish, uzoq muddatli bank depozit sertifikatlarini va obligatsiyalarini muomalaga chiqarish hamda bu borada joriy etilgan imtiyozlar va qulay shart-sharoitlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish o‘zining ijobjiy natijalarini bermoqda.

Aholining talab va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hozirda tijorat banklari tomonidan 400 dan ortiq jozibador omonat turlari taklif etilmoqda.

Bugungi kunda banklar resurs bazasining muttasil o’sib borayotganligi, o‘z navbatida banklarning kreditlash va investitsiyalash imkoniyatlarini kengaytirib, bank aktivlari hajmining oshishiga imkon bermoqda.

Ayni paytda banklarimizning umumiyligi aktivlari hajmi aholi va yuridik shaxslarning hisob raqamlaridagi mablag‘lardan ikki barobardan ham ko‘pdir. Bu esa ushbu mablag‘larni ishonchli himoya qilish hamda ularga o‘z vaqtida va to‘la hajmda xizmat ko‘rsatishni kafolatlaydi.

Bank faoliyatini tashkil qilishning ilk bosqichi, bank resurslarini shakllantirishdan iborat. Bank resurslarining mukammal tashkil qilinishi va tejamli ishlatilishi har qanday bank faoliyatining samarali olib borilishiga zamin yaratadi. Hosil qilingan resurslar banklarning tijorat va xo‘jalik faoliyatini ta’minalash uchun ishlatiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bank resurslarini shakllantirish va ulardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarining resurs bazasini shakllantirish nafaqat yangi mijozlarni jalb etish, balki resurslar manbalari tuzilmasini doimiy ravishda o‘zgartirib turishni ham o‘z ichiga olgan holda, bank aktivlari va passivlaridan oqilona

foydalishning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bank passivlaridan samarali foydalish depozit siyosatining oqilona yuritilishidan iborat bo'ladi.

Tijorat banklari resurslarining tarkibini tadqiq qilishdan oldin bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini nazariy jihatdan har tomonlama chuqur o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'yaymiz.

Resurs - fransuzcha «ressource»<sup>12</sup>. so'zidan olingen bo'lib, pul mablag'lari, yordamchi mablag', imkoniyat, zahira, mablag' va imkoniyatlar manbai, daromadlar manbai, xom-ashyo degan ma'nolarni o'zida mujassamlashtiradi.

Iqtisodiy manbalarda «resurs» so'zi turli hil ma'nolarda, ya'ni, tabiat resurslari, moliyaviy resurslar, iqtisodiy resurslar, inson resurslari va boshqa ko'rinishlarda tez-tez uchrab turadi. Iqtisodiy resurslar asosiy qismi, bu moliyaviy resurslar bo'lib, bu resurslar iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash uchun foydalilanligan pul-kredit va byudjet mablag'larini tashkil qiladi.

Moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, vaqtinchalik bo'sh turgan pul mablag'lari, soliqlar, jismoniy shaxslarning pul mablag'lari, chek-depozit emissiyasi bilan bog'liq mablag'lar va boshqalar hisoblandi.

Bank resurslari to'g'risida Respublikamizda i.f.n. B.Boboev tomonidan ilmiy tadqiqot ishi olib borilgan. Unda bank resurslarining mohiyati, tarkibi, resurslarni shakllantirish bilan bog'liq muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini keng ochib berishga harakat qilingan. Respublikada pul bozorini shakllantirish va unda pul resurslari bilan operatsiyalar o'tkazishda banklar faoliyatining strategiyasini ishlab chiqish uchun bank resurslari tushunchasini hamda banklarning resurslar bilan bog'liq holda o'tkaziladigan operatsiyalarning mohiyatini to'liq anglash va talqin etish lozim.

Xorijiy iqtisodchi olimlar tomonidan yozilgan nazariy manbalar hamda amaliyotchilar iqtisodiy tahlillarini o'rganar ekanmiz, shu narsaga amin bo'ldikki, «bank resurslari» tushunchasiga katta e'tibor berilgan. Masalan, E.Rid, R.Kotter, E.Pill va R.Smitlarning<sup>13</sup> muallifligi ostida chop qilingan «Kommercheskie banki» kitobida bank balansini guruhlashtirilgan holda ko'rish mumkin va unda pul mablag'larining manbalariga alohida e'tibor berilganligi hamda ularni tadqiq etishda banklarning passiv operatsiyalarini chuqur tahlil qilish zarurligi uqtirilganini guvohi bo'ldik.

Yana bir guru D. Polfreman va F. Ford<sup>14</sup> kabi iqtisodchi olimlar bank faoliyatini tahlil qilishda bank resurslarini, bank passivlari deb ko'rib chiqishgan hamda ular bank aksionerlari mablag'lari va jamg'armachilarining mablag'laridan tashkil topgan, degan fikrni bildirishgan. Bu qarashning ikkinchi jihat shundaki, tijorat banklari shu resurslarni o'z majburiyatlarini bajarishi uchun mukammal joylashtirishni afzal ko'radi va shu orqali resurslardan yuqori samara olish uchun qattiq kredit siyosatini olib boradi, hamda tijorat banklarning faoliyati mijozlari oldida olgan majburiyatlarini bajarishga qaratilgan bo'ladi. Shundan kelib chiqib, «bank resurslari» nafaqat qarz majburiyatlar yoki egalik huquqini olish uchun mablag' jalb qilish, balki bank uchun daromad keltiradigan zahira va imkoniyat hamdir.

Bizning fikrimizcha, bank passivlari bank resurslarini tashkil qilish manbai bo'lib, ularning hajmi bir necha omillarga bog'liq:

- banklarning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan faoliyati;
- pul-kredit siyosatini boshqarish sohasidagi Markaziy bankning siyosati;
- bankning jalb qilingan mablag'lari va ularning tarkibi;
- tijorat banki tomonidan Markaziy bankka o'tkaziladigan majburiy zahira miqdori;
- boshqa passivlar.

Iqtisodiy manbalarda va bank mablag'larining shakllanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda «bank resurslari», «kredit resurslari», «depozit resurslari», «bank passivlari» kabi tushunchalarni uchratishimiz mumkin va bu tushunchalarga mualliflar o'zlarining turlicha ta'riflari orqali izoh bergenlarining shohidi bo'lamiz.

<sup>12</sup> Советская Энциклопедия 1986 г.; Финансово-кредитный словарь М. Финанси и статистика 1986 г. 368 с.; Узбекско-русский словарь. гос. изд-во иностранных и национальных словарей. М.: 1959 г. 343 с.

<sup>13</sup> Э.Рид, Р. Коттер, Э.Пил и Р. Смит «Коммерческие банки» перевод с англ. М. Космополис 1991г. стр.-16

<sup>14</sup> Полфреман Д., Форд Ф. Основы банковского дела. Перевод с англ. Москва инфра 1996 г. str.-102.

Rossiyalik olim O.I.Lavrushinning fikriga ko'ra, tijorat banklarining resurslari yoki «banklarning resurslari» bankning ixtiyorida bo'lgan o'z va jalg qilingan resurslarining yig'indisi bo'lib, uning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi<sup>15</sup>. Tijorat banklarining resurslari o'z mablag'lari va jalg qilingan mablag'lar hisobidan tashkil qilinishini ta'kidlash, bizning fikrimizcha, ularning manbalariga ko'proq e'tiborni qaratadi. Shu boisdan tijorat banklari resurslari mohiyatini ta'riflaganda nafaqat ularning qaysi manbalar hisobidan tashkil qilinganligini e'tiborga olish, balki u mablag'lar bankning maqsadli faoliyati uchun zarur va muhimligini hamda ularning samaradorligiga erishishni ham ko'zda tutish lozim.

Shundan kelib chiqqan holda, biz bank resurslari - bu bank siyosati doirasida bank faoliyatini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan, bankning o'z mablag'laridan va jalg qilingan mablag'laridan tashkil topgan, bankning daromad olishga asos bo'lувчи zahira va imkoniyatlarning yig'indisidir degan ta'rifni keltirmoqchimiz.

Chet el adabiyotlarida<sup>16</sup> mablag'larni jalg qilish operatsiyalarini nafaqat tijorat banklari, balki moliyaviy kompaniyalar, jamg'arma kassalari, turli hil fondlar ham bajaradi degan fikrni uchratish mumkin. Albatta, bozor munosabatlarining rivojlanishi banklar faoliyatida raqobatbardosh moliyaviy institutlar va fondlarning shakllanishiga olib keladi. Lekin fondlarning faoliyati va maqsadi bilan tijorat banklarining faoliyati va maqsadi bir hil emas. Turli fondlar va muassasalar faoliyatidan ko'ra banklarda depozitlar sug'urtalangan va kafolatlangandir. Turli boshqa moliyaviy muassasalarga nisbatan tijorat banklari bu mablag'larni saqlash va riskdan himoya qilishda mablag' egasiga o'z kafolatini berishi mumkin va mijozning o'z mablag'ini yo'qotishi bilan bog'liq riski banklarda boshqa fondlar yoki kassalarga nisbatan ancha past yoki deyarli yo'q deyish mumkin.

Bank resurslari banklar tomonidan amalga oshiriladigan passiv operatsiyalari yordamida shakllanib, bank balansining passiv qismida ikki katta guruhga bo'lib hisobga olinadi.

Bular: banklarning o'z mablag'lari va jalg qilingan mablag'laridir. Jalg qilingan resurslarni ba'zi hollarda ikkiga bo'lib qaraladi.

Birinchisi, bu jalg qilingan depozitlar, ikkinchisi, boshqa majburiyatlar va sotib olingan resurslardir. Bu resurslar bankning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishlatiladi, ya'ni bank resurslari daromad olish maqsadida turli hil sohalarga joylashtiriladi. Bankning passiv va aktiv operatsiyalari o'zaro chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, passivlarning tarkibi va xarakteri ko'p jihatdan banklarning aktiv operatsiyalarini amalga oshirishda o'z ifodasini topadi. Shu bilan birga, resurslar xarakteriga banklarning kreditlash siyosatining o'zgarishi ham ta'sir qiladi.

Bank resurslarining asosiy qismini bank mijozlarining mablag'lari tashkil qiladi. Bank boshqa mablag'larini jalg qilish uchun, avvalambor me'yoriy hujjalari talablari bo'yicha bank o'z kapitalining yetarlilik darajasi miqdorini shakllantirishi lozim.

Tijorat banki o'z mijozlarining bo'sh turgan mablag'larni qarzga olish bilan bir vaqtning o'zida, bu mablag'larni o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash majburiyatini ham oladi, shuning uchun bank barqaror likvidlikka ega bo'lishi kerak. Ishonchlilik va likvidlilik tamoyillari tijorat banki mavjudligining zarur shartlaridan bo'lib, ular aholining bo'sh turgan pul mablag'larining bank sari oqimini ta'minlaydi. Undan tashqari bankning ahvoli moliyaviy jihatdan kam samarali bo'lgan holatda mijozlar o'z mablag'larini qaytarib olishlariga ishonch hosil qilishlariga zamin yaratadi.

Bank resurslarining shakllanishi va aylanishi uzlusiz jarayonni tashkil qiladi va bu esa o'z navbatida banklar faoliyatini doimiyligiga asos hisoblanadi.

Tijorat banklarining resurs bazasini resurslarning turlari bo'yicha guruhlarga ajratish mumkin. Bu bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'lar hamda jalg qilingan va qarz mablag'laridir.


Ishonchlilik darajasi bo'yicha bankning o'z mablag'lari va ularga tenglashtirilgan mablag'laridan keyingi o'rinda turuvchi jalg qilingan va qarz mablag'lari bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siriga bog'liqidir:

-fuqarolarning omonatlari va yuridik shaxslarning depozitlari foiz stavkalari miqdori;

<sup>15</sup> Банковское дело. Под редакции О.И. Лаврушина М.Фин. и статистика. 1998 г. стр.68

<sup>16</sup> Синки, Д.Ф. (мл.). Управление финансами в коммерческих банках : Пер. с англ. 4-го изд. / Джозеф Ф. Синки, мл. - Москва : Catallaxy, 1994г. стр. 22-23

–omonat va depozitlarni qabul qilish, hisob-kitob va boshqa hisob raqamlarini ochish va ularni yuritish shartlari.



### 1-rasm. Bank resurslarining shakllanish jihatdan tarkibiy tasnifi

O'zbekiston banklari kapitalining yetarlilikiga qo'yiladigan asosiy talablar "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizomda belgilangan<sup>17</sup>. Nizom

<sup>17</sup> "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom. [O'zR AV tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan].

bo'yicha banklar kapitalining yetarliliga qo'yiladigan talablar xalqaro Bazel qo'mitasining andozalarida ko'zda tutilgan talablarga mos keladi.

Xalqaro bank amaliyotida banklarning resurs bazasini shakllantiruvchi asosiy manbalarga o'z kapitalidan tashqari quyidagilar kiradi: yuridik va jismoniy shaxslarning depozit hisob varaqlaridan qoldiqlari; bank tomonidan yuridik shaxslar uchun muomalaga chiqarilgan veksellar va depozit sertifikatlar; olingan banklararo kreditlar; vakil bank tomonidan ochilgan "Vostro" depozit hamda valyuta hisob varaqasidagi mablag'lar va boshqa manbalar.

#### 4-jadval

#### Bank resurslarining belgisi va manbasi bo'yicha tasniflanishi

Tasnif	Resurslar turlari	Izoh
Manbai	O'z mablag'lari	Nizom, qo'shimcha kapital, zaxiralar, foyda va zararlar hisob raqamidagi qoldiq.
	Jalb qilingan va qarz mablag'lari	Mijozlarning hamda vakil - banklarning joriy, depozit, jamg'arma va boshqa hisob raqamlaridagi mablag'lar; yuridik shaxslar tomonidan olingan kreditlar
Mablag'larning kimga tegishliligi bo'yicha	Bankka tegishli	O'z mablag'lari: jamg'armalar, taqsimlanmagan foyda, taqsimotdan keyingi joriy davrning foydasi, o'z mablag'larini ko'payishiga ta'sir qiluvchi xarajatlarni hisobga olmagan holda emission daromad.
	Bankka tegishli bo'limgan	Banklararo kredit, jalb qilingan depozitlar, maxsus jamg'armalar, korxonalarning hisob raqamlardagi bo'sh pul mablag'lari, bankning kreditorlik qarzları, debitorlar bilan hisoblashishlar bo'yicha zaxiralar.
Muddatiga ko'ra	Uzoq muddatli	O'z mablag'lari, o'z mablag'lariga tenglashtirilgan mablag'lar (talab qilib olinguncha hisobraqamlaridagi minimal qoldiqlar), uzoq muddatli depozitlar.
	Qisqa muddatli	Qisqa muddatli depozitlar, korxona va tashkilotlarning talab qilib olinguncha hisob raqamlaridagi minimal qoldiqdan ortgan mablag'lar.
Ishonchliligi bo'yicha	Ishonchli	O'z mablag'lari, uzoq muddatli depozitlar, moliyaviy yordam
	Ishonchsiz	Talab qilib olinguncha depozitlar, korxona va tashkilotlarning hisob raqamlari.
Ko'payish manbai	O'z ichki va tashqi mablag'lari	Taqsimlanmagan foyda.
		Qimmatli qog'ozlarni chiqarish (Aksiya, obligatsiya, veksellar) shu jumladan, konvertirlanadigan, bank aktivlarini sotish, ko'chmas mulkni ijaraga berish.
	Jalb qilingan ichki va tashki qarz mablag'lari	Qimmatli qog'ozlarni konvertatsiya qilish.
		Yuridik shaxslarni hisob raqamlarini ochish, fuqarolarning omonatlari, yuridik shaxslarning depozitlari, banklararo kreditlar.

Yuqoridagi tasnif iqtisodiy adabiyotlarda keltirilgan qisqacha tasnidan farqli o'laroq bank resurslarining manbasi, turlari, kimga tegishli ekanligi, muddati, ishonchlilik va risk darajasi, ko'rsatish imkoniyatlarini o'zida mujasamlashtirilgan holda ishlab chiqilgan.

Bu bank mablag'larini shakllantirishning eng konservativ usulidir. Banklarning resurs bazasini quyidagicha tasniflash mumkin. Banklarning jalb qilingan malbag'lari qarz mablag'laridan shunisi bilan farq qiladiki, birinchi holda, mablag'larni taqdim qilish mijoz va bank omonatchilarining tashabbusi bilan amalga oshirilsa, keyingi holda - bank tashabbusi bilan amalga oshiriladi.

Banklarning barcha resurs bazasidagi elementlarni turli belgililar bo'yicha guruhlarga ajratdik.

Tahlil maqsadida va klassifikatsiyaning asosini boshqarishda (4-jadvalda keltirilgan), quyidagi belgilar inobatga olindi.

Bular resurslarni:

- manbalari bo'yicha;
- mablag'lar kimga tegishliligi bo'yicha;
- muddatiga ko'ra;
- ishonchlilik darajasiga ko'ra;
- ko'payish manbaiga ko'ra va boshqalar bo'yicha tasniflash mumkin.

Yuqorida tavsiya qilingan tasnif, bizning fikrimizcha, banklar faoliyati uchun zarur bo'lib, banklar o'zida mavjud bo'lган resurslarni qaysi manbadan, qancha muddatga jalb qilinganligi to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, bu tasnif asosida banklar mablag'lari qaysi sub'ektga tegishli ekanligi va bu sub'ektning moliyaviy ahvoli,unga shu mablag'lar qaysi muddatga zarurligi yoki boshqacha qilib aytganda, ularning likvidlilik, ishonchlilik darajasi, shu mablag'lar bo'yicha mavjud risklar va ularning darajasini aniqlashga va shu omillar asosida chora-tadbirlarni amalga oshirib banklarning resurs bazasini barqaror ushlab turishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunlariga hamda boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-son «Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga hamda 2015 yil 6 iyuldagagi 2693-son "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom"lar asosida mamlakatimizda tijorat banklarining kapitali shakllantiriladi va boshqariladi.

Banklar tomonidan pul mablag'larini yig'ish, boshqa depozitlarni jalb qilish strategiyasini amalga oshirish bankning kredit-investitsion faoliyatini amalga oshirish uchun ham zarur.

Depozit operatsiyalari yordamida banklarning 70 foizdan ortiq passivlari tashkil qilinishi mumkin. Depozit operatsiyalarini banklar o'zlarining depozit siyosatlari asosida olib boradilar. Bankning depozit siyosati uning kredit siyosati, foiz siyosati va boshqa faoliyat turlari bilan chambarchars bog'liq bo'lib, banklarning resurs bazasini mustahkamlash va uning barqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bu operatsiya turining ob'ekt va sub'ektini aniqlash lozim.

Depozit operatsiyalarining obekti bo'lib ehtiyojdan ortiqcha pul mablag'lari (qo'yilmalar) hisoblanadi. Depozit operatsiyalarini tashkil qilishning asosi bo'lib balans likvidliligi, mijozlarning moliyaviy ahvolining barqarorligi hisoblanadi.

Depozit foiz stavkalari darajasini har bir bank O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki hisob stavkasi, pul bozori holati va o'zining depozit siyosatidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilaydi. Depozit hisobvarag'ining alohida ko'rinishlari bo'yicha daromad hajmi qo'yilma muddati, summasi, hisobvarag'ini amal qilish xususiyati, xizmatlar hajmi va xarakteri va nihoyat, mijozning qo'yilma shartnomasi shartlariga amal qilishiga bog'liq.

Bank depozit sertifikatlari – bank resurslar manbaasiga qo'shimcha pul mablag'larini jalb qilishning bozor mexanizmiga xos bo'lган usullaridan biri bo'lib, bank tizimining barqaror faoliyat ko'rsatishda va resurs bazasining mustahkamlanishida o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda depozit sertifikatlar amalda bo'lish qoidalari va bozori shartlarini tashkil etish va ularning muomalasini tartibga solish maqsadida, «O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank tomonidan «Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida» Nizom ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur tartibga asosan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan banklar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga mo'ljalangan o'z depozit sertifikatlarini chiqarib kelinmoqda. Bank tomonidan chiqarilayotgan sertifikatlar xalqaro amaliyotda va bizning qonunchilikda belgilangan shartlar bo'yicha ikki turda chiqarilishi mumkin:<sup>18</sup>

<sup>18</sup> "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida" NIZOM. 2008 yil

1. Yuridik shaxslar uchun mo'ljallangan – depozit sertifikatlari.
2. Jismoniy shasxlar uchun mo'ljallangan - jamg'arma sertifikatlari

Mamlakatda moliya bozorlarining keng ko'lamma ishlashining ta'minlanishi ulardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

Bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarining resurslarini tashkil qilish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. Shu sabab o'tish iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan deyarli barcha mamlakatlarda tijorat banklari resurslarini shakllantirish tizimida tubdan o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlarning bo'lismiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi. Bular:

–banklararo kredit bozorida Markaziy bankning faol ishtirok etishining ta'minlanishi va bu o'z navbatida kredit riskini kamaytirganligi;

–iqtisodiyotda noto'lovlar muammosining mavjudligi va kreditning qaytarilmasligi oqibatida tijorat banklarining zarar ko'rish imkoniyatining oshishi;

–aholi qo'lidagi omonatlarning o'sishi;

–korporativ qimmatli qog'ozlar bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi va boshqalardir.

Bank tizimi faoliyati davlatning iqtisodiy holati bilan uzviy holda bog'liq va unga o'ziga yarasha ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa hozirgi sharoitida, mamlakatdagi moliya – kredit tizimining tashkil etilganligi, iqtisodiy sikllarning barqarorligini bank faoliyati ko'rsatkichlari orqali qisman bo'lsa ham ko'rish mumkin. Banklarning iqtisodiy faoliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak bank faoliyatida ham o'ziga yarasha ehtiyojlar va talablar mavjud. Ushbu bobda bank faoliyati yuritish uchun zarur bo'lgan «resurslar» tushunchasi va ularning tarkibi hamda mohiyati bilan tanishamiz.

Banklar faoliyati ham boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar singari o'z faoliyatini olib borishi uchun yetarli darajada pul va moliyaviy resurslari bilan ta'minlagan bo'lismi kerak, chunki ularning asosiy taklif etadigan va ko'rsatadigan xizmatlari ham pul mablag'lari yoki moliyaviy resurslarda tashkil topadi.

Hozirgi kunda tijorat banklarining to'qnashishi mumkin bo'lgan muommolardan biri bu bank resurslarning shakllantirish va ularni saqlab qolish bo'lib qolmoqda.

Bank resurslarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar banklarning **passiv operatsiyalari** deyiladi. Passiv operatsiyalar yordamida tijorat banklarining passiv va aktiv-passiv schyotidagi pul mablag'larining salmog'i oshib boradi. Banklarning passiv operatsiyalari ularning faoliyatini tashkil qilishda katta rol o'ynaydi. Tijorat banklari passiv operatsiyalarining asosan to'rtta shakli mavjud.

1. Tijorat banklari qimmatbaho qog'ozlarini muomalaga chiqarish yo'li bilan resurslar yig'ish;
2. Bank foydasi hisobidan har xil fondlar tashkil qilish yoki fondlar summasining oshirish;
3. Boshqa kreditorlarning mablag'larini jalb qilish;
4. Depozit operatsiyalarini amalga oshirish.

Tijorat banklari resurslari makroiqtisodiy ko'rsatkichlar qatoriga kiradi va bankning likvidligiga va daromadligigiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Tijorat bankning faoliyat ko'rsatish qamrovini oladigan bo'lsak ular oladigan foydalar bank resurslarini qanday shakllantirganligi va qanday shartlar va turlari bo'yicha jalb qilganligiga juda ham bog'liqligini juda yaxshi bilamiz. Shuning uchun banklar o'rtasida ham mablag'larni jalb qilishda ham katta raqobat muhiti yuzaga kelganilagini ko'rishimiz mumkin.

Bank resurslarini shakllantirish jarayoni bu faqatgina yangi mijozlarni bankga jalb qilishning o'zi emas balki bank mablag'lari tuzilishining doimiy ravishda o'zgarib turishi va tarkibidagi passivlarning holatiga qarab o'z aktivlarini boshqarishi ham tushuniladi. Buning uchun esa samarali passivlarni boshqarish tizimi yoki samarali depozit siyosatini yuritilishini talab etiladi. Mijozlar oldidagi talabni doimiy qondirish hamda barqaror holatni saqlab qolish uchun banklar kerakli darajada likvidlik talablarni bajarishi kerak. Bugungi kunda Markaziy bank talablaridan hamda o'zining ichki faoliyatidan kelib chiqib likvidlik normalari belgilangan.

Bankning depozit siyosati o'z ichiga hamma ijtimoiy darajadagi shaxslar – nafaqaxo'rlar, yoshlar va yoshi kattalar hamda kam ta'minlanganlar va kam daromadlilarning ham hisobini olishi kerak.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar shuni ko'rsatadiki, bank resurlarining shakllanishi va ularni barqarorligini ta'minlashda quyidagilar asos bo'lib qolmoqda:

- banklarning asosiy mablag'lari o'sishi aksiyadorlarni jalg qilish va ularning mablag'larini joylashtirish hamda olingan daromadlardan ajratmalar ajratish, zahira fondlar yaratish va maqsadli zahiralar tuzish orqali amalga oshirilmoqda.

- bankning passiv operatsiyalarini yuritish orqali, ya'ni depozitlarga jalg qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha va jamg'arma, muddatli omonatlariga, vaqtincha yoki talab qilib olguncha shartlari bo'yicha joylashtirish orqali olib borilmoqda.

Bankning o'z kapitali bank faoliyatining asosini tashkil etuvchi hamda bank passivlarining muhim manbalaridan hisoblanadi.

Jalg qilingan va sotib olgan mablag'lar yoki qarzga olingan mablag'lar bank passivlarining katta qismini tashkil etuvchi hamda tijorat bankning vositachi tashkilot ekanligini, ya'ni vaqtincha bo'sh mablag'larni jalg qilib boshqa mijozlarni talablarini qondiruvchi ekanlini tavsiflaydi.

Banklar resurslaridan samarali foydalanish uchun o'z passivlarini boshqarishni o'ta ehtiyojkorlik va qat'iy holatda olib boradi hamda bankning likvidligini va daromadliligini ta'minlaydilar.

Bank passivlarini boshqarilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi va olishi kerak.

Birinchidan, passivlarni boshqarish – bankni barqaror resurslar bilan ta'minlashi.

Ikkinchidan, jalg qilingan va o'z mablag'lari o'rtasida nisbatni optimal tarzda belgilashi.

Uchinchidan, passivlarni boshqarish orqali kapitalning yetarliligi talablarini nazorati.

To'rtinchidan, depozitlar turlarini salmog'ini ko'proq bo'lishini ta'minlashi va mulkchilik shakllarini manfaatlarini ifoda etishi.

Beshinchidan, muddatli jamg'armalarga alohida e'tibor berilishi va likvidlikni ta'minlanishi.

Oltinchidan, jalg qilingan resurslarni muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlarning muddatlari va summalarini mos kelishi.

Yettinchidan, passivlarni boshqarilishi shunday tashkil etilishi lozimki, natijaviy holatda bank foya ko'rishi lozim.

Bank passivlarini boshqarishdan maqsad bankni barqaror resurslar bazasi bilan ta'minlash bo'lib, bankning olib borayotgan yoki olib borishi lozim bo'lgan depozit siyosatiga bog'liq bo'lgan holda ularga qo'yiladigan talablarni keyingi qismarda ko'rib chiqamiz.

Bank resurslarining iqtisodiy mohiyatini o'rganadigan bo'lsak, bu yuzasidan taniqli iqtisodchi olim Lavrushin O.I., quyidagicha ta'rif beradi: «Tijorat banki resurslari yoki «bank resurslari», aktiv amaliyotlarni amalga oshirish uchun o'z ixtiyoriga jalg qilingan va o'z mablag'larining jamlamasidir». Maslechenkov Yu.S. ham o'z kitobida «Bank resurslari o'z va jalg qilingan mablag'lardan tashkil topadi» deydi.

Taniqli iqtisodchi olim Usoskin V.M. ham bank passivlarini ikkita katta guruhgaga bo'lib o'rganadi:

- Bank kapitali va unga tenglashtirilgan moddalar

- Jalg qilingan mablag'lari, depozit va nodepozit operatsiyalar.

Xorijiy adabiyot manbalardan birida “Tijorat banklarining passiv operatsiyalari ularning o'z va qarz mablag'lari pullaridagi bank faoliyati hisoblanadi”, - deb keltiriladi.<sup>19</sup>

Bizning fikrimizcha ham bank resurslariga, bankning o'z kapitali, qarzga olingan va jalg qilingan mablag'lari kirib, ulardan bankning aktiv amaliyotlarini amalga oshirishda foydalaniladi, ya'ni mablag'larni daromad olish maqsadida sohalarga joylashtirish tushuniladi.

Hozirgi zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida bank resurslarini shakllantirish va barqarorligi ta'minlash asosiy vazifalardan hisoblanib, faqatgina o'z va jalg qilingan mablag'larigina ularni joriy aktiv amaliyotlarini amalga oshirishga sharoit yaratib beradi.

<sup>19</sup> “Active and Passive operations of a Commercial Banks”, “Modern Economic Theory” September 9/ 2013.


Bankning resurslari tarkibini ikki qismga jalb qilingan va o'z mablag'lariiga bo'lib o'rganar ekanmiz, ular ham o'z vaqtida bir necha iqtisodiy unsurlardan tashkil topganligini ko'ramiz.

Bulardan, bankning o'z mablag'lari umumiy olganda o'z aksiyalarini joylashtirish, shuningdek rezervlar shakllantirish, xar hil fondlar tashkil etish, va taqsimlangan foyda hisobiga shakllanadi. Shuningdek banklarda boshqa nomoliyaviy tashkilotlardan farqli o'larok, o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik ozroq bo'ladi. (Boshqa nomoliyaviy tashkilotlarda 50% dan yuqori, banklarda esa 10% atrofida).

Bank resurslari tarkibida yoki banklarning passiv operatsiyalarda tijorat banklarining banklararo depozitlar ham muhim o'rinni egallaydi. Xususiyatiga ko'ra banklararo depozitlar muddatli yoki muddatsiz bo'lishi mumkin, ular yirik miqdordagi aktiv operatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlatalilib, turli maqsadlar hisobiga shakllantiriladi.

Bular depozit manbalardan farqli o'laroq o'z egasiga ya'ni mablag' joylashtiruvchiga mablag' qo'yanligini tasdiqlovchi egalik huquqi to'g'risida maxsus hujjatlari asosida ta'minlanishi yoki ko'zda tutilgan shartnomalar asosida sotib olinishi mumkin.

Banklarning pul bozoridagi marketing tadqiqotlarini olib borish bilan birga, resurlar bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan pul mablag'larini bank omonatlariga jalb qilishning zamonaviy usullari deb qarashimiz mumkin. Bu usullardan biri qimmatli qog'ozlar toifasiga kiruvchi yoki uning bir ko'rinishi bo'lgan bank depozit sertifikatlaridir.



## 2-rasm. Derozitlarning turkumlanishi

Depozit - lotincha (depositum) so'zidan olingen bo'lib, saqlash uchun topshirilgan buyum ma'nosini bildiradi. Iqtisodiyotda esa mijozning o'z mablag'ini vaqtincha foydalanish uchun bankka topshirishi natijasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabat tushuniladi. Iqtisodchi olim Rik Shatl o'zining "Depozit operatsiyalari uchun to'lov o'chovi" nomli maqolasida "Depozit operatsiyalari bilan ishlaydigan professional mutaxassislar eng yangi hisob hujjatlarini kuzatib borgan holda ularga bog'liq banklar yoki mikrokredit tashkilotlari tomonidan kompyuter ma'lumotlar bazasi ichiga omonatlarni kiritish va barcha oylik omonatlarini umumlashtirish hisobotlarini yaratadi", - deb fikr bildirilgan.

Bankning depozit operatsiyalari 4 guruhga bo'linadi:

- 1 Talab qilib olinguncha (muddatsiz) depozitlar;
- 2 Muddatli depozitlar;
- 3 Aholi jamg'armalari;
- 4 Qimmatli qog'ozlar chiqarish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish.

**Tijorat banklarining nodepozit operatsiyalari** deb, tijorat banklarining yirik pul bozorlaridan pul mablag'larini jalb qilish, qimmatli qog'ozlar, veksellarni, obligatsiyalar vositasini muomalaga qo'yish yo'li bilan mablag'larni jalb qilish sohasidagi operatsiyalariga aytildi.

Jahon banki amaliyotida tijorat banklariga mablag'larni jalb qilishning keng tarqalgan nodepozit shakllari ham mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- banklararo bozordan qarz olish;
- qimmatli qog'ozlarni qaytib sotib olish sharti bilan sotish;

- bank akseptlarini sotish;
- tijorat qog'ozlarini chiqarish;
- yevro-dollarlar bozoridan qarz olish;
- kapital notalar va obligatsiyalar chiqarish v.b.

Odatda, tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda resurslarning nodepozit manbalaridan ham foydalanishga katta e'tibor beriladi. Ular bozorda raqobatchilik asosida vositachilar (brokerlar) orqali sotib olinadi. Nodepozit manbalardan asosan moliyaviy markazlarda joylashgan hamda moliya bozori mexanizmidan erkin foydalanish huquqiga ega bo'lgan yirik banklar keng foydalananadilar. Nodepozit mablag'lar yirik miqdorda sotib olinadi.

Qo'yilmalarga mablag'larni jalg qilish uchun tijorat banklari qo'shimcha ravishda chet el tajribasidan foydalanishi mumkin, xususan:

- aholi mablag'larini jalg qilish bo'yicha turli dasturlarni ishlab chiqish;
- mijozlar – pul qo'yuvchilarga turli-tuman, jumladan, nobank xizmatlarni ham ko'rsatish;
- qo'yilma muddati tugashi bilan mukofot berishda investitsion harakterdagi qo'yilmalardan yuqori foiz stavkasini qo'llash;
- doimiy pul qo'yuvchilarga "bankka sadoqati" uchun mukofot to'lash;
- mijoz va bank iqtisodiy qiziqishlarini optimallashtiradigan, aralash xarakterda amal qiluvchi NAU va SAPS tipidagi hisobvaraqlarni qo'llashni amalga oshirishlari mumkin.

2002-yil aprelda «Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi qonunini qabul qilinishi bilan aholining banklardagi omonatlarini himoyalash va kafolatlashning huquqiy asoslari yaratildi<sup>20</sup>. Mazkur qonunda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-sentyabrdagi 326-sonli qarori bilan Fuqarolarning bankdagi omonotlarini kafolatlash fondi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat bankiga berilgan litsenziya chaqirib olinganda, mazkur fond bankdagi aholi omonatlari bo'yicha haq to'lashni kafolatlaydi. Barcha banklar, shu jumladan, chet el kapitali ishtirokidagi aholi omonotlarini jalg qiluvchi banklar fond bilan yozma bitim tizimini tuzishi majburiy qilib belgilab qo'yilgan. Fond yuridik shaxs sifatida tuzilgan bitimlar asosida faoliyat olib boradi. Banklar fondga bir yo'la va kalendar majburiy badallar to'lashadi. Bankning fondga bir yo'la to'laydigan badali bankning amalda shakllangan ustav kapitalining 0,1 foizini tashkil etadi.

Kalendar badallar har chorakda kafolatlanishi lozim bo'lgan omonatlarning amaldagi umumiy summasining 0,5 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda belgilanadi. Fondning pul mablag'lari O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida saqlanadi.

Aholi omonatlarining kafolatlanishi aholining bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Banklar resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalari biri va juda keng tarqalganligi bo'lib, banklararo kreditlar nazariyasi hisoblanadi.

### **Banklararo kreditlar nazariyasi.**

Markaziy bank yoki vakil bankdan qarz olish zaxiralarning (binobarin, likvidlikning ham) holatini tuzatish uchun mablag'larni safarbar etishning "hisob oynasi" (discount window) deb ham nomlanadigan bir usulidir. Zaxiralarni baravarlashtirib borishning ushbu usuli keng yoyilmagan bo'lsa-da, bunday qarzlar Markaziy bank tomonidan nazorat qilinadi.

Mablag' joylashtirishdan naf ko'rishdan tashqari, kreditor banklar bank faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha ham amaliy sherikchilik munosabatlari o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Moliyaviy barqaror katta banklardan tashqari, tashkil qilinish, rivojlanish bosqichida turgan banklar bo'sh kredit resurslariga ega bo'ladi. Ular hozircha mijozlar yetishmasligi davrini boshdan kechirishmoqda.

Bo'sh resurslar jalg etish (joylashtirish) to'g'ridan-to'g'ri (sotuvchi-xaridor) emas, balki vositachi ishtirokida kechadi. Banklarning o'zları, brokerlik idoralari, fond birjalari, moliya uylari, kredit do'konlari shu yo'sinda qatnashishlari mumkin.

<sup>20</sup> "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida" gi Qonun. 05.04.2002 yildagi 360-II-son.

Banklar resurslarini boshqarishning asosiy konsepsiyalardan yana biri Yevrodollar bozoridan qarz olish nazariyasi hisoblanadi.

### **Yevrodollar bozoridan qarz olish nazariyasi.**

Yevrodollarlar bozoridan qarz olish yirik tijorat banklari uchun iloji bo'lган passivlarni boshqarish instrumentidir. Undan chet elda filiallari bo'lган banklar ham, bunday filiallari bo'lмаган banklar ham foydalanadi. Yevrodollarlar - AQSh dollarlarida ifodalangan va AQSh dan tashqaridagi tijorat banklarida, shu jumladan, Amerika banklarining filiallarida saqlanadigan qo'yilmalardir. Yevrodollarlar AQSh banking amerikalik yoki chet ellik omonatchisi chet eldag'i bankka yoki Amerika banking filialiga mablag' o'tkazganida yuzaga keladi. Yevrodollardagi qarzlarning ancha qismi Amerika banklarining chet eldag'i o'z filiallari oldidagi majburiyatlarining ko'payishida ifodalananadi. Bunda qarzlarning 75 foizi Nyu-Yorkdagi eng yirik muassasalarining filiallariga to'g'ri keladi. Ushbu depozitlarni qabul qilib oladigan Yevropa banklari va filiallari ularning egalari, odatda AQSh pul bozoridagi stavkalardan yuqori stavkalar bo'yicha foiz to'laydilar va Amerikadagi hamda chet eldag'i firmalarga, shuningdek, AQSh banklariga qarzga pul beradilar.

Kreditga ehtiyojni qoplashga yetarlicha mablag'ni mamlakat ichida jalb etishga tijorat banklarining qurbi yetmagan taqdirda ular zarur resurslarni olish uchun Yevrodollar bozoriga murojaat qiladilar. Ko'pincha bu manbadan banklarda o'tkazilayotgan muddatli depozit sertifikatlari summasi qisqargan yoki bir ozgina oshgan davrlarda foydalaniladi.

Banklar resurslarini boshqarishning konsepsiyalardan yana biri zaxira fondlarini olish nazariyasi hisoblanadi.

### **Zaxira fondlarini olish nazariyasi.**

Zaxira fondlarini olish - likvidlikni ta'minlash maqsadida kreditdan foydalanishning keng tarqalgan usullaridan biridir. Ushbu fondlar Markaziy bankdagi hisobvaraqlarda saqlanadigan depozit qoldiqlaridir. Kutilmaganda qo'yilmalar oqimi kela boshlagan yoki ssudalar qisqargan taqdirda tijorat banklarida ortiqcha zaxiralar yuzaga kelishi mumkin. Bu mablag'lar daromad keltirmasligi sababli, banklar ularning qisqa muddatga boshqa banklarga foydalanish uchun berib qo'yadilar. Zahiralar majburiy hajmni tiklash yoki aktivlar sotib olish uchun mablag'ga muxtoj bo'lган banklar esa ushbu ortiqcha mablag'larni bajonidil sotib oladi. Ba'zan banklarning biri boshqasiga davlatning qimmatli qog'ozlarini sotadigan bo'lsa, bitim qaytarib sotib olish to'g'risidagi bitim shaklini kasb etadi. Bunday bitimlar, odatda bir kunlik muddatga mo'ljallanadi.

Lekin, ayrim bitimlar bo'yicha to'lov muddati bir hafta yoki xatto, bir necha haftani tashkil etishi mumkin. Zaxira fondlariga oid operatsiyalar mexanizmi oddiyginadir. Ta'minlanmagan tipik bitim tuzilgan taqdirda ikkita bank shart-sharoitlari to'g'risida kelishadi, sotuvchi bank Markaziy bankka belgilangan miqdordagi mablag'ni o'zining zaxira fondidan xaridor bankning zaxira hisobvarag'iga o'tkazishni taklif etadi. Keyingi kuni bank ochilishi chog'ida aksincha bitim amalga oshiriladi. Foizlar odatda alohida chek bilan to'lanadi.

Banklar resurslarini boshqarishning konsepsiyalariga qaytarib sotib olish to'g'risida bitimlar nazariyasini ham qo'shishimiz mumkin.

**Qaytarib sotib olish to'g'risida bitimlar** – Zahira fondlariga oid banklararo operatsiyalarga qo'shimcha ravishda banklar bilan davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha dilerlar hamda boshqa investorlar o'rtaida shularga o'xshash bitimlar amalga oshiriladi. Bular oddiy qilib «REPO» deb nomланади. Bunday bitimlarda aktivlarni qaytarib sotib olish shartlari asosida belgilangan kunda va oldindan kelishilgan narxda amalga oshiriladi. Bunday bitimlar vaqtincha bo'sh malag'lar uchun muhim kanal bo'lib qolgan. Chunki ular ikkala tomonning ehtiyojlariga moslashtirish oson. Ular bir kundan bir necha oylargacha cho'zilishi mumkin.

Chunki bank zahiralarini barobarlashtirishning eng yaxshi vositasi «Repo» bitimlaridir. Bank aktivlarni qaytarib sotib olish majburiyatini olgan holda sotganida to'lov xaridorning depozit hisobvarag'ini debetlash yo'li bilan yoki boshqa bankka yozib berilgan chek orqali amalga oshiriladi. Birinchi holda bankning majburiy zaxiralari kamayadi. Chek olnigida esa nomiga chek yozilgan bankning zaxiralariga nisbatan sotuvchi bankning muayyan huquqlari yuzaga keladi. Odatda, bunday bitimga qimmatli qog'ozlar ob'ekt bo'lsa-da ssudalar ham shunday ob'ekt bo'lishi mumkin.

Bankning aktiv oreratsiyalari uning oreratsiyalarining aniqlab beruvchi qismi hisoblanadi. Aktivlar strukturasi deganda bank balansi aktivlari turli sifatli moddalarining balans yakuniga nisbati tushuniladi. Bank aktivlarining sifati aktivlar strukturasi, aktiv oreratsiyalarni diversifikatsiyalash, riskli aktivlar hajmi, kritik va to'liq bo'limgan aktivlar hamda aktivlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari bilan aniqlanadi.

Tijorat banklari aktivlarini 4 kategoriyaga bo'lish mumkin: kassadagi naqd rul va unga tenglashgan mablag'lar; qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar; ssudalar; imorat va uskunalar.

Yevrora mamlakatlarida, Buyuk Britaniyada eng likvid aktivlarning salmog'i taxminan 3%ni egallaydi. Bu birinchidan, alohida mamlakatlar markaziy banklarining turli rezerv talablari bilan; ikkinchidan, turli mamlakatlar banklarinig aktivlar klassifikatsiyasi o'rtasidagi nomutanosibliklar bilan tushuntiriladi. Muradova L. O'zining iqtisodiy olib borgan amaliy izlanishlarida shunday keltiradi; "Bundan tashqari iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekistonda ham tijorat banklari aktivlari bilan bog'liq ayrim muammoli vaziyatlar mavjud. Asosan bunday holat kreditni yorish uchun katta miqdordagi rezervlar bilan bog'liq holda yirik tijorat banklari faoliyatida kuzatishimiz mumkin", - deb tahlil ko'rsatkichlari bilan izohlaydi.<sup>21</sup>

Agar aktivlar tarkibini bank faoliyatidagi assosiy turlari bo'yicha guruhlashtirsak, u holda quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Bank aktiv oreratsiyalarida asosiy o'rinni kredit oreratsiyalar egallaydi. Ularning ulushi 19,90% dan 83,25% gacha tashkil etadi.
2. Bank aktivlarida ikkinchi o'rinni qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar egallaydi (2,15% dan 29,18% gacha).
3. Uchinchi o'rinda — kassa aktivlari (0,2% dan 12,94% gacha).
4. Boshqa aktivlar ulushi hisob-kitob xususiyatlaridan kelib chiqib bank oreratsiyalarida juda ham keng scretni o'z ichiga oladi (2% dan 78% gacha)<sup>22</sup>.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarini amaldagi buxgalteriya hisobi raqamlarining rejasiga asosan quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- a) muddatsiz aktivlar;
- b) ma'lum muddatga joylashtirilgan aktivlar:
  - talab qilib olinguncha aktivlar;
  - muddati 30 kungacha bo'lgan aktivlar;
  - muddati 30 kundan 90 kungacha bo'lgan aktivlar;
  - muddati 90 kundan 180 kungacha bo'lgan aktivlar;
  - muddati 180 kundan 360 kungacha bo'lgan aktivlar;
  - muddati 360 kundan ortiq bo'lgan aktivlar.

Tijorat banklari aktivlarining muddatlariga asosan tarkibi bankning aktiv operatsiyalarining qaltislik darajasiga bevosita bog'liqdir. Lekin asosiy o'rinni muddatlari bo'yicha joylashtirilgan aktivlar tarkibi bankning passivlar tarkibida qisqa muddatli passivlar asosiy ulushini egallab turgan vaqtda tijorat banklari o'z aktivlarining uzoq muddatga joylashtirish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Chunki, tijorat banklarining mijozlari muddatsiz yoki talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlarni o'zları hohlagan vaqtda bankdan talab qilish huquqiga ega. Bunday holatlarda tijorat banklari o'zining likvidlik darajasini bajara olmaydilar. Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlar tarkibida muddati 90 kundan 180 kungacha bo'lgan aktivlarning ulushi asosiy o'rinni egallaydi.

Tijorat banklari o'zlarining aktivlarini o'z mijozlari orasida joylashtiradi va ayrim qismi bankning likvidligini ta'minlash maqsadida o'zida saqlanadi. Xalqaro amaliyotda joylashtirilgan bank aktivlari kimlar tomonidan foydalananayotganligiga asosan quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

1. tijorat bankini o'zining tomonidan foydalananayotgan aktivlar;
2. tijorat banki tomonidan o'zining boshqa mijozlariga vaqtinchalik foydalinish uchun ajratilgan aktivlar:

<sup>21</sup> "Important issues of increasing the active operations profitability of commercial bank" by Muradova L. , "Advanced Science Journal", December 2014.

<sup>22</sup> AT "Asakabank" ma'lumotlari.

a) davlat organlariga:

- Moliya vazirligiga, Markaziy bankka va mahalliy hokimiyat organlariga;
- byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalaga;
- davlat mulkchiligidagi asoslangan moliya tashkilotlariga;
- davlat mulkchiligidagi asoslangan va uning ixtiyoridagi tijorat korxonalari va tashkilotlari;
- davlat mulkchiligidagi asoslangan va uning ixtiyoridagi notijorat korxonalar va tashkilotlar.

b) nodavlat yuridik shaxslarga:

- turli moliya muassasalarini;
- tijorat korxonalarini va tashkilotlari;
- notijorat korxonalar va tashkilotlar;

v) jismoniy shaxslarga:

- xususiy tadbirdorlarga;
- fuqarolarga;

g) norezident shaxslarga:

- xorijiy davlatlarga;
- xorijiy tijorat banklari va boshqa moliya muassasalariga;
- xorijiy nomoliyaviy yuridik shaxslarga;
- norezident jismoniy shaxslarga.

Tijorat banki aktivlarining sifat jihatdan baholash bankning kapitalining yetarlilik darajasi ko'rsatkichi hamda uning faoliyatining qay darajada samaradorligini baholash kabi ko'rsatkichga tengdir.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarining sifati turli omillar asosida olib boriladi. Ushbu omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aktivlar tarkibining muddatlariga asosan passivlar tarkibiga mosligi;
- tijorat banklarini aktivlarining likvidliligi;
- tijorat banklarining aktivlarining daromadliligi;
- tijorat banklari aktiv operatsiyalarining diversifikatsiya qilinganlik darajasi;
- umidsiz va shubxali aktivlarning umumiy aktivlar tarkibidagi ulushi;
- tijorat banklari aktivlarining o'zgaruvchanlik belgilari.

Tijorat banklari aktivlarining yuqori sifatga ega ekanligi, bank tomonidan mijozlari bilan tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan muddatda joylashtirilgan aktivlarni va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z muddatida hamda to'liq qaytarib olishi bilan belgilanadi. Agarda qaytarib olinishning imkoniyati bo'lmasa, garovga olingan ta'minotni balans qiymati bo'yicha qisqa muddatda sotish qobiliyati bilan belgilanadi.

Xalqaro amaliyotda tijorat banklari aktivlarining sifati jihatidan "yaxshi" (to'laqonli) va "yomon" (talabga javob bermaydigan) aktivlar, ya'ni bank o'z aktivlarini balans qiymati bo'yicha to'liq sotib yuborish imkoniyatiga ega bo'lмагan aktivlarga ajratiladi. Bundan tashqari tijorat banklarining yomon aktivlarini qaltislikka asoslangan aktivlardan ajrata olish lozim. Agarda qaltislikka asoslangan aktivlarni kelajakda yo'qotish ehtimoli bo'lsa, yomon aktivlar bo'yicha ularni yo'qotish vaqt kelganligi tushuniladi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining aktivlari bankning ixtisoslashganligiga, ustav kapitali miqdoriga, mijozlarning tarkibiga, bank xizmatlari bozoridagi raqobatga, bankda zamonaviy texnologiyalarni joriy etilganlik darajasiga va shunga o'xshash ko'p omillarga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga milliy bank tizimidagi qonunchilikning xususiyatlari, ya'ni undagi berilgan huquqlar, majburiyatlar bilan bir qatorda o'rnatilgan chekllovlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banki aktivlarining sifatini baholashda qarz oluvchining faoliyati quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

- tarmoq (iqtisodiyot sektori) tendensiyasi va istiqboli;
- muayyan loyihaning texnik amalga oshirilushi va iqtisodiy raqobatbardoshligi;
- moliyaviy holati va kredit olishga qodirligi;
- kredit tarixi, kredit ta'minotining yomonlashuvi yoki likvidliliginining pasayishi;
- muayyan loyihaning iqtisodiy jihatdan asoslanishi;

- rahbarining boshqarish qobiliyati (agar qarzdor yuridik shaxs bo'lsa).

Aktivlar sifatining tahlili va tasnifi natijalari yuqorida keltirilgan mezonlar tijorat banklarining kredit portfeli va boshqa aktivlaridagi risk darajasini aniqlash va baholashda qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida aktivlarning sifatini aniqlashning asosiy mezoni bo'lib, riskka tortilgan aktivlarning kapitalga nisbati maydonga chiqayapti va shunga asosan banklar reytingi belgilanadi. Reyting besh tipdagi baholar turkumiga ega<sup>23</sup>.

### **1-reyting (kuchli)**

Agar tortilgan aktivlarning aksioner kapitaliga nisbati 5 foizdan oshmasa, ba'zi hollarda bu nisbat 5 foizlik chegaradan ozroq oshsa ham, agar bankning moliyaviy holati barqaror bo'lsa va boshqaruv organlari o'zlarining muammoli kreditlar bilan ishlashda bilimdonligini ko'rsatsa, bu aktivni kuchli aktivlar sifatida tasniflash mumkin.

### **2-reyting (qoniqarli)**

Zaxiraning o'rtacha tortilgan miqdori jami kapitalga nisbatan 15 foizdan yuqori bo'lmasligi lozim. Bu holda ham ssudalar bo'yicha muammolar bo'lmasa, bankning kredit siyosati talab darajasida olib borilsa shu guruhga kiritish mumkin.

### **3-reyting (o'rtacha)**

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 30 foizidan oshmasligi kerak.

### **4-reyting (muammoli)**

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshmasligi kerak.

### **5-reyting (qoniqarsiz)**

Tortilgan aktivlar jami kapitalning 50 foizidan oshgan holda qo'llaniladi.

Muddati kechiktirilgan, foizsiz ssudalar, muddati o'tgan ssudalar va foizlar to'lanmagan ijara va boshqalar aktivlarni sifatini pasaytiradi. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiyoq ko'rsatkich - daromad keltiruvchi aktivlarning umumiyoq aktivlar summasiga nisbati orqali aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari – mijozlarga berilgan kreditlardir.

Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi – davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga jalb qilingan banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

### **5-jadval**

#### **Tijorat banklari aktivlarining toifalari va ular bo'yicha zaxiralar ajratish tartibi<sup>24</sup>**

Nº	Aktivlarning nomlanishi	Zaxiralar ajratish foizi
1.	standart aktivlar (kreditlar)	1,0
2.	substandart aktivlar (kreditlar)	10,0
3.	qoniqarsiz aktivlar (kreditlar)	25,0
4.	shubxali aktivlar (kreditlar)	50,0
5.	umidsiz aktivlar (kreditlar)	100,0

"Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tijorat banklarining aktivlari sifatiga ko'ra «standart», «substandart», «qoniqarsiz», «shubhali» va «umidsiz» toifalarga tasniflanadi.

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar sifati "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarning mezonlaridan foydalangan holda tasniflanadi.

Aktivlar sifati ularning shartlari qayta ko'rib chiqilishidan oldingi tasniflangan toifadan yuqori yoki yaxshiroq toifada tasniflanishi mumkin emas.

Hech qanday holatda aktivga uning shartlari qayta ko'rib chiqilgandan so'ng darhol "standart" toifani berish mumkin emas.

<sup>23</sup> Sh. Z. Abdullayeva, U.O'.Azizov. Bank ishi. Darslik. Toshkent-2018. 1024b.

<sup>24</sup> "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 14.07.2015y. №2696.

Aktiv ikki va undan ortiq marta shartlari qayta ko'rib chiqilganda, aktiv sifatini tasniflash toifasi shartlari qayta ko'rib chiqilishidan oldingi toifasidan bir pog'onaga past bo'lishi kerak.

### **1.3 Tijorat banklarining to'lovga layoqatligi va likvidligini boshqarishdagi kamchilik va muammolar**

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlardan biri bo'lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko'rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Har bir mutsaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagi taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog'liqdir.

Ma'lumki tijorat banklari har kuni o'zaro bog'liq bir necha masalalarni yechmoqlari lozim:

- a) o'z operatsiyalarining foydaliliga erishish;
- b) likvidlik darajasini zarur darajada saqlash;
- v) to'lov qobiliyatini mustahkamlash va boshqalar.

Ammo shuni ta'kidlash lozimki bankning daromadliliği va likvidligi o'zaro teskari mutanosibdir. Yuqori likvidlikni ta'minlash bankning yuqori daromadlikka erishish maqsadiga ziddir, chunki likvid aktivlar nolikvid aktivlarga nisbatan kam foiz daromadlari keltiradilar. Boshqa tomonidan yuqori foydaga erishish maqsadida aktiv siyosat yurgizayotgan banklar likvid aktivlarini mumkin bo'lgan minimal darajada ushlab turish tenedensiyasiga ega bo'ladilar.

Likvidlik va daromadlik o'rtasidagi bunday o'zaro bog'liqlik bank siyosati noratsional tuzilgan sharoida yuqori likvidlik mavjud holda uning norentabelligiga yoki xatarli darajada pas bo'lgan likvidlik sharoitida bankning yuqori daromadligiga olib kelishi va bu uning bankrotligiga sabab bo'lishi mumkin. Likvidlik va foydalilikning optimal darajada bo'lismeni ta'minlash uchun banklar bu ko'rsatkichlarni kompleks tahlil qilishlari zarur, buning uchun esa avvalo «bankning likvidligi» va «bankning to'lov qobiliyati» kabi tushunchalarni ko'rib chiqmoq zarur.

Hozirgi iqtisodiy adabiyotlarda likvidlik va to'lov qobiliyati iqtisodiy terminlari ko'pincha bir-birini o'rmini almashtirgan holda talqin etiladi.

Likvidlik termini moddiy qiymatliklarning va boshqa aktivlarning tezda sotilishini va pulga aylanishini ifodalaydi. Bankning likvidligini shuningdek ko'pgina hollarda naqd mablag'larni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankidan yoki korrespondent banklardan sotib olish qobiliyati deb kam baholashadi. To'lig'icha bank likvidligi deganda likvid aktivlarini sotish, pul mablag'larini Markaziy bankdan sotib olish va aksiyalar, obligatsiyalar, depozit va omonat sertifikatlari xamda boshqa qarz intsrumentlarini emissiyasini amalga oshirish imkoniyatlari nazarda tutiladi.

To'lov qobiliyati - bu birmuncha kengrok bo'lib u faqatgina aktivlarni tezda pulga aylantirish imkoniyatlarini emas, balki tijorat bankining o'z kreditorlari - omonatchilar, banklar va davlat oldidagi kredit va boshqa pul harakteridagi operatsiyalaridan kelib chiqadigan o'z to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida va to'lig'icha bajarish qobiliyatini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, likvidlik to'lov qobiliyatining zarur va majburiy sharti sifatida maydonga chiqadi. Uning bajarilishi ustidan nazoratni faqatgina yuridik yoki jismoniy shaxsning o'ziga emas, balki muayyan tashqi nazorat organi ham o'z zimmasiga oladi.

Tijorat bankining likvidligi uning passiv bo'yicha pul shaklidagi o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash qobiliyatidir. Bankning likvidligi bank balansining aktiv va passivlarini balanslashtirilganlik darajasi, bank tomonidan joylashtirilgan aktivlar va jalb qilingan passivlarning muddati bo'yicha o'zaro moslik darajasi bilan belgilanadi. Bank likvidligining me'yorlari odatda balans aktivlarining turli moddalarini passivlarning jami summasiga yoki ma'lum moddalariga, yoki aksincha passivlarning aktivlarga bo'lgan nisbati sifatida o'rnatiladi.

Bankning to'lov qobiliyatiga uning o'z majburiyatlarini bo'yicha zarur summada javob bera olish qobiliyati deb ta'rif beriladi.

Likvidli aktivlar — qiymati bozorda shakllanadigan, bozor qiymati bo'yicha qisqa muddat ichida ularni sotib olishga osonlik bilan xaridor topiladigan, doimiy ravishda ko'zda tutilmagan (nomaqbul) yo'qotishlarsiz sotiluvchi va sotib olinuvchi aktivlardir<sup>25</sup>.

Likvidli aktivlarga quyidagilar kiradi:

- naqd pullar;
- sof quyma oltin;

▪ bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) ochilgan hisobvaraqlaridagi mablag'lar;

- bankning boshqa banklarda ochilgan vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lar;

▪ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining va Markaziy bankining qimmatli qog'ozlari;

- qisqa muddatli (30 kungacha) banklararo kreditlar va depozitlar;

▪ tavakkalchilik darajasi past bo'lган mamlakatlardan hukumatlari va Markaziy banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, shuningdek bu mamlakatlardan hukumatlari va Markaziy banklariga boshqa moliyaviy talablar;

▪ "Standard & Poor's", "Fitch Ratings" va "Moody's Investors Service" kompaniyalarining investitsion reyting darajasidan kam bo'lмаган yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tan olinadigan boshqa reyting kompaniyalarning ushbu baho darajalariga teng bo'lган reyting baholariga ega, rivojlangan fond birjalari ro'yxatlariga kiritilgan, tavakkalchilik darajasi past bo'lган mamlakatlarning yetakchi kompaniyalari qimmatli qog'ozlari.

**Likvidlilik ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablar.** Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (bundan buyon matnda LQMK deb yuritiladi) yuqori likvidli aktivlarning keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqimga nisbatida aniqlanadi ( $LQMK = \text{yuqori likvidli aktivlar} / \text{keyingi 30 kun ichidagi jami sof chiqim}$ ).

Keyingi 30 kun ichidagi kirim keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 foizidan oshgan taqdirda, keyingi 30 kun ichidagi kirim sifatida keyingi 30 kun ichidagi chiqimning 75 foizi olinadi.

Keyingi 30 kun ichidagi kirim va chiqimning qayta hisoblash koeffitsiyenti Markaziy bank tomonidan o'rnatiladi va majburiyatlarning turi va muddatiga bog'liq bo'ladi.

LQMK 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu ko'rsatkich 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

- barcha valyutalarda;
- milliy valyutada;
- xorijiy valyutalarda (barcha xorijiy valyutalarning yig'indisi) ta'minlanishi shart.
- 2020-yil 1-iyundan boshlab banklarning yuqori likvidli aktivlari jami aktivlardagi ulushi kun oxiriga 10 foiz miqdoridan kam bo'lmasligi lozimligi belgilab qo'yilgan.

SBMMK barqaror moliyalashtirishning mavjud summasini barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga nisbatida aniqlanadi (SBMMK=barqaror moliyalashtirishning mavjud summasi/barqaror moliyalashtirishning zarur summasi).

SBMMK 100 foizdan kam bo'lmasligi lozim. Ushbu ko'rsatkich 2019-yil 1-sentabrdan boshlab:

- barcha valyutalarda;
- milliy valyutada;
- xorijiy valyutalarda (barcha xorijiy valyutalarning yig'indisi) ta'minlanishi shartligi belgilab qo'yilgan.

SBMMK aktivlarni qaytarish muddatlarini hisobga olgan holda, moliyalashning barqaror resurslari mavjud bo'lishi uchun, shuningdek 1 yildan ortiq muddatdagi balansdan tashqari moddalardagi majburiyatlarni qo'shib, likvidlilikka bo'lган talabni (zarur bo'lган barqaror moliyalashtirishni) qondirish uchun kerak.

Barqaror moliyalashtirishning mavjud summasiga quyidagilar kiradi:

- jami kapital;
- amaldagi qaytarish muddati 1 yil va undan ortiq bo'lган bank majburiyatları;

<sup>25</sup> "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi NIZOM. 13.08.2015 yil. №2709.

- qaytarish muddati belgilanmagan boshqa depozitlar va qarz mablag'larini summasining 30 foizi;
- qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa depozitlar va qarz mablag'larini summasining 30 foizi.

Barqaror moliyalashtirishning zarur summasiga quyidagilar kiradi:


- qaytarilishiga 1 yil va undan ortiq muddat qolgan bank aktivlari, shu jumladan muammoli kreditlar va nomoliyaviy aktivlar (yer uchastkalari, binolar, mebel, kompyuterlar va avtomashinalar);
- sud jarayonida bo'lgan yoki belgilangan tartibda undirilmagan aktivlar;
- qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan boshqa aktivlar summasining 30 foizi, qaytarish muddati 1 yildan kam bo'lgan yoki muddatsiz likvidli aktivlar bundan mustasno;
- balansdan tashqari moddalarning 15 foizi, bundan depozit bilan ta'minlangan akkreditivlar va kafolatlar hamda kredit ajratish bo'yicha shartli majburiyatlar mustasno.

Bank tizimining likvidligi banklar majmuining o'z funksiyalari va majburiyatlar o'z vaqtida bajarilishini, shu jumladan, moliya institutlari o'rtasida pul bozori orqali mablag'larni qayta taqsimlashni ta'minlash imkoniyatini anglatadi.

Markaziy bank tizimi umumiyligi likvidligining ortib borishi sharoitida pul-kredit operatsiyalariga tegishli o'zgartirishlar kiritib bordi.

Mijozlar oldidagi majburiyatlarni belgilangan muddatlarda qaytarish imkonini beruvchi ishonchli likvidlilik zaxirasini yaratish bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida 2022 yilda yuqori likvidli aktivlar hajmi 104 trln so'mga yetib, 2021 yilga nisbatan qariyb 1,4 barobarga oshdi.

Bunda, yuqori likvidli aktivlar tarkibida milliy valyutadagi aktivlar qariyb 12 trln so'mga, xorijiy valyutadagi aktivlar esa 15 trln so'mga oshib, ularning hajmi mos ravishda 51 va 53 trln so'mni tashkil etdi.




**3-rasm. Yuqori likvidli aktivlarning (YuLA) tarkibi va jami aktivlardagi ulushi dinamikasi<sup>26</sup>**

Yuqori likvidli aktivlar hajmining ko'payishi aktivlar tarkibida boshqa banklardagi mablag'learning **1,4 barobarga**, davlat qimmatli qog'ozlarining **1,6 barobarga**, bank cassalaridagi naqd pullarning **1,8 barobarga** oshishi hisobiga shakllandi.


Natijada, **yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi** 2022 yil boshiga nisbatan **1,7 foiz** bandga oshib, yil yakunlari bo'yicha **19,4 foizga** (*minimal talab 10 foiz*) yetdi.

<sup>26</sup> www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. Toshkent 2023.



#### 4-rasm. Likvidlikni qoplash me'yori (LCR)<sup>27</sup>

Bank tizimi bo'yicha likvidlilikni qoplash me'yori yil davomida 190 foizdan 212 foizgacha (minimal talab 100 foiz) oshishi bank tizimida kutilmagan stress holatlar yuzaga kelgan taqdirda ham banklar keyingi 30 kun davomida mijozlar oldidagi majburiyatlarni 2 barobar ortig'i bilan bajara olish imkoniyatini yaratdi.



#### 5-rasm. Sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) dinamikasi<sup>28</sup>

Uzoq muddatli moliyalashtirish hajmiga mos ravishda barqaror manbalarni shakllantirish choralarining ham ko'rib borilishi bank tizimida sof barqaror moliyalashtirish me'yorining 2021 yildagi 115 foizdan 116 foizgacha oshishiga xizmat qildi. Ushbu ko'rsatkich milliy valyutada 117 foizni, xorijiy valyutada 113 foizni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarining barqarorlik darajasini ekzogen va endogen faktorlar orqali aniqlanadi.

Bankning moliyaviy ahvolini tuzatish va uning iqtisodiy barqarorligini yaxshilash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

1. Bank sarmoyadorlarini imkoniyatlarini ko'rib chiqish va yil oxiriga qadar bankning ustav kapitalini e'lon qilingan miqdorga yetkazishni ta'minlash.
2. Muddati o'tgan qarzlarni qaytarish uchun tegishli tadbir asosida choralar ko'rish va qaytishi

<sup>27</sup> www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin 2022 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. Toshkent 2023.

<sup>28</sup> www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankingin 2022 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. Toshkent 2023.

mavhum bo'lgan kreditlar uchun zaxiralarni belgilangan me'yorga yetkazilishini taminlash.

3. Bankning aktivlarini daromad keltirmaydigan qismini kamaytirish va o'z navbatida daromadlik imkoniyatini oshirish uchun aktiv mablag'larni asosan tavakkalchilik darjasini kam bo'lgan DQQ bozoriga yo'naltirish.

4. Bank ssudalari bo'yicha muddati o'tgan foizlarni to'liq qaytarib olib, shu summani bankning muddatsiz depozitlarda majburiyatlarga ishlatish uchun bankning vakillik varaqasida saqlab turish.

5. Bank mamuriyatiga, transportga, ish haqi va shu bilan birgalikda unga tenglashtirilgan xarajatlarni bank daromadligiga bog'liq ravishda hisoblash.

6. Bankning aktivlarini marketing tadqiqotlariga bog'liq ravishda taqsimlashtirishni yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib shuni ko'rsatishimiz mumkinki, banklarning bankrotlikka uchrash quyidagi eng asosiy holatlarda ro'y berishi mumkin: ssudalarning qaytmasligi va boshqa aktivlar qiymatining yo'qotilishi, likvid mablag'larning minimum darajadaligii va asosiy faoliyatdan ko'rildigan zararlar shuningdek, ushbu zararlarni omonatchilar va mijozlar mablag'lari hisobidan qoplash. Bundan tashqari, bank majburiyatlarining aktivlarga nisbatan ortib ketishi, qimmatli qog'ozlar qiymatining tushib ketishi.

Bunga misol, 1930 - 1933 yillardagi dunyo mamlakatlarida tijorat banklarining yoppasiga bankrotlikka uchrashining asosiy sabablaridan biri, bank obligatsiyalarining bozor narxining keskin tushib ketishi va buning natijasida aholining o'z omonatlarini qaytarib olishi bo'lgan. Bunday vaziyat bank krizisi yoki sarosimalik deb ataladi.

Bank likvidlikning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olgan holda likvidli aktivlarga zarur miqdorini belgilab olishlari shart. Mazkur omillarga quyidagilar kiradi:

1) omonatchilarning ko'payishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'larga ega bo'lish yoki ularni yo'qotish bank jalg qilingan mablag'lar bo'yicha majburiyatlarni yaqin muddatlarda bajarishi lozim, bu omonatlar va boshqa passivlarning muddatlari bilan bog'lik, hamda bankda qoladigan depozitlar miqdorini (asosiy deponentlar) hisob varaqdan olinadigan yoki darxol to'lanadigan depozitlar va boshqa passivlar bilan qiyoslangan holda tahlil qilish kerak;

2) omonatlar summasining o'sishi yoki qisqarishiga muvofiq majburiy zaxiralar me'yoriy miqdorining ko'payishi yoki kamayishi ham likvidlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

3) ssudalar va investisiyalar summasining oshishi yoki kamayishiga ko'ra mablag'lar oqib kelishining ko'payishi yoki pasayishi ushbu omilning ta'siri shundan iboratki, ssudalar va investisiyalar miqdorini har bir oshishi likvidli aktivlar ulushini kamaytiradi, chunki investisiyalar uzoq muddatga asoslangan.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. «Bank» tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati
2. Tijorat banklari faoliyatini tashkil etish ga doir qanday huquqiy hujjatlarni bilasiz?
3. Banklarni litsenziyalash tartib-taomili qanday bosqichlardan iborat?
4. Bankni tashkil etishga doir dastlabki ruxsatnomani olish qanday amalga oshiriladi?
5. Bank ustav kapitali deganda nimani tushunasiz?
6. Qaysi hollarda tijorat bankining faoliyati to'xtatiladi?
7. Bankning to'lovga qobiliyatsizligi deganda nimani tushunasiz?
8. Bankning faoliyatini tugatish va bankni tugatish qanday shakllarda amalga oshiriladi?
9. Bank mablag'lari tushunchasi va ularning tuzilishi?
10. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari mablag'lariga qo'yiladigan talablar va iqtisodiy normativlar?
11. To'lov qobiliyati tushunchasi?
12. Likvidlilik ko'rsatkichlariga qo'yiladigan talablar qanday?
13. Bank likvidligining me'yorlari qanday o'matiladi?
14. Tijorat banklari likvidligi va to'lov qobiliyatini tartibga solishda xorij tajribasi.
15. Bazel III tavsiyalarini qo'llashdan ko'zlanayotgan asosiy maqsadlar nimalardan iborat?

16. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari to'lov qobiliyatini boshqarish muammolari?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

**Maxsus adabiyotlar**

1. "Active and Passive operations of a Commercial Banks", "Modern Economic Theory" September 9/ 2013.

2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 11-noyabr, O'RQ-582-son.

3. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 5-noyabr, O'RQ-580-son.

4. "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida" gi Qonun. 05.04.2002 yildagi 360-II-son.

5. "Important issues of increasing the active operations profitability of commercial bank" by Muradova L. , "Advanced Science Journal", December 2014.

6. "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom. [O'zR AV tomonidan 2015-yil 6-iyulda 2693-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan].

7. "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizom. 14.07.2015y. №2696.

8. "Tijorat banklarining likvidlilagini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi NIZOM. 13.08.2015 yil. №2709.

9. A.Erdonayev. "Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish" i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.

10. Abdullayev Yo. Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi. O'quv qo'llanma –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010-yil. - 532 bet.

11. Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risida" NIZOM. 2008 yil 24 sentyabr №1859.

12. Sh. Z. Abdullayeva, U.O'.Azizov. Bank ishi. Darslik. Toshkent-2018. 1024b.

13. Bankovskoe delo. Pod redaktsii O.I. Lavrushina M.Fin. i statistika. 1998 g. str.68

14. Polfreman D., Ford F. Osnovi bankovkogo delo. Perevod s angl. Moskva infra 1996 g. str.-102.

15. Sinki, D.F. (ml.). Upravlenie finansami v kommercheskix bankax : Per. s angl. 4-go izd. / Djozef F. Sinki, ml. - Moskva : Catallaxy, 1994g. str. 22-23

16. Sovetskaya Entsiklopediya 1986 g.; Finansovo-kreditniy slovar M. Finansi i statistika 1986 g. 368 s.; Uzbeksko-russkiy slovar. gos. izd-vo innostrannix i natsionalnix slovarey. M.: 1959 g. 343 s.

17. E.Rid, R. Kotter, E.Pil i R. Smit «Kommercheskie banki» perevod s angl. M. Kosmopolis 1991g. str.-16

**Internet resurslari**

1. www.cbu.uz. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to'g'risida hisoboti. Toshkent 2023.

## **2-MAVZU: Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarida bank faoliyatiga moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan kamchiliklar.**

### **Reja:**

2.1 Bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKT.  
2.2 Tijorat banklarining an'anaviy va noan'anaviy xizmatlari. Tijorat banklarining yangi xizmat turlari.

2.3 Tijorat banklarining daromadlari, xarajatlari va foydasini shakllantirishda yuzaga keladigan ayrim kamchilik va muammolar.

2.4 Bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg'or tizimlarini (Skoring, PARSER, CAMPARI, 5S va boshqa xalqaro) joriy etishdagi kamchiliklar;

2.5 Bankda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va ulardan foydalanishdagi muammolar.

### **❖ Tayanch iboralar:**

Moliyaviy texnologiya, bank mahsuloti, bank xizmati, ekotizim, blokcheyn, masofaviy xizmat, internet tizimi, rafamli bank, trast, ishonch, vositachilik, saqlash operatsiyasi, olib-sotarlik operatsiyalari, daromad, risk diversifikatsiyasi, komissiya operatsiyalari, mukofot, foiz, ulush, kredit operatsiyalari, bank krediti, kredit turlari, kredit munosabatlari, qarz oluvchi, kredit shartnomasi.

### **2.1 Bank ishi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda ilg'or AKT.**

Milliy bozorda jahon global tendensiyalardan so'ng "ekotizim" deb ataladigan yangi hodisa paydo bo'ldi. Bu yarim tuzilgan aktivlar to'plami emas va aniq iyerarxiyasi va markazlashuvi bilan Janubiy Koreya chayebollarining ham o'xhashi emas, umuman olganda u korporativ markazdan pastga boshqaruv vertikallari bilan bog'langan sanoat yoki moliyaviy guruhlar to'plami ham emas. Chunki biznes 21-asr kontekstiga eng organik tarzda mos keladigan shakllarni o'zi mustaqil ravishda topadi. Ushbu yangi model uchun eng adekvat tushuncha bu "ekotizim" atamasidir.

O'tmishdagi vertikal tuzilmalardan farqli o'laroq, ekotizim shartli ravishda tarmoqsimondir. Uning elementlari turli miqyosda va profillarda bo'lishi mumkin, lekin ular bir-biri bilan barqaror aloqalarni hosil qiladi, bir-birini qo'llab-quvvatlaydi va to'ldiradi. O'zaro integratsiyaga intiladigan turli platformalar tarmog'i paydo bo'lmoqda. Eng muhim ishtirokchilar o'zlarini atrofida asosiy faoliyatni yaratadilar va o'z diqqatlarini jalb qilish markazlariga aylanadilar, lekin ular to'liq hukmronlik qilishga intilmaydilar.

Mikro darajada, fintex ekotizimlari fintex mahsulotlarining ekotizimlari bilan ifodalanadi, ular o'ziga xos "markazlar" bo'lib, ularning keyingi o'sishiga yordam beradi.

Fintex mahsulotining belgilangan ekotizimi boshqa mahsulotlarga o'z interfeysidan o'z qiymatini oxirgi iste'molchisiga yetkazadigan vositachi sifatida foydalanish imkonini beradi. Odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun muayyan yechimni taqdim etishga majbur bo'lgan kompaniyalar buni ma'lum bir fintex mahsuloti orqali amalga oshiradilar, bu esa, o'z navbatida, fintex mahsulotini ishlab chiquvchilarga uning narxini o'sishida muhim afzallik beradi.

Fintex mahsulotining narxi ishlab chiqaruvchi kompaniyaning sa'y-harakatlarisiz o'sadi, ya'ni kompaniya o'zining yangi funksiyalarini rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash va ilgari surish uchun qo'shimcha resurslarini ajratishga hojat yo'q.

Tijorat banklari foizli daromadlardan o‘z daromadlarini yaratish bilan bir qatorda ko‘p foizsiz daromadlar ham ishlab chiqaradi. Bu daromadga bank kafolatlari, to‘lov operatsiyalari, savdo nuqtalari tizimlari va boshqalar kabi turli xizmatlardan olinadigan to‘lovlar kiradi. Hozirgacha bu umumiy bank sohasi uchun ijobjiy yoki salbiy nuqta ekanligi haqida ko‘p bahs-munozaralar bo‘lib kelgan .

Endi biz ijobjiy tomonlarini ko‘rib chiqamiz, ya’ni tijorat banklari foizsiz daromadlarning katta foiziga ega bo‘lish natijasida oladigan turli imtiyozlarni ko‘rib chiqamiz.

Diversifikatsiya: Foizsiz daromadga ega bo'lishning birinchi va eng muhim foydasi shundaki, u tijorat banki uchun diversifikatsiyaga olib keladi. Agar bank foiz daromadiga bog'liq bo'lsa, uning daromadi foiz stavkalari bilan o'zgarib turadiganligi sababli juda tartibsiz bo'ladi. Foiz stavkasi ko'tarilganda, kamroq korporatsiyalar kredit oladi va natijada foiz daromadi kamayadi. Shu bilan birga, foiz stavkasi pasayganda, ko'proq korporatsiyalar kredit oladi va foiz daromadi oshadi.

Kredit karta to'lovlari va to'lovlarni qayta ishlash to'lovlari kabi foizsiz daromadlar foiz stavkasi bilan bog'liq emas. Aksincha, ular mijozning operatsiyalari ko'lami bilan bog'liq. Shunday qilib, bu to'lovlar foiz daromadlari kabi farq qilmaydi. Shunday qilib, daromadning sezilarli foiziga foizsiz daromadlar ko'rinishida ega bo'lish, tashqi muhit turli biznes sikllarini bosib o'tsa ham, tijorat banking umumiy daromadini diversifikatsiyaga olib keladi va barqarorlashtiradi.

Sarmoyani ko'p talab qilmaydi: Foiz daromadlari bilan bog'liq muammo shundaki, u kapital talab qiladi. Bu shuni anglatadiki, qachonki bank kredit bersa, avvalo ushbu kreditni berish uchun kapitalga ega bo'lishi kerak. Demak, olingan daromadning ulushi ularning qo'lidagi kapital miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri proporsionaldir. Foizsiz daromadlar haqida gap ketganda, bunday emas.

Tijorat banki o'z mijozlariga ma'lum xizmatlarni ko'rsatish orqali foizsiz daromad oladi. Endi bu xizmatlarni amalga oshirish uchun bankka juda kam aylanma mablag' kerak bo'ladi. Infratuzilma yo'lga qo'yilgandan so'ng, ular vaqt-vaqt bilan ko'p xarajatlarsiz daromad olishni davom ettirishlari mumkin. Demak, foizsiz daromadlar banklarga o'z biznesini chiziqli bo'lмаган tarzda rivojlantirish imkonini berishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, ular ko'proq sarmoya kiritmasdan ko'proq daromad olishlari mumkin! Shuning uchun ko'pgina tijorat banklari foizsiz daromadlarni afzal ko'radi va uni maksimal darajada oshirishga harakat qiladi.

Risksiz: Banklar kredit berganda, kredit xavfiga duch kelishadi. Demak, har qanday foiz daromadini olish uchun banklar tavakkal qilishlari kerak. Foizsiz daromadlar haqida gap ketganda, bunday emas.

Yuqorida aytib o'tilganidek, foizsiz daromadlar banklar kredit berishi mumkin bo'lgan pul miqdoriga bog'liq emas. Bank o'z pullaridan birortasini ham qarzga bermagani uchun kredit tavakkalchiligi haqida savol tug'ilmaydi! Bundan tashqari, odatdag'i kredit bitimi ko'p yillar davom etadi. Biroq, foizsiz daromad keltiradigan operatsiyalar bir necha daqiqada amalga oshiriladi. Demak, banklar o'zlarida mavjud bo'lgan infratuzilmadan foydalangan holda qo'shimcha daromad olishlari uchun xavf-xatarsiz yondashuvdir.

Kamroq qo'shimcha xarajatlar: Banklar foiz daromadlarini olish uchun ishlab chiqilgan mexanizmni talab qiladi. Birinchidan, ularga omonatchilarni jalb qilish uchun odamlar kerak. Pul omonat shaklida olingandan so'ng, ularga bu pulni qarzga beradigan odamlar jamoasi kerak. Boshqa odamlar jamoasi ushbu kreditlarga xizmat ko'rsatishi va qarz oluvchilardan qarzdorlardan to'lashi shart.

Aytish kerakki, bu jamoalarning barchasini boshqarish katta xarajatlarni talab qiladi. Demak, foiz daromadi ko'plab umumiy xarajatlar bilan bog'liq. Biroq, foizsiz daromadlar haqida gap ketganda, vaziyat boshqacha. Foizsiz daromad odatda bankning axborot texnologiyalari tizimlaridan foydalanganda olinadi. Demak, bank bu daromadni olish uchun ko'p qo'shimcha xarajatlarni to'lashi shart emas.

Barqaror va takrorlanuvchi: Bundan tashqari, bankning foizsiz daromadlari barqaror va takroriy bo'lishga intiladi. Buning sababi shundaki, kompaniyaning sotuvchilarga qilgan to'lovlari vaqt o'tishi bilan barqaror bo'ladi. Shunday qilib, bank tomonidan olinadigan to'lovlarni qayta ishslash to'lovlari ham barqaror bo'ladi. Darhaqiqat, daromad mijozning biznesi bilan bir xil nisbatda vaqt o'tishi bilan o'sib boradi.

Foiz bo'lмаган daromadning yana bir xususiyati shundaki, u takroriy bo'ladi. Shunday qilib, agar tijorat banki mijozni o'z ichiga olishi mumkin bo'lsa, u bir xil mijozdan juda uzoq vaqt davomida daromad olishda davom etishi mumkin. Shunday qilib, foiz daromadlari bilan bog'liq bo'lмаган foizsiz daromadlar bilan bog'liq marketing xarajatlari kamroq bo'ladi.

Gap shundaki, foizsiz daromadlar har qanday tijorat banki tashkiloti uchun muhim daromad manbai hisoblanadi.

**Foizsiz daromadning kamchiliklari.** Foizsiz daromad manbalariga ega bo'lishning bir qancha

afzalliklari bor. Biroq, afzalliklar tanganing faqat bir tomoni ekanligi bir xil darajada haqiqatdir. Foiz bo'limgan daromadga ega bo'lishning ko'plab afzalliklari bo'lgani kabi, bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Biz tijorat banking umumiy daromadining muhim qismi sifatida foizsiz daromadga ega bo'lishning turli kamchiliklari nimada ekanligini batafsil ko'rib chiqamiz.

Texnologiyaga yuqori sarmoya talab qiladi: Tijorat banking foizsiz daromad olish qobiliyati banking texnologik imkoniyatlarga bevosita bog'liq. Banklar o'z mijozlaridan oladigan davriy to'lovlarining aksariyati aslida banklarga tegishli texnologik infratuzilmadan foydalanganlik uchun to'lovlardir. Biroq, texnologik infratuzilma bilan bog'liq muammo shundaki, u juda katta investitsiyalarni talab qiladi. Bundan tashqari, ushbu infratuzilmani saqlash uchun zarur bo'lgan xodimlar juda ko'p pul talab qiladi.

Demak, bu harajatlarning barchasini tijorat banki o'z zimmasiga olishi kerak. Muammo shundaki, texnologiya ham tez orada eskiradi. Bunday holda, bank ham amortizatsiya shaklida katta pul yo'qotishga moyil bo'ladi. Demak, foizsiz daromad olish bank nuqtai nazaridan sezilarli darajada dastlabki investitsiyalarni talab qilishi mumkin, garchi takroriy xarajatlar ancha past bo'lsa ham.

Fintechdan raqobat: Foizsiz daromad olishning yana bir muammosi shundaki, tijorat banki o'zining asosiy vakolatlaridan chetga chiqishga majbur. Ko'p o'n yillar davomida tijorat banklari o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratib kelmoqda. Biroq, foizsiz daromad haqida gap ketganda, ular texnologiyani rivojlantirishga majbur. Bu ularni fintech sanoati bilan to'g'ridan-to'g'ri raqobatga olib keladi.

Endi gap shundaki, fintech kompaniyalari texnologik jihatdan ko'proq moyil bo'lib, bank sanoatiga qaraganda yaxshiroq mahsulot va xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. Shunday qilib, tijorat banklari fintech sanoati bilan raqobatlashishda mag'lub o'yin o'ynashmoqda. Natijada, ular bu raqobatdan qochish yaxshiroqdir.

Yuqori operatsion leverage: Yuqorida aytib o'tilganidek, firmalar foizsiz daromad olishga yordam beradigan xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo'lgan infratuzilmani qurish uchun ko'p asosiy kapitalni sarmoya qilishlari kerak. Infratuzilmani qurish nafaqat pulni, balki uni saqlashni ham talab qiladi. Bu xarajatlarning barchasi doimiy ravishda sodir bo'ladi dan doimiy xarajatlardir. Ular bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ko'lami bilan bog'liq emas.

Odatda, bank daromadlarining 2/3 qismi foizli xarajatlarga, berilgan ssudalar bo'yicha yo'qotishlarni qoplashga, soliqlarni to'lashga, kutilayotgan foydaga va sarmoyaning o'sishiga sarflanadi.

Xarajatlarga likvidlilikni saqlash, har qanday ustama foiz o'zgarishlari, passivlar tarkibi va xususiy kapital hajmi ta'sir qiladi. O'z navbatida, bank xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar aktivlar daromadligiga ham o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Xarajatlarni to'g'ri hisoblash banklarga muqobil konservativ resurslar narxlarini taqsimlash va bank aktivlarini aniq baholash hamda xarajatlarni qoplab, aksiyadorlar uchun daromadlarni to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Xarajatlarni baholashga kreditlar ustama foizlarini belgilashning asosiy omili sifatida qarash kerak.


**Foizli xarajatlar.** Foizli xarajatlar - barcha majburiyatlar bo'yicha to'langan foiz summasidir.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kredit resurslari tashkil etishda mijozlarning bo'sh turgan pul mablag'larini talab qilib olinguncha depozitlar hamda muddatli depozitlarga qabul qiladi. Ushbu depozitlar uchun tijorat banklari mijozlarga belgilangan stavkada ma'lum foizlarni to'laydilar. Undan tashqari, tijorat banklari o'zlarining boshqa qarz majburiyatları bo'yicha ham foizlar to'laydilar, shuningdek, qimmatli qog'ozlarining sotuv narxi bilan nominal qiymati orasidagi salbiy tafovut bo'lganida, ba'zi bir to'lanmagan foizlarni to'lashda ham banklarda foizli xarajatlar yuzaga keladi.

Banklar foizli xarajatlarining yana biri kredit va unga bog'liq operatsiyalardir. Banklar, eng avvalo, Markaziy bankdan, boshqa tijorat banklaridan, budjetdan tashqari fondlardan, bank bo'limgan moliyaviy muassasalardan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan to'lovlar ham foizli xarajatlarga kiradi.

Banklar avvalgi yillar (hisobot yiliga nisbatan) hisobiga to'lagan foizlar va vositachilik yig'imlari hamda o'tgan yillarda bank mijozlardan ortiqcha undirgan foizlar hamda vositachilik

yig‘imlarini qaytarishi bilan bog‘liq foizli xarajatlarni amalga oshiradilar.



#### 4-rasm. Bank hisobvaraqlari rejasiga bo‘yicha xarajatlar tasnifi<sup>46</sup>

**Foizsiz xarajatlar.** Foizsiz xarajatlarga xodimlarga to‘lanadigan ish haqlari va qo‘sishimcha to‘lovlar, uskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish, shuningdek, boshqa operatsiya bilan bog‘liq xarajatlar kiradi.<sup>105</sup>

Banklar O‘zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O‘zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta’minlash davlat fondiga, O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug‘urta fondiga qonunlarga muvofiq o‘tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan, bank xodimlariga mukofot hamda ko‘p yil ishlaganlik uchun ularni rag‘batlantirish bo‘yicha xarajatlarni amalga oshiradilar. Bank nodavlat fondlarga, ixtiyoriy tibbiy sug‘urta va ixtiyoriy sug‘urtaning boshqa turlari uchun o‘tkazgan ajratmalar, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug‘urtasidan o‘tkazish bo‘yicha to‘lovlar ham bankning foizsiz xarajatlari kiradi.

Bank asosiy fondlarni, jumladan, ularning bank faoliyatini amalga oshirishda foydalanadigan alohida qismlarini, xususan, tushumni inkassatsiya qilish uchun avtomobil transportini ijaraga olish bo‘yicha xarajatlar qildi.

Bank xodimlari va bank xodimlari bo‘lmagan, ya’ni bank shtatida bo‘lmagan xodimlarga, ular bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha bajarilgan ishlari uchun ish haqi to‘lash xarajatlari, amaldagi qonunlarga muvofiq, navbatdagi va qo‘sishimcha ta’tillar pulini, shuningdek, tibbiy ko‘riklardan o‘tkazish kabi xarajatlari ham foizsiz xarajatlarga kiradi.

Bundan tashqari, banklarning foizga dahli yo‘q xarajatlari bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashga sarflanadigan xarajatlari ham kiradi. Tijorat banklari oliy o‘quv yurtlari bilan kelishilgan shartnoma va to‘lov asosida bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, bank xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlash xizmatlari uchun haq to‘laydi.

**Operatsion xarajat** - bank operatsiyalari bilan to‘g’ridan to‘g’ri bog‘liq bo‘lgan xarajat.

**Foya** - bu bankning odatiy faoliyati jarayonida yuzaga kelishi yoki yuzaga kelmasligi mumkin bo‘lgan daromad ko‘rinishi. Foya, masalan, asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan foydani o‘z ichiga oladi. Foya ta’rifi realizatsiya qilinmagan foya, masalan savdo uchun mo’ljallangan (bozor) qimmatli qog’ozlarni qayta baholashda yuzaga keladigan foydani ham o‘z ichiga oladi.

Tahlillarga tayangan holda shuni aytimiz mumkunki “Iqtisodiy inqiroz vaqtida Amerika tijorat banklarining yillik sof foydasi tarmoqlar bo‘yicha foydaning ko‘p miqdori rezervlarni boy berishda sezilarli darajada tushib ketdi”, - deb iqtisodiy manbalarda keltirilgan.

Tijorat banklari daromadi (foydasi)ni shakllantirishning va ular faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri, avvalo, o‘zida mavjud bo‘lgan tabiiy resurslar bilan ishlashdir. Tijorat banklari naqd pulsiz to‘lovlarini amalga oshirishni, boshqa banklarga va mijozlariga kredit berishi va banklardan o‘z hisobvarag‘i chegarasida naqd pul olishi mumkin.

Tijorat banklari o‘zida mavjud bo‘lgan haqiqiy resurslar chegarasida ishlashi deganda, tijorat banklarining nafaqat o‘z mablag‘lari bilan kredit qo‘yilmalari o‘rtasidagi miqdoriy munosabatni ta’minlashi zarur, balki bank aktivlariga yo‘naltirilgan mablag‘lar xususiyati munosabatiga ham erishish zarur. Avvalo bu ularning muddatiga tegishlidir.

<sup>46</sup> Sh. Z. Abdullayeva, U.O’.Azizov. Bank ishi. Darslik. Toshkent-2018. 1024b.

Bank aktividagi ssuda qarzi miqdorining ko'pligi undan o'z mablag'larini ko'paytirishni talab etadi. Bankning iqtisodiy normalarini va uning operatsiyalarini muvofiqlashtirish davomida bank aktivlarining passivlar tavfsilotiga mustahkam bog'liqligiga ahamiyati berilishi kerak.

Shuning uchun bank operatsiyalari shart-sharoitlarini ishlab chiqayotganda, avvalo, tegishli passivlarni shakllantirish manbalari hisobga olinadi.

Iqtisodiy normativ hujjatlar talablariga mos kelgan holda, tijorat banklari o'zida mavjud bo'lgan resurslar bilan aktiv operatsiyalarni yetarli darajada o'tkaza oladi.

Tijorat banklarining o'zida mavjud bo'lgan chetdan jalb qilingan resurslar bilan faoliyat ko'rsatish tamoyili fundament sifatida uning alohida ko'rsatkichlariga ta'sir etadi: bankning depozitlarni jalb qilish xohishi ortib boradi, yagona davlat banki tomonidan ma'muriy yo'nalishda boshqaruvdan bo'shagan kredit resurslari harakatidan iborat passivlar uchun iqtisodiy raqobat rivojlanadi. Bank kapitalining yuqori rentabelli tarmoq (inflyatsiya sharoitida savdo tashkilotlari, birja faoliyati yuqori daromadli muomala sferasi bo'lib hisoblanadi) tomon ko'chishi yuz beradi. Kredit resurslarini planlashtirish va uning yordamida bank resurslarini hosil qilishga e'tibor kuchayadi.

Mavjud bo'lgan banklar qonun-qoidalar tizimi tijorat banklariga o'zining foyda va fondlaridan erkin foydalanish huquqini beradi. Tijorat banklarining soliqlar to'langandan keyingi qoladigan daromadi (foydasasi) umumiy aksionerlar yig'ilishi qarorlariga muvofiq taqsimlanadi. U bankning xar hil fondlariga ajratmalar ajratish tartibi va aksiyalar bo'yicha beriladigan dividendlar miqdorini belgilaydi.

Banklar foiz siyosatini amalga oshirishda omonatlar bo'yicha to'laydigan foizni ularning o'zları taqdim etadigan ssudalar uchun oladigan ssuda foizidan pastroq qilib belgilaydi. Sodda qilib aytganda, olingen va to'langan foizlarning summalari o'rtaqidagi farq banklarning foydasining asosini tashkil etadi. Bank foydasiga boshqa turdag'i operatsiyalardan ko'rilgan daromadlar ham kiradi. Bank foydaning bir qismini soliqlarni to'lashga, o'z harajatlarini (bank xizmatchilariga, xodimlariga ish haqi to'lash, binolarni saqlash, idora chiqimlari, reklama harajatlari, transport xarajatlari va boshqalar uchun mablag' sarflash) qoplashga ishlataladi, soliqlar to'lagandan qolgan qismi esa bankning sof foydasini tashkil etadi.

Ma'lumki, tijorat banklari yuqori foyda olish maqsadida o'zlarining foiz siyosatini yuritadilar. Ammo, banklarda yuqori foyda olish imkoniyatlari keng bo'lsada, ular bu imkoniyatlardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanishlari lozim.

Chunki yuqori foyda olish doimo yuqori riskli jarayonlarni amalga oshirishni talab etadi. Yuqori risk ostida faoliyat olib borish hamma vaqt ham muvaffaqiyat keltirmasligi mumkin. Birinchidan, katta marja ortidan quvish mijozlardan mahrum bo'lib qolishga olib kelishi muqarrar, chunki ular haddan tashqari yuqori qo'yilgan foiz stavkali kreditlardan voz kechishlari mumkin. Ikkinchidan, banklararo raqobat sharoitida boshqa tijorat banklari bir qadar samaraliroq ishlar uchun ancha arzon kreditlar taklif etishlari mumkin. Foyda olish qoidasi tijorat banklari faoliyatining asosiy qoidalaridan hisoblanadi va bunday maqsadni qo'yagan bank bozor munosabatlari sharoitida to'laqonli faoliyat ko'rsata olmaydi. Bank tijoratining bu qoidasi asosan "Arzonroq sotib olish, qimmatroq sotish" formulasi orqali amalga oshadi. Biroq, bu qoidaga nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham yondashmoq lozim.

#### **2.4. Bank ishida mijozlarning kredit qobiliyatini aniqlash va boshqarishning ilg'or tizimlarini joriy etishdagi kamchiliklar;**

Tijorat banklari O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan amalga oshirish, rivojlangan bozor munosabatlarni joriy etish, xalq xo'jaligining barcha sohalarida tadbirdorlikni rivojlantirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun faol yordam beruvchi real sektordir. Shuning uchun banklar faoliyatida xizmat ko'rsatish turlarini maksimal darajada kengaytirish, ularning sifatini yaxshilash, mijozlarni kompleks o'rganish va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlaydigan xalqaro andozalarga o'tkazish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda axborotlashtirish sohasida yaratilgan mukammal qonunchilik bazasi jamiyatimizning barcha jabhalari qatori bank tizimiga ham kompyuter va axborot texnologiyalarini

keng joriy etishga imkon yaratdi. Bank tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi mijozlarga bank xizmatining yangi turlarini ko'rsatish, xizmatlar samaradorligi va mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qilmoqda. Bugunga kelib mamlakatimiz bank tizimida mijozlarga pul jo'natmalarining elektron to'lovlar tizimidan foydalangan holda qisqa vaqt ichida amalga oshirish imkoniy yaratilgan, shuningdek bank mijozlariga mobil aloqa vositalari va global internet tarmog'i orqali interaktiv xizmatlar ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan, shu bilan birga, banklar tomonidan statistik ma'lumotlarni qayta ishslash, elektron hujjat aylanishi, xususan, elektron raqamli imzo texnologiyalari qo'llanilib kelinmoqda.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'naliishlaridan biri AKT asosida bank xizmatining yangi turlarini kengaytirish, AKT sohasiga oid qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish, bank amaliyatiga ilg'or texnologiyalarni kiritishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish va ularni mijozlarga taqdim etish, ushbu ishlar ko'lami orqali banklar investitsiya faolligining kuchayishi va kapitallashuviga erishish, moliya-bank tizimida barqarorlikni ta'minlashga ko'maklashishdan iboratdir.

Axborotlashgan jamiyatda bank tizimi faoliyatiga AKTni keng joriy qilish ko'zlangan vazifalarni amalga oshirishning asosiy yo'llaridan biridir. Bugungi kunda AKT nafaqat biznes jarayoninig vositasi, balki bu jarayonning integratsiyalashgan qismi hisoblanadi.

Ayni paytda bank tizimi o'z faoliyatini AKTdan ayri holda davom ettira olmaydi. Sababi bank har kuni, har soniyada AKTga ehtiyoj sezadi hamda undan foydalanadi. Bank tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining joriy etilishi mijozlarga bank xizmatining yangi turlarini ko'rsatish, xizmatlar samaradorligi va mijozlarning bankka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday xizmat turlaridan biri bankning asosiy faoliyat turi hisoblanmish kredit faoliyatidir.

Oxirgi yillarda banklar tomonidan ustuvor vazifa qilib belgilangan sanoatda yuqori texnologiyali va zamonaviy bo'lgan eng muhim ob'ektlar hamda quvvatlarni ishga tushirish, mamlakatda ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan yangilash va modernizatsiyalashga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi bank tizimining iqtisodiyotdagi ulushi<sup>47</sup> (mlrd. so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar kesimida				
	01.01.2019 y.	01.01.2020 y.	01.01.2021 y.	01.01.2022 y.	01.01.2023 y.
YAIM	407 514,5	529 391,4	602 193,0	738 425,2	888 341,7
Bank aktivlari	214 419,6	272 726,9	366 121,1	444 922,5	556 746,3
Aktivlarning YAIMga nisbati, foizda	52,6	51,5	60,8	60,3	62,7
Kredit qo'yilmalari	167 390,6	211 580,5	276 974,8	326 385,6	390 048,9
Kredit qo'yilmalarining YAIMga nisbati, foizda	41,1	40,0	46,0	44,2	43,9
Depozitlar	70 001,4	91 009,0	114 746,9	156 189,8	216 737,5
Depozitlarning YAIMga nisbati, foizda	17,2	17,2	19,1	21,2	24,4
Kapital	266 78,9	51 030,7	58 351,3	70 917,6	79 565,4
Kapitalning YAIMga nisbati, foizda	6,5	9,6	9,7	9,6	9,0

1-jadval ma'lumotlariga asosan aytishimiz mumkinki, 2022 yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar hajmi 390,0 trln. so'mni tashkil etib, pandemiya sharoitlariga qaramasdan qariyb 2021 yil darajasiga nisbatan o'zgarish 63 trl. so'mni tashkil qildi. Natijada, iqtisodiyotga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i yil boshiga nisbatan 19,2 foizga yoki YaIM nominal o'sishiga nisbatan 41,9 foizga teng bo'ldi.

Bunda jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qo'yilmalari qariyb 1,4 barobarga hamda yuridik shaxslarga ajratilgan kredit qo'yilmalari qoldig'i esa 1,3 barobarga oshdi.

<sup>47</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari asosida tuzilgan.

Shuningdek, tijorat banklari tomonidan kredit bo'yicha to'lovi mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarning 75 foiziga va yuridik shaxslarning 40 foiziga foiz va asosiy qarz to'lovlari bo'yicha 6 oylik kechiktirishlar (2020 yil 1 oktyabrga qadar) berildi va mos ravishda kredit muddatlari uzaytirildi.

Mamlakatimiz tijorat banklarining jami aktivlari 4,35 barobarga, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kredit qo'yilmalari umumiy qiymati esa 5,15 barobarga ko'paydi va bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. Tijorat banklari aktivlarining umumiy summasi 2023 yilning 1 yanvarida ko'ra, 556,7 trln. so'mni tashkil etdi<sup>48</sup>. Bu holat bank tizimining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi rolining tobora oshib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Biroq, kreditlar hajmi oshishi va pul massasi o'sishi o'rtaida keskin tafovutning vujudga kelishi hamda ajratilgan kreditlarning yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushi yuqori sur'atda o'zgarishi mazkur kreditlar hisobiga yaratilgan ichki talabning bir qismi import hisobidan qoplanayotganligidan dalolat beradi<sup>49</sup>.

Kreditlashning asosiy elementi va bank ssudalarini sinflarga bo'lismeni bo'lib uning ta'minlanganlik darajasi hisoblanandi. Shuning uchun ssudalar to'g'ridan to'g'ri ta'minlanganligi, bilvosita ta'minlanganligi va umuman ta'minlanmagan bo'lishi mumkin. Halqaro amaliyotda kreditlar ta'minlangan, kisman ta'minlangan va ta'minlanmagan kreditlarga bo'linadi.

Bugungi kunda respublikamizda kredit axboroti almashinuvni bo'yicha samarali va xalqaro talablarga javob beradigan tizim yaratilgan bo'lib, mazkur tizim «Kredit axboroti almashinuvni to'g'risida»gi Qonunga muvofiq tashkil etilgan «Kredit-axborot tahliliy markazi» kredit byurosiga mas'uliyati cheklangan jamiyati va Markaziy bankning Kredit axborotining davlat reestrini o'z ichiga oladi.

Kredit axborotining davlat reestridagi ma'lumotlarning haqqoniyligini ta'minlash, shuningdek, kredit axborotini yetkazib beruvchilar tomonidan taqdim etilayotgan axborotlar sifatini oshirish maqsadida qo'shimcha elektron mantiqiy nazoratlar kiritildi.

Kredit jarayonlarining bugungi kunda banklar faoliyatida tutgan o'nini baholash uchun biz kredit operatsiyalarida qo'llanilayotgan mablag'lar ulushini jami bank aktivlaridagi salmog'iga qarab tahlil qilishimiz mumkin. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar va aholi hamda yuridik shaxslarning bank mablag'lariga bo'lgan talabi natijasida banklarning aktivlari miqdori yildan yilga oshib bormoqda.

## 2-jadval

### Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari qoldig'i (Bank turlari bo'yicha)<sup>50</sup>

Bank turlari	01.01.2019 yil		01.01.2020 yil		01.01.2021 yil		01.01.2022 yil		01.01.2023 yil	
	summada (trln.so'm)	ulushi (foizda)								
Davlat ulushiga ega banklar	148796,0	88,83	186630,3	88,38	244483,9	88,27	280073,6	85,81	324680,8	83,24
Kapitalida davlat ulushi bo'limgan banklar	18594,6	11,17	24850,2	11,62	32490,9	11,73	46311,9	14,19	65368,2	16,76
Jami banklar	167390,6	100,0	211580,5	100,0	276974,8	100,0	326385,6	100,0	390048,9	100,0

2-jadval ma'lumotlaridan kshrinib turibdiki, 2022 yili yakuni bo'yicha tijorat banklari jami kredit qo'yilmalarining asosiy qismi, ya'ni 83,24 foizi davlat ulushiga ega tijorat banklari hissasiga

<sup>48</sup> O'zbekiston respublikasi Markaziy banki yillik hisobot asosida tuzilgan.

<sup>49</sup> Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillarda davriga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.

<sup>50</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari asosida tuzilgan.

to'g'ri kelgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018-2022 yillar davomida 5,59 bandga kamaygan. Bunda 2018-2022 yillar davomida kapitalida davlat ulushi bo'limgan banklar faoliyatida kredit qo'yilmalarini joylashtirish miqdorining oz bo'lsada ko'paytirilishi yuz berdi.(50%). Davlat ulushiga ega tijorat banklari tomonidan mijozlarni kreditlash miqdori oldingi yillarga nisbatan tushib bormoqda.

Demak banklar faqat kredit qo'yilmalari joylashtirishdan boshqa yo'naliishlarga o'z mablag'larini sarflash bo'yicha ham amaliy ishlarni boshlaganliklaridan darak beradi. Bu esa o'z navbatida ularning orasidagi raqobatni kuchaytiradi.

Agar berilgan kreditlarni muddatlari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak bugungi kunda banklar faoliyatida qisqa muddatli kreditlarning ulushi oshib borayotganligi guvohi bo'lishimiz mumkin.

### 3-jadval

#### Tijorat banklarining kredit qo'yilmalari qoldig'i (muddati bo'yicha)<sup>51</sup>

Kreditlar (muddati bo'yicha)	01.01.2019 yil		01.01.2020 yil		01.01.2021 yil		01.01.2022 yil		01.01.2023 yil	
	summada (trln.so'm)	ulushi (foizda)								
-qisqa muddatli kreditlar	8638,2	5,17	17951,8	8,49	28243,8	10,20	33379,4	10,23	51130,0	13,11
-uzoq muddatli kreditlar	158752,4	94,83	193628,7	91,51	248731,0	89,80	293006,1	89,77	338918,9	86,89
Jami kreditlar	167390,6	100,0	211580,5	100,0	276974,8	100,0	326385,6	100,0	390048,9	100,0

Yuqoridagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turganidek mamlakat banklarining jami kredit qo'yilmalarida qisqa muddatli kreditlarning ulushi yildan yilga ko'payib bormoqda. Oxirgi yillar mobaynida qisqa muddatli kredit qo'yilmalarining ulushi 2019 yildagi 5,17 foizdan 2023 yil 1 yanvar holatiga 13,11 foizga oshganini ta'kidlashimiz mumkin.

Iqtisodiyotda barcha bo'sh pul mablag'larining bank tomonidan yig'ilishi natijasida vujudga keladigan kredit resurslari hisobidan qarz oluvchi korxonaga zarur bo'lgan summada, zarur bo'lgan muddatda kredit berishga imkoniyat yaratiladi.

Iqtisodiy rivojlanishning o'sishi bank kreditining qo'llanilish ko'lamenti kengaytirib boradi. Kredit faqatgina har kunlik faoliyat bilan bog'liq ishlab chiqarish va muomala jarayonining qisqa muddatli ehtiyojlari uchun emas, balki uzoq muddatga kapitalga bo'lgan ehtiyojni qoplashga yo'naltiriladi.

Tijorat banklarning kredit portfelini samarali boshqarishda qarzdorlarning oralik molivaviy holatlarini tahlil qilgan holda ularni qo'llab quvvatlash jarayonini o'rganish va uni amaliyotda qo'llash xanuzgacha muammo bo'lib kolmokda. Ya'ni, qarzdorning joriy kredit loyixasi istikbolli bo'lib, u qushimcha kredit mablag'lariga ixtiyoj sezadi.

Ammo, xozirgi bank qonunchiligidan kelib chiqib banklar tomonidan mijozni qo'shimcha kreditlash taqiqlangan. Buning natijasida, mablag' yetishmasiligi oqibatida mijozning kredit loyixasini oxiriga yetkazish, birlamchi kreditni sundirish imkoniyati bulmaydi va tijorat banki uchun yana bir muammoli kreditni hosil qiladi. Bu muammoni hal qilish uchun bank qonunchiligiga kerakli o'zgartirishlar kiritilishi, mijozga ishlab chiqarilajak mahsulot va xizmatlar uchun qo'shimcha kredit mablag'larini taqdim qilish, shu bilan birga birlamchi kreditni sundirish imkoniyatini yaratish maqsadaga muvofiqdir.

So'nggi yillarda ochiqlik siyosati, iqtisodiyotni tashqi tovar va moliya bozorlariga integratsiyasining kuchayishi tijorat banklarining xorijdan qulay shartlarda kapital jalb qilish imkoniyatlarini oshirmoqda.

<sup>51</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari asosida tuzilgan.

Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotni moliyaviy resurslarga bo'lgan yuqori talabini qondirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, bank tizimining tashqi xatarlarni qabul qiluvchi sifatidagi rolini oshirmoqda.

Shu sababli, 2022 yildan boshlab Markaziy bankning bank nazorati borasidagi asosiy e'tibori tashqi iqtisodiy xatarlarning banklar barqarorligiga salbiy moliyaviy ta'sirlarini yumshatishga hamda banklarda mavjud kredit riskini keskin kuchayishini oldini olishga qaratilmoqda.

Banklarning muvaffaqiyatlari kredit siyosati olib borishining zaruriy sharti jahon amaliyotidan ma'lumki, qarzdorlar to'g'risida to'liq axborot almashinuvi hisoblanadi. Qarzdorlar to'g'risidagi to'liq axborotning kredit berish vaqtida kredit tashkilotida mavjud emasligi muddatida qaytarilmagan kreditlarning o'sishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biridir. Qarzdorlar to'g'risidagi to'liq axborot olishning zaruriy sharti va asosiy ta'minotchisi zamonaviy axborot texnologiyalaridir. Kredit portfelining hajmi va qarzdorlar soni oshgani sayin banklar uchun bo'lajak va mavjud qarzdorlar haqida to'laqonli axborotga ega bo'lish qiyinlashadi. Bunday ma'lumotlarni olish va tahlil qilish uchun ko'p vaqt sarflanadi, mijoz esa qisqa muddatda mablag' olishni istaydi. Kredit axborot almashish tizimi jahon amaliyotida mana shu zarurat tufayli yuzaga kelgan va shu zaruriyatning yechimi sifatida AKTga asoslangan bank texnologiyalaridan foydalanilgan. Zero bank texnologiyalari banklar o'z faoliyatini yuritishda axborot yig'ish, undan foydalanish va uni tartibga solishda qo'llaniladigan kompyuter texnologiyalari, tizimlari, ularga yordamchi elektron vositalar va dasturlar tizimidir.

Ayni vaqtida mamlakatimizda tijorat banklari va boshqa nobank kredit tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan kredit xizmatlari ko'lami tobora kengayib bormoqda. Shunga monand undan foydalanuvchilar doirasi ham kun sayin oshmoqda. Mana shu jarayonda banklar va nobank kredit tashkilotlari yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan xatarlarining oldini olishga xizmat qiluvchi axborotlar, ya'ni mijoz faoliyati – uning kredit tarixi, boshqa banklardan qarzi bor-yo'qligi yoki mazkur qarzlar bo'yicha o'z majburiyatlarini qay darajada bajarganligi, uchinchi shaxslarning kafolati, korxona boshqaruvchilarining malakasi, ularning tadbirkorlik sohasidagi faoliyati to'g'risida to'liq hamda ishonchli axborotga ega bo'lishdan manfaatdorlar.

Axborotlashgan jamiyatda elektron hukumat rivojlanishining hozirgi bosqichida kredit axboroti almashinuvi tizimining yanada takomillashuvini taqozo etmoqda edi. Xususan, kredit axboroti almashinuvi jarayonida faqatgina banklarning ishtiroti ta'minlanishi bilan chegaralanmasdan, ushbu munosabatlarga boshqa kredit tashkilotlari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning jalb etilishi davr talabiga aylandi. Ya'ni, mazkur munosabatlarda boshqa kredit tashkilotlari, jumladan, mikrokredit tashkilotlari, kredit uyushmalar, lombardlarning ishtiroti ko'zda tutilmagan, shuningdek lizing sug'urta tashkilotlarining kredit axboroti almashinuvida ishtiroti belgilanmagan edi. Shuning uchun bank tizimi hamda nobank kredit tashkilotlari va lizing sug'urta tashkilotlarining hozirgi rivojlanish bosqichi kredit axboroti almashinuvi tizimini bevosita tartibga soladigan alohida qonun hujjati qabul qilishni taqozo etdi.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2011 yilning 4 oktyabrida imzolangan O'zbekiston Respublikasining "Kredit axboroti almashinuvi to'g'risida"gi Qonuni 2012 yilning 1 yanvaridan kuchga kirdi

Yuqorida keltirilgan Qonunga muvofiq kredit axboroti almashinuvi bo'yicha huquqiy bazaning yaratilishi va buning asosida zamonaviy kredit axboroti almashinuvi tizimining tashkil etilishi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- ✓ kredit tavakkalchiligining kamayishi;
- ✓ kredit intizoming mustahkamlanishi;
- ✓ kredit portfeli sifatining yaxshilanishi;
- ✓ muammoli aktivlar bo'yicha zaxira yaratish harajatlari kamaytirilishi;
- ✓ kredit portfeli hajmining oshirilishi;
- ✓ kredit bozorida raqobatning oshirilishi;
- ✓ foiz stavkalarining kamaytirilishiga erishish.

Kredit axboroti almashinuvi tizimi jismoniy va yuridik shaxslarning avval olingan kreditlari va boshqa qarz majburiyatlarini bo'yicha kafolatlarning bajarilishi to'g'risida ma'lumotlardan tashkil

topgan kredit tarixini shakllantiradi. Kredit tarixi esa, tizimni faoliyatga keltiruvchi asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bu qarz oluvchi majburiyatlari va ularni ijro etish to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, qarz oluvchiga moliyalash taqdim etilishi xatarini baholash uchun ta'sir etadigan (bankrotlik, sud qarorlari, muassislar tarkibi) boshqa ma'lumotlardir. Kredit tarixi qarz oluvchining to'lov intizomini aniqlashga yordam beradi, ya'ni qarz oluvchi o'z zimmasidagi to'lov majburiyatlarini qanchalik to'liq, o'z vaqtida va muntazam bajarishi aniqlanadi. Shu tariqa, kredit tarixi qarz oluvchining o'ziga xos nufuzini belgilaydigan mezon bo'lib xizmat qiladi. Ijobiy kredit tarixiga ega qarz oluvchi ancha yengil shartlar asosida (qarzni ta'minlashga talablar pastligi, summaning ko'p va moliyalash muddatining uzoq bo'lishi) osonlik bilan qarz olishi mumkin.

Chakana bank xizmatlari borasida o'z faoliyatini samarali olib borgan xorijiy Rayffayzenbank boshlig'i fikriga ko'ra buning uch usuli bo'lishi mumkin:

1.Biron-bir yaxshi maqsadlik kreditni olib, o'sha kredit bo'yicha model qurish;

2.Boshqa mamlakatda tayyorlangan modelni sotib olish;

3. Ushbu holat uchun idel hisoblangan o'z modelini yaratish. Ammo bu banklar uchun mushkul va qimmat bo'lishi mumkin.

Fair, Isaac & Company mutaxassislari tomonidan shakllantirilgan mijozni kredit olish qobiliyati bo'yicha tavsifnomasi quyidagilardan iborat.

1) Kreditlarni qoplash bo'yicha to'lovlarning retrospektiv ma'lumotlari.

2) Qarzdor tomonidan kreditni foydalanish usuli.

3) Mijozi kredit tarixining davomiyligi.

4) Ariza beruvchi tomonidan qarz olish uchun beriladigan arizaning davriyili.

5) Ist'emolchining kreditlar paketi (Kombinatsiyasi)

6) Mijozi kredit olish qobiliyatini baholash ariza beruvchi tomonidan so'raliyotgan kredit turiga bog'liq.

Devid Dyuran tomonidan ishlab chiqilgan skoring modeli bank amaliyotida keng tarqaldi. Uni shismoniy shaxslarni kreditlashda va ularning riskini aniqlashga keng qo'llash mumkin.

O'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish yo'nalishiga ko'ra, kredit skoringi bir nechta turlarga bo'linishini oldingi savolda ko'rib o'tgan edik.

Shunga ko'ra bugungi kunda bank tizimlariga joriy qilish mumkin bo'lgan quyidagi bir nechta kredit skoringi dasturlari turlari mavjud:

1) Behavioral – mijozning kredit kartasi orqali unga belgilanadigan optimal limit, uning to'lov qobiliyatidagi o'zgarishlar va istiqboli aniqlanadi. Bunday skoring «ahloqiy skoring» deb ham ataladi.

2) Collection – kollektor agentliklari tomonidan muddati o'tgan qarzlar bilan yoki «qoniqarsiz» deb tavsiflangan kreditlar (mijozi bilan to'liq ishslash imkoniyatini beradi).

3) Application – kredit olish uchun ariza topshirgan mijozlar bilan ishlaydigan dolzarb skoring turi hisoblanadi.

4) Fraud – ishonchli bo'limgan mijozlarni aniqlash va ularning ko'zbo'yamachilik bilan shug'ullanish darajasini izlab topishga imkon beradi.

Tijorat banklari mijozni kredit skorirng usulida baholashlari uchun bir nechta ko'rsatkichlardan foydalanishlari kerak.

Hozirda banklar kredit faoliyatiga joriy qilingan zamonaviy skoring modellarida 13-25 ta parametrlar: 13 ta — ist'emol krediti uchun va 25 ta - avtokreditlari yoki ili ipoteka kreditlari uchun ishlatiladi.

Umuman olganda banklarning kredit skoring modeli quyidagi parametrarga asoslanadi: shaxsiy ma'lumotlar, moliyaviy va qo'shimcha yordamchi ma'lumotlar. Shaxsiy ma'lumotlar: jinsi, yoshi, oilaviy holati, boqimandasasi bor/yo'q, ma'lumoti. Moliyaviy: umumiy mehnat stoji, oxirgi ish joyidagi ish stoji, ish haqi darajasi va umumiy harajatlari.

Qo'shimcha ma'lumotlari jumlasiga qo'shimcha daromad manbaining mavjudligi, avtomobil va garajining mavjudligi, dala xovli, shaxsiy yer uchastkasining mavjudligi kabilalar kiradi.

O'zbekistonda ham yildan-yilga iqtisodiyotni kreditlash yil sayin ortib bormoqda. Kreditlashning ko'payib borishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda, aholini moddiy rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq kreditlash hajmining bunday o'sib borishi o'z navbatida mazkur sohadagi moliya institutlari o'rtasida raqobatni ham kuchaytiradi. Eng yaxshi mijoz uchun kurashda tahdid-tavakkalchiliklarni tez va munosib baholay oladigan, moliyalashtira biladigan va mablag'ni vaqtida qaytara oladigan tashkilotlar yutib chiqadilar. Xalqaro amaliyotga qaraladigan bo'lsa, mazkur vazifalarni hal etishning samarali vositasi kredit skoringdir.

Ehtimol tutilayotgan (potentsial) qarz oluvchining kredit layoqatini baholashning bu tizimini moliya tashkilotlarimiz sub'ektiv skoring tarzida amaliyotda qo'llab kelmoqdalar. Chunonchi, qarz beruvchi kredit tashkilotiga kredit so'rab murojaat qilgan paytda kredit bo'limining xodimi taqdim etilgan hujjatlar asosida uning kredit layoqatini baholaydi hamda kredit berish yoki bermaslik haqida xulosa tayyorlaydi. Uchrashi ehtimoli bo'lган sub'ektiv omillarni bartaraf etish uchun xulosa endi kredit qo'mitasida ko'rib chiqiladi.

Lekin sub'ektiv skoringga xos xususiyatlar aholini va kichik biznesni chakana kreditlashda uni qo'llanishni samarasiz qilib qo'yadi.

Chakana kreditlash uchun eng samaralisi statistika skoringidir. Bunday skoring qarz oluvchining kreditni qaytarish imkoniyatlari va istagini baholashning avvalgi kreditlar to'g'risidagi axborotlarni matematika va statistika usullari yordamida kompyuterda ishlovdan o'tkazishga asoslangan tizimidir.

Statistika skoringini ishlab chiqish va undan foydalanish uchun moliya tashkilotiga 500 dan ortiq berilgan va qaytarilgan (uzilgan) kreditlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamlamasini zarur. Uni tahlil etish tahdid-tavakkalchiliklar darajasiga ta'sir qiluvchi kredit operatsiyalarining mufassal tavsifini aniqlash imkonini beradi.

Statistika skoringi ikkinchi jahon urushi yillarda banklarda kredit sohasida professional mutaxassislar keskin kamayib ketganligi sababli yuzaga keldi. Banklar kredit layoqatini baholash borasida ko'pincha yetarlicha tajribasi bo'lмаган yangi xodimlarni ishga yollash va eski xodimlarni almashtirishga majbur bo'lgach, kredit bo'yicha qaror qabul qilish yuzasidan mutaxassis bo'lмаган kishilar uchun qoidalar ishlab chiqdilar va bu qoidalar skoring tizimlarining ibtidosi, timsoli bo'lib goldi.

Statistika skoringi yechimining soddarroq qoidalari skoring haritasi (baholash varag'i) hamda kredit tahdid-tavakkalchiliklarini baholash qoidalari majmuidan iboratdir. Ko'rib chiqilayotgan kredit operatsiyasining barcha ko'rsatkichlari tahdid-tavakkalchilikning har bir identifikatsiya qilingan omili uchun ball oladi. Ballar summasi yakuniy kredit ballni tashkil etadi. Bu ball alohida shkala bo'yicha baholanayotgan operatsiyadagi kredit tahdid-tavakkalchiligi qanchalik katta ekanligi ehtimolini ko'rsatib beradi.

Skoringni qo'llanish bo'lajak kredit operatsiyalari tavsif jihatdan o'xshashroq avvalgi kredit operatsiyalarda kuzatilganiga o'xshab ketadigan kredit tahdid-tavakkalchiliklari qanchalik uchrashini chamalab beradi. Qarz oluvchining ayrim tafsiflariga xos kredit tahdid-tavakkalchiligi darajasidan kelib chiqib, muayyan qarz oluvchining quyida misol tariqasida keltirilayotgan skoring ballik ko'rinishidagi umumiyl kredit tahdid-tavakkalchiligi aniqlanadi.

3-jadval ma'lumotlariga asoslangan holda aytish mumkinki, kredit olish uchun berilgan ariza-buyurtma 62 balldan iborat yakuniy skoring natijasiga ega bo'ldi. Ilgari skoring bali 62 bo'lган 10 ta kreditdan 9 tasi o'z vaqtida, to'la-to'kis uzilgan, bittasi esa muammoli kredit bo'lib qolgan.

Demak, ko'rib chiqilgan kredit ariza-buyurtmasi 10 foizli tahdid-tavakkalchiligi bo'lган muammoli kredit bo'lishi mumkin. Bordi-yu, bank bo'limi ayni shunday skoring baliga ega bo'lган 100 ta kredit berish haqida qaror qabul qiladigan bo'lsa, ularning 90 tasi vaqtida, to'liq qaytariladi, 10 tasi esa, muammoli bo'lishi mumkin.

Bank yoki mikrokredit tashkiloti ana shunday ehtimollikni bilgach, kredit tahdid-tavakkalchiligining o'zi uchun maqbul darajasini belgilab olishi mumkin.

Statistika skoringini qo'llash ehtimol tutilgan (potentsial) qarz oluvchining kredit layoqatini tez, ishonchli tarzda baholash imkonini beradi. Jumladan, «Russkiy standart» bankida skoring tizimini joriy etish iste'mol kreditlari berish muddatini qisqartirdi, bu ishni 2 hafta o'rniga 15 daqiqada amalga oshirish imkonini berdi. Bu esa bank chakana kreditlash borasida Rossiya bozorida tezgina yetakchi mavgeni egallashiga olib keldi.

**O'zbekiston tijorat banklarida qo'llanilishi kutilayotgan  
kredit skoring haritasi namunasi**

<i>Indikator</i>	<i>Qarz oluvchi ko'rsatkichi</i>	<i>Ball</i>
Arzgo'yning uy-joy mulki maqomi	Uy mulkdori	+18
Arzgo'yning yoshi	40 yosh va undan katta	+6
Arzgo'yning oilaviy ahvoli va oilasi tarkibi	Uylanmagan/turmushga chiqmagan	-5
	Uylangan, bolalari bor	+11
	Uylangan, bolalari yo'q	+8
Faoliyat turi	Hunarmand	+12
Biznes sohasida necha yildan beri shug'ullanadi	2 yildan kamroq	-8
Yillik daromad (faoliyatdan jami va ish haqi)	30 mln so'm va undan ko'proq	+15
Qarzdorlikning joriy darajasi (shu jumladan mo'ljallanayotgan kredit)	2–10 mln so'm	+14
Muassasada olingen avvalgi kreditlar	2 marta va undan ortiq	+25
Avvalgi kredit vaqtida o'tkazib yuborilgan eng ko'p muddat	30 kundan ortiq	-45
Mo'ljallanayotgan kredit valyutasi	So'm	+5
So'rالayotgan (talab qilinayotgan) kredit summasi	10 mln so'mdan kamroq	+6
Jami		+62

Skoring bank tashkilotlari ko'plab miqdordagi chakana kreditlarni qamrab olish imkonini beradigan, nisbatan qimmat bo'limgan vositadir. Ma'lumki, chakana kreditlarda har bir qarz bo'yicha daromadlar moliya tashkilotining qarz oluvchining kredit layoqatini an'anaviy usul bilan tahlil etishdagi harajatlarini qoplay olmaydi. Oqibat natijada chakana kreditlar bo'yicha foiz stavkalari, odatda, uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo'yicha stavkalardan anchagina oshib ketadi.

Statistika skoringini qo'llash moliya tashkilotlari kredit bo'limgarining xodimlari professional malakasi darajasiga bog'liqligini kamaytiradi. Skoringga asoslangan kreditlash alohida ko'nikma talab etmaydi, kredit berish to'g'risidagi qaror matematik modul yordamida qabul qilinadi, mutaxassislarining sub'ektiv fikri esa, faqat alohida hollardagina inobatga olinadi. Statistika skoringini qo'llash kredit berishni soddallashtiradi, kreditlashni maqbullashtirish va uni kamroq miqdordagi xodimlar bilan yanada xolislik asosida amalga oshirish imkonini beradi. Skoring asosida kreditlash jarayonini avtomatashtirish amalda inson omilini istisno etishga zamin yaratadi, daromadlilikni oshirish maqsadidagi moliyalashtirish operatsiyalari bilan bog'liq tahdid-tavakkalchiliklarni kamaytiradi, ishni tashkil etishning ochiq-oshkorligini ta'minlaydi. Bunday baholash tashkilotni va uning xodimlarini kreditlar berish va ularning vaqtida qaytarilishi uchun javobgarlikka tortish tahdidi va tavakkalchiliklarni kamaytirishi ham bag'oyat muhimdir.

Bugungi kunda O'zbekistondagi tijorat banklari skoring tizimlari chakana kreditlashni rivojlantirishning zarur va kerakli vositasi ekanligini tushuna boshladilar. Banklarga xizmat ko'rsatishning amaldagi tizimi kredit so'rالgan ariza-buyurtmalarni ishlovdan o'tkazish uchun ancha vaqt talab qiladi. Ssuda so'rovchisining kredit layoqatini baholashni "qo'l bola" amaliyoti va kredit buyurtmalarini banklarning kredit qo'mitalari tomonidan ma'qullash tajribasi o'z ichiga chakana kreditlashni ham oladigan moliyaviy mahsulotlar ko'payib borishi bilan o'z vazifasini uddalay olmay qolyapti.

Ba'zi banklar iste'mol kreditlari berishda skoring-kalkulyator deb yuritiladigan usulni ham qo'llamoqdalar. Veb-saytda skoring-jadvalni to'ldirib, qarz olishning dastlabki bahosi va ehtimolini bilish, boshqacha qilib aytganda, iste'mol krediti berish yuzasidan skoring-tahlildan o'tish mumkin.

Ammo ana shunday hollarda ham gap sub'ektiv skoring haqida boradi, binobarin kredit berish har bir kreditga doir buyurtma-ariza kredit xodimi tomonidan va bankning kredit qo'mitasi tomonidan individual tarzda tahlil etish yo'li bilan amalgalashiriladi.

Shu sababli ham, statistika skoringiga o'tish maqsadga muvofiq ko'rindi. Bunday skoringni moliya tashkilotlarigina emas, balki kredit byurolari ham o'tkazishlari mumkin. Hamma-hammasi ularning ma'lumotlar bazasiga, vakolat doirasiga va bozordagi strategiyaga bog'liq.

Kredit byuolarining skoring tizimlari banklar, mikromoliya tashkilotlari va lizing kompaniyalari uchun eng «haridorgir», talab katta bo'lgan mahsulotlardan biridir. Chunki bu ma'lumotlar asosida banklar ham va boshqa nobank tashkilotlari ham o'z bo'lajak qarz oluvchilari to'g'risida to'liqroq axborotlarga ega bo'ladilar.

Xalqaro tajriba shundan shohidlik beradiki, O'zbekistonda statistika skoringini joriy etish va kreditlash jarayonini avtomatlashtirish moliyalashtirishning daromadlilagini va hajmini oshirish, ayni bir vaqtida operatsiyalar bilan bog'liq harajatlarni anchagina qisqartirish, muammosi bo'lgan qarzdorlar sonini kamaytirish va kredit portfeli sifatini yaxshilash imkonini beradi.

## **2.5. Bankda moliyaviy texnologiyalarni joriy etish, ularni moliyalashtirish va ulardan foydalanishdagi muammolar**

Bank muhitiga joriy etilgan raqamli texnologiyalar “raqamlashtirish” orqali ko'rsatilayotgan bank xizmatlarining butun majmuasini qamrab oladi. Shunday qilib, jahon bank tizimidagi ko'plab operatsiyalarning turlari nafaqat bank amaliyotida “raqamlashtirish”ga kirishdi, balki aholiga xizmat ko'rsatishning muqobil usullarini (fintex xizmatlari) ham qamrab ola boshladi.

Bir qator tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, dunyo bo'y lab an'anaviy bank xizmatlarini raqamli o'zgartirishning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardir:

Raqamli transformatsiyani birgalikda boshqaradigan asosiy texnologiya tendentsiyalari bulutli hisoblash, katta ma'lumotlar, blokcheyn texnologiyasi, narsalar interneti (IOT), biznes jarayonlarini avtomatlashtirish (Robotic process automation, RPA) va sun'iy intellekt (AI).

So'nggi paytlarda hind banklari ma'lumotlarni qayta ishslash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirish uchun AI va RPA kabi texnologiyalarga tobora ko'proq murojaat qilmoqdalar.


Demak, iqtisodiyotni raqamlashtirish va keyinchalik barcha sohalarni, jumladan, bank faoliyatini “raqamlashtirish” butun dunyo bo'y lab banklarning rivojlanishiga yangi kuchni olib keladi. Texnologik rivojlanish bank sektorida konsensusga aylandi. Internet, katta ma'lumotlar va boshqa texnologik innovatsiyalar bank tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Kelgusida muvaffaqiyat kaliti texnologiya yetakchiligidan unumli foydalanish va potentsial bozor to'lqinlarini yengish qobiliyati bo'ladi. Umuman olganda, texnologiya butun dunyo bo'y lab banklarning o'zgarishi va rivojlanishida keyingi asosiy rolni o'ynaydi.

Birinchidan, bank tizimining o'z tuzilishini yangilash va ma'lumotlar hajmining ortib borishidan foydalanishdir. Shunday qilib, bank tizimi bir necha yillar davomida ko'plab yangilanishlarni boshdan kechirdi. Tez texnologik rivojlanish fonida ko'pgina banklar doimiy o'zgarib turadigan shart-sharoitlar, qoidalar va joriy etilayotgan innovatsiyalarga javob bera olishi uchun yangi avlod bank tizimini yaratish masalasini ko'rib chiqsa boshladilar.

Shu bilan birga, katta ma'lumotlar texnologiyasining evolyutsiyasi banklarga ma'lumotlarni eng yuqori samaradorlik bilan boshqarish va ulardan foydalanish imkonini berdi va bu sohadagi eng muvaffaqiyatli banklar uchun bunday foydalanish eng yuqori afzalliliklarga aylandi.

Ikkinchidan, bo'limlarni va xizmat ko'rsatish kanallarini yangilashda muhim rol o'ynashi kerak. Bank filiallarini o'zgartirish muqarrar, chunki an'anaviy filial funktsiyalari aqli funktsiyalar bilan almashtiriladi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekiston bank tizimida ham mijozlarga xizmat ko'rsatishning innovations turlari ko'payib bormoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda plastik kartochkalar orqali to'lovlarni rivojlantirish, jumladan, “kredit kartalarini joriy etish” bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni yanada kengroq joriy etish borasida amalgalashirilgan ishlar ijobjiy samara bermoqda.



### **5-rasm - An'anaviy bank xizmatlarini raqamli o'zgartirishning global yo'nalishlari<sup>52</sup>...**

Ta'kidlash joizki, axborot-telekommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llagan holda naqd pulsiz pul o'tkazmalariga o'tish chog'ida ularning axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari keskin ko'tarilmoqda.

Mijozlarga taklif etilayotgan internet-banking xizmatlaridan foydalanishda, ayniqsa, ularga kirish joyida xavfsizlikka katta e'tibor qaratiladi. Xavfsizlik uchun bir martalik parollar keng qo'llaniladi. Bunda ko'plab aloqa vositalaridan foydalanish mumkin. Misol uchun, ba'zi banklar mobil telefonlarni taklif qilsa, boshqalari parolni tekshirish uchun maxsus qurilmalardan foydalanishi joriy qilgan.

Moliyaviy institutlar bozorga yangi bank mahsulotlarini jadallik bilan olib kirmoqda. Buning uchun onlayn muhit, Internet-banking juda mos keladi. Bu, o'z navbatida, bank biznesi uchun yangi axborot xavfsizligi risklarini keltirib chiqaradi. Tabiiyki, bu axborot xavfsizligi bilan bog'liq yangi yechimlarni ishlab chiqish va joriy etishni taqozo etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu tizim xavfsizligini elektron tarzda tasdiqlash uchun maxsus kalitlardan foydalilanadi va mijozlar ulardan o'z hisob raqamlariga kirish va to'lovlarni o'tkazishni tasdiqlash uchun foydalanaadilar. Uzcard milliy to'lov tizimi "To'lov kartalari sanoati ma'lumotlar xavfsizligi standarti" xalqaro xavfsizlik standartining 3.1 to'lov kartasi ma'lumotlarini qayta ishslash va yetkazib berish talablariga muvofiqligi bo'yicha CCA-sertifikatlash auditidan muvaffaqiyatli o'tdi. Muvofiqlik Compliance Control Ltd tomonidan o'tkaziladigan yillik -SSA auditni natijalari bilan tasdiqlangan.

Shu bilan birga, Protsessing markazining PCI-DSS standarti bo'yicha sertifikatlangani kelajakda turli xalqaro to'lov tizimlariga muammosiz ularish imkonini berishini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi ,irinchi Prezidentining 2010-yil 19-apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-son qaroriga asosan naqd pulsiz hisob-kitoblarni yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida, Markaziy bank, O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi va Yagona milliy protsessing markazi (YaMM) "Uzcard" banklararo to'lov tizimida ishtiroy etuvchi tijorat banklari bilan birgalikda onlayn rejimda ishlaydigan yangi texnologik platforma – Smart-Vista EMV ni ishga tushirdi.

2020-yil fevral oyidan boshlab, jumladan, elektron pul va to'lov tizimlaridan foydalanishi tartibga soluvchi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni kuchga kirdi. O'zbekistonda elektron pullar bir xil miqdorda, faqat uning muomalasi elektron tizimda amalga oshiriladi. Ulardan yakka tartibdag'i tadbirkorlar va yuridik shaxslardan – tizim sub'ektlaridan tovar va xizmatlar sotib olishda foydalanish mumkin. Ular uchun ekvivalent summani bankning joriy

<sup>52</sup>Ковалев М.М. Цифровая трансформация банков / / Банковский вестник, Листапад. - 2018.- № 1. 50-60 стр

hisobvaraqlariga keyinroq o'tkazish maqsadida sotilgan tovarlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun elektron valyutani qabul qiluvchi maxsus elektron hamyonlar shakllantiriladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda uchta shunday tizim mavjud – ular Click, Payme va Oson to'lov tashkilotlari tomonidan yaratilgan. Birinchisi, Oson elektron pul tizimini ro'yxatdan o'tkazgan Brio Group edi. Bunda "Turkiston" XATB elektron pul tizimining emitentiga aylandi. 2020-yil avgust oyida MChJ Inspired (E-Card) va MChJ Slick (Slick) o'zlarining elektron pul tizimlarini ro'yxatdan o'tkazdilar. Emitentlar mos ravishda AKB Universal va AKB Agrobank edi. Hozirda Slick tizimida 500 mingga yaqin, Osonda 140 mingdan ortiq, Paymeda 100 mingdan ortiq hamyon yaratilgan.<sup>53</sup>

O'zbekiston iste'molchilari elektron pullarni saqlaydigan virtual hamyonlar asosan bank kartasi bo'limgan, lekin elektron to'lovlardan foydalanishni xohlovchilar uchun mo'ljallanganligini bilishlari muhim. Biroq, bunday hamyonlarning imkoniyatlari klassik plastik kartalar bilan solishtirganda cheklangan va to'liq elektron hamyonlar hali kartalarni almashtirishga qodir emas. Ulardan barcha do'konlarda, yoqilg'i quyish shoxobchalarida, dorixonalarda yoki boshqa savdo va xizmat ko'rsatish korxonalarida emas, balki faqat kontaktsiz to'lov qabul qilinadigan joylarda (masalan, QR kod yordamida) foydalanish mumkin. Bundan tashqari, hali bankomatda elektron hamyondan naqd pul ham yechib bo'lmaydi.

Biroq, elektron muomalaning kengayishi kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tiborni qaratmoqda. ESYeT xalqaro antivirus dasturiy ta'minot ishlab chiqaruvchisining 2019-yilda O'zbekistondagi kompaniyalarning AT-direktorlari o'rtasida o'tkazgan so'rovi natijalariga ko'ra, mamlakatdagi kompaniyalarning 55 foizi ichki, 72 foizi esa tashqi kiber tahdidlarga duch kelgani ma'lum bo'ldi. Masalan, spam va zararli dasturlar eng keng tarqalgan kiber tahdidlarga aylandi. Shuningdek, respondentlarning 18 foizi o'z kompaniyalari tasodifiy ma'lumotlarning sizib chiqishidan, 10 foizi esa qasddan ma'lumotlarning sizib chiqishidan aziyat chekishini bildirgan. O'zbekistondagi eng yirik tadbirkorlar moliyaviy ma'lumotlarga e'tibor berishadi: kompaniyalarning 75 foizi ular kiber tahdidlardan alohida himoyaga muhtojligini ta'kidlagan, 48 foizi operatsion faoliyat haqidagi ma'lumotlarni, 45 foizi - hamkorlar va mijozlar haqidagi ma'lumotlarni,<sup>54</sup>

Qayd etish joizki, raqamli iqtisodiyot va elektron pullarning eng ilg'or texnologiyalari O'zbekistonda bundan keyin ham paydo bo'ladi va rivojlanadi. Buning uchun qonunchilik darajasida ham, aloqa darajasida ham amalda barcha sharoitlar mavjud. Albatta, raqamlashtirishga qarab tanlangan rivojlanish vektorida asosiy e'tibor kiberxavfsizlikni ta'minlash, ma'lumotlar markazlari uchun Big Datani saqlash va hisoblash uskunalarining uzuksiz ishlashini ta'minlash imkoniyatlarini yaratishga qaratilishi kerak, shuningdek, hali aholining bilim darajasini oshirish, AT-texnologiyalari xizmatlaridan foydalanish uchun ko'p ish qilinishi kerak.

Ayniqsa, tadbirkorlar zamonaviy savdo voqeliklariga dinamik moslashishlari uchun raqamli texnologiyalarni o'z bizneslariga tezda integratsiya qilishlari muhim. Raqamli iqtisodiyot rivojiga hamroh bo'lgan kiberxavfsizlik omiliga alohida e'tibor qaratish va ushbu sohaga oldindan investitsiya kiritish zarur, chunki kelajakda raqamli iqtisodiyot va raqamli bank sektorini rivojlantirishda kibertahhidlardan himoya qilish masalasi eng muhim masalaga aylanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonini boshlamagan banklar endi bir necha yil ichida ortda qolish xavfi bor.

Boshqa tomondan, mamlakatda infratuzilmaviy muammolar mavjud bo'lib, ular banklarni tez sur'atlarda raqamlashtirishga imkon bermaydi. Xususan, bu internet va smartfonlarning kirib borishining past darajasi.

Qattiy, shuningdek, mobil va statsionar Internet narxi elektron tijorat rivojlanishining asosiy to'xtatuvchi omillari hisoblanadi. Smartfonning 40-45% ga kirishi ham kuchli cheklovdir.

Raqamli bankingning asosiy xususiyati mijozning jismoniy ishtirokisiz bank hisobini ochish imkoniyatidir. Hozirda, O'zbekiston banklarida bunday imkoniyat yo'q, biroq me'yoriy hujjalardagi o'zgartirishlar mijozlarga yaqin kelajakda, ehtimol joriy yil oxirigacha masofadan hisobvaraq ochish imkonini beradi.

<sup>53</sup> Raqamli O'zbekiston: maqsadlar, vazifalar, istiqbollar (<https://mitc.uz/ru/news/view/3011>)

<sup>54</sup> O'sha yerga qaralsin.

Mutaxassislar kelgusi yilda bank sektorida kuchli o'zgarishlar bo'lishini bashorat qilmoqda. Ularning fikriga ko'ra, bir yil ichida karta va kredit mahsulotlarini sotish bo'yicha menejerlar kabi kasblar faqat darsliklarda qoladi, chunki butun chakana biznes onlayn rejimga o'tadi.

Kommunal va bir martalik to'lovlar ilova orqali to'g'ridan-to'g'ri divanda, ipoteka - ishlab chiqaruvchilarda, avtokreditlar - dilerlardan, to'lov kartalari - chakana savdo tarmoqlarida amalga oshiriladi. Odamlar bank bilan aloqa markazlari, mobil platformalar va bankomatlar orqali ko'proq muloqot qilishadi.

Raqamlashtirish bank xodimlari va mijozlarining vaqt va resurslarini tejashga yordam beradi. Raqamlashtirish tufayli barcha operatsiyalar narxi keskin tushib ketdi, mijozlarga xizmatlar sifati va tezligidan mammun – chunki ularga har tomonidan faqat afzalliklar mavjud.

KPMG ekspertlarining fikricha, keyingi 10 yil ichida bank sektori o'tgan asrda o'zgarmagan ko'rinishini o'zgartiradi. To'lovlar va boshqa bank operatsiyalari bilan shug'ullana boshlagan o'yinchilar hisobiga bozor kengayib borayotgani muhim, garchi bu ular uchun asosiy biznes emas. Misol uchun, Apple, Google, Samsung kabi global texnologik korporatsiyalar allaqachon o'zlarining to'lov xizmatlariga ega.

Bu banklar kabi yirik va qiyin o'zgaradigan tuzilmalarni yanada moslashuvchan, mijozlarga yo'naltirilgan bo'lishga majbur qiladi.

Yaqin kelajakda mamlakat fuqarolari ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida – ta'lim va tibbiyotdan tortib tadbirdorlik va savdogacha joriy etilgan raqamli texnologiyalar tufayli o'zlar ega bo'ladigan barcha qulayliklarni to'la qadrlashlari mumkin bo'ladi.

Ammo hayotimizga yangi raqamli voqelik kirib kelayotgani munosabati bilan aholi, ayniqsa, keksalar va raqamli texnologiyalardan bexabar fuqarolarning bilim darajasini oshirishga doimiy ravishda bosqichma-bosqich tushuntirishlar mahorat darslari o'tkazish va bosma qo'llanmalarini tarqatish orqali alohida e'tibor qaratish lozim.

Raqamlashtirish korporativ vositadir. Iqtisodiyotning raqamli yo'nalishga o'tishi qiymat zanjirining har bir bosqichida raqamli ma'lumotlarning mavjudligini va ushbu ma'lumotlarning ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar o'rtasida erkin harakatlanishini ta'minlaydigan jarayonlarni nazarda tutadi.

Bu holatda davlatning asosiy vazifasi bunday o'zaro ta'sir uchun ekotizimni ta'minlashdan iborat bo'lib, tashkilotlarning roli bugungi kunda tegishli raqamli strategiyani talab qiladigan globallashuv va buzuvchi texnologiyalar haqiqatlariga mustaqil ravishda moslashishdir.

Raqamli strategiyani ishlab chiqish murakkab jarayon bo'lib, bank xizmatlarining butun zanjirini alohida va umuman qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Bu ko'rsatish uchun hujjat sifatida emas, balki omon qolish kafolati sifatida qabul qilinishi kerak.

Raqamli transformatsiya yo'lida ko'plab xorijiy tashkilotlar ichki innovatsion inkubatorlar amaliyotidan foydalanadi, ularda raqamlashtirish bilan ishlash bo'yicha maxsus bo'linmalar tashkil etiladi. Eng yaxshi natijalarga innovatsion faoliyat boshqaruvni qo'llab-quvvatlash, rivojlangan innovatsion madaniyat va xodimlarning rivojlanish istagi bilan bog'liq bo'lgan kompaniyalar erishadilar.

O'zbekistonda elektron hujjat aylanishi tizimini (E-Hujjat), ya'ni raqamlashtirishni joriy etish jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Keyingi qadam - raqamli ma'lumotlarning ishlashini ta'minlash, ya'ni ularni tahlil qilish orqali biznesni rivojlantirish uchun yangi bo'shliqlarni topish va nihoyat, kompaniyalarni o'zgartirish uchun biznes modellarini qayta ko'rib chiqishdan iboratdir.

Bugungi kunda ko'plab banklar mavjud, lekin ularda "puldan pul" qilish qiyin bo'lib qoldi, shuning uchun savol tug'iladi: qanday farqlash kerak? Bunday raqobatli kurashda faqat ertangi kun mijozini o'ylaydigan va tegishli mahsulotlarni yaratishga qodir banklarga g'alaba qozonishi mumkin.

Banklarda joriy etilayotgan AKT tizimlarining aksariyati o'z mohiyatiga ko'ra monolitdir, ya'ni tizimning bir qismidagi o'zgarishlar butun tizimda o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda qisqa vaqt ichida yangi mahsulotlarni bozorga olib chiqish qiyin.


Shu sababli, ko'plab tashkilotlar umumiy tizimga osongina integratsiya qilinadigan va avtonom tarzda ishlashi mumkin bo'lган dasturiy mahsulotlarni yaratish uchun mikroservislar yoki konteyner texnologiyalaridan foydalanishga o'tmoqda.

Hamma narsani noldan qayta tikelmaslik va eski axborot tizimlari yangilari bilan vaqtincha birga mavjud bo'lmaslik uchun ba'zilari ikki bosqichli AKT arxitekturasini joriy qilmoqdalar. Klassik yondashuv barqarorlik va xavfsizlikka e'tibor qaratadi, moslashuvchan (Agile) muqobil esa tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezda moslashish imkonini beradi.

Yangi raqamli, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni muvaffaqiyatlari ishga tushirish mijozlarning muhim massasiga tezkor kirishni talab qiladi. Shunday qilib, O'zbekistonda mijozlar soni ortib borayotgan tarmoqlardan biri bu elektron tijoratdir.

O'zbekiston texnik va dasturiy ta'minotni modernizatsiya qilishga investitsiyalarga muhtoj. Ammo eng yangi texnologiyaning o'zi mahsulotga qiymat qo'shmaydi. Ular eng muhim joyda ishlatilishi kerak. Bu tegishli ko'nikmalarga ega bo'lgan xodimlarni talab qiladi.

Ammo tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq taqsimlashni, ma'lumotlardan foydalanish uchun javobgarlikni yoki investitsiya xavfsizligi kafolatlarini ta'minlaydigan qonunchilik bazasi mavjud bo'lmaguncha, na iste'dod, na texnologiya raqamli yutuqni kafolathlamaydi.



#### **6-rasm. Iqtisodiy transformatsiya sharoitida raqamlashtirish vositalari.<sup>55</sup>**

Taklif etilayotgan yondashuv ushbu xizmatlarni inventarizatsiya qilish va ularning raqamli iqtisodiyotga mosligini tekshirishdan iborat. Va qaerda bo'shliq bo'lsa, bunday bo'shliqqa javobni ishlab chiqish va amalga oshirish qancha turadi va u qancha foya keltirishini hisoblash zarur.

Umuman olganda, bank sektorining rivojlanishi ko'p jihatdan hukumatning valyutani liberallashtirish, byurokratik tartib-qoidalarni o'zgartirish va tartibga solishning shaffofligi bo'yicha obro'siga bog'liq bo'ladi.

Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, aytishimiz mumkinki, mamlakatimizdagi xorijiy banklar ularga nisbatan noodatiy tartib-qoidalarni yirikroq o'yinchilarining kuchli pozitsiyasi tufayli yaqin keljakda hali sezilarli bozor ulushini egallab ololmaydi.

Boshqa tomondan, bank xizmatlari bozorini izchil liberallashtirish xorijiy banklarning mahalliy bozorga kirishi O'zbekiston banklarining raqobatbardoshligini sinab ko'rish imkoniyatini yaratishga olib keladi.

Hozirgacha bunday sakrashning eng istiqbolli xarakatlantiruvchi kuchi bu xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradigan yoki daromadlar keskin oshib ketadigan mijozlar soniga yetib boradigan buzuvchi texnologiyalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlardir.

Raqamli strategiya va transformatsiya bir necha yil davom etishini va bank bozorida xorijiy raqobatchilar soni kamiligini hisobga olsak, endi banklar bunday o'zgarishlarga qanday tayyorlanish va moslashish haqida har qachongidan ham ko'proq o'ylashlari kerak.

<sup>55</sup> Raqamli O'zbekiston: maqsadlar, vazifalar, istiqbollar (<https://mitc.uz/ru/news/view/3011>)

Axborot globallashuvining jahon miqyosidagi jarayonlari nafaqat mamlakatlar iqtisodiyoti va hayot sohalariga AKTni keng joriy etish zaruriyatini, balki axborot tizimlari xavfsizligini ta'minlash shartlarini ham taqozo etmoqda. O'zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xalqaro xavfsizlik tizimiga qo'shildi. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2,2 foizni tashkil etmoqda. 2023 yilgacha uni ikki barobarga oshirish, 2022 yilgacha elektron davlat xizmatlari ulushini 60 foizga yetkazish rejalashtirilgan.<sup>56</sup>

O'zbekiston raqamlashtirish davriga ishonch bilan qadam qo'ydi, buni hukumatning internet tezligi va sifatini oshirishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini mamlakat hayotining barcha jabhalariga keng joriy etishga qaratilgan bosqichma-bosqich amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlikni ta'minlash, potentsial kiberhujumlardan himoyalanish, O'zbekiston Respublikasi axborotlashtirish obektlari va muhim axborot infratuzilmalarining uzlusiz ishlashini ta'minlash bo'yicha qator vazifalarni hal etish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda internet tarmog'ining milliy segmentida sodir bo'layotgan voqealar monitoringi, kiberxavfsizlik tahdidlari va hodisalarining oldini olish va ularga javob berish ishlari olib borilmoqda.

"Uz" domen zonasiga veb-saytlari nisbatan sodir etilgan kiberxavfsizlik intsyidentlari monitoringi natijalariga ko'ra 342 ta hodisa qayd etilgan bo'lib, ulardan eng ko'pi – 306 tasi kontentni ruxsatsiz yuklab olish (NZK) bilan bog'liq bo'lган.

2019 yil bilan taqqoslaganda, veb-kontentni ruxsatsiz yuklab olish bilan bog'liq hodisalar sonining o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Xakerlik hujumlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy sabablari va usullari quyidagilardir: hisob parollariga shafqatsiz hujum, kontentni boshqarish tizimining eskirgan yoki zaif versiyasi (CM\$), eskirgan plaginlar<sup>57</sup>.

2019-yil 1-oktyabrdan "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi. Shubhasiz, bu shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha uzoq yo'lning boshlanishi.

Bir narsani aniq bashorat qilish mumkin – O'zbekistonda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda raqamli texnologiyalarning yuqori integratsiyalashuvi darajasi bo'yicha Markaziy Osiyoda yetakchi o'rnlardan birini egallash uchun barcha imkoniyatlar mayjud, bu esa aholining kundalik va moliyaviy hayotini osonlashtirish va yaxshilash, shuningdek, shubhasiz mamlakatning investitsiya jozibadorligini oshiradi.

### Nazorat uchun savollar:

1. Bank kreditining iqtisodiyotdagagi o'rnini tushuntirib bering.
2. Bank krediti tushunchasini aytинг.
3. Bank kredit operatsiyasini o'ziga xos xususiyatlari nimada?
4. Bank daromadlari nima va u qanday tashkil topadi?
5. Bank xarajatlari nima va u qanday tashkil topadi?
6. Bank foydasi nima va u qanday tashkil topadi?
7. Operatsion xarajat nima?
8. Foiz marjasiga qanday aniqlanadi?
9. Bank ekotizimlari tushunchasi va ularning tasnifini keltiring.
10. O'zbekiston tijorat banklarida bank ekotizimlarini yaratish xususiyatlari nimalardan iborat?
11. O'zbekistonning amaldagi bank tizimiga yangi moliyaviy texnologiyalarni integratsiyalashuvi qanday holatda?
12. Bank ekotizimlarini rivojlantirish istiqbollari nimalarda o'z aksini topgan?
13. Bank ekotizimlarning raqamli iqtisodiyotdagagi faoliyatini baholang.

<sup>56</sup> 2020-21 yillar uchun mamlakatda kiberxavfsizlik holatining qisqacha sharhi.

<sup>57</sup> O'sha yerga qaralsin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

#### **Maxsus adabiyotlar**

1. “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son.
2. Lending / Chartered Institute of Bankers. - London: BPP Publishing, 2003. ISBN 0-7517-1015-6
3. Monetar siyosatning 2019 yil va 2020–2021 yillar davriga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlari.
4. Sh. Z. Abdullayeva, U.O’.Azizov. Bank ishi. Darslik. Toshkent-2018. 1024b.
5. Adner, R. Innovatsion strategiyangizni innovatsion ekotizimingizga moslang / R. Adner // Garvard Business Review. - 2006. - jild. 84, № 4. - B. 98–107.
6. Ayres, R. Hayotiy aylanish metaforasi to‘g‘risida: Ekologiya va iqtisod bir-biridan ajralib turadigan joyda / R. Ayres // Ekologik iqtisod. - 2004. - № 48. - B. 425-438.
7. Autio E., Tomas LDW Innovatsion ekotizimlar: Innovatsiyalarni boshqarish uchun oqibatlari. Dodgson M., Gann DM, Pillips N., tahrirlar. Oksford innovatsiyalarni boshqarish bo‘yicha qo’llanma. Oksford, Oksford universiteti nashriyoti, 2014 yil.
8. Kovalev M.M. Sifrovaya transformatsiya bankov // Bankovskiy vestnik, Listapad. - 2018.- № 1. 50-60 str
9. Quvvat, T. Ekotizim: Tarmoqli biznesning 12 tamoyili asosida yashash / T. Power, G. Jerjian. –Pearson Education Ltd., 2001. - 289 b.
10. Lavrushin O.I. Bankovskoe delo. Uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2009. – 352 str.
11. Larionova I.V. Upravlenie aktivami i passivami v kommercheskom banke. –M.: «Konsaltbankir» 2003.
12. Sedix I. A. Innovatsion moliyaviy texnologiyalar va xizmatlar bozori. Milliy tadqiqot universiteti Iqtisodiyot oliy maktabi. Rivojlanish markazi. 2019 yil dekabr
13. Sheresheva M.Yu. Formы setevogo vzaimodeystviya kompaniy [Kompaniyalar tarmog‘i hamkorlik shakllari]. Moskva, Izdatelskiy Dom Gos universiteti - Vysshaya shkola ekonomiki, 2010.340 b.
14. Yakobides, M. Ekotizimlar nazariyasi tomon / M. Jacobides, C. Cennamo, A. Gawer // Strategik boshqaruv jurnalı. - 2018. - jild. 39, iss. 8. –P. 2255-2276.

### **Internet resurslari**

1. www.cbu.uz. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yildagi faoliyati to‘g‘risida hisoboti. Toshkent 2023.
2. [https://mitc.uz/ru/news/view/3011-Raqamli O'zbekiston: maqsadlar, vazifalar, istiqbollar](https://mitc.uz/ru/news/view/3011-Raqamli_O'zbekiston_maqsadlar_vazifalar_istiqbollar)

### **3-MAVZU: Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar.**

#### **Reja:**

3.1 Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar

3.2 Bank tizimida to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar;

3.3 Xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalari va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolar;

#### **❖ Tayanch iboralar:**

Bank strukturasi, bank depozitlari, ssudalar, bank vakolatxonasi, bank bo'limi, Savdo yeksperti kompaniyalari, Xalqaro bank shahobchalar tizimi, Qo'shma korxonalar, chet yel valyutasi, mahalliy jamlanma hisobraqamlar, universal banklar, ixtisoslashgan banklar, Markaziy bank, Yevropa Ittifoqi umumiy Standarti, bank mahsuloti, bank xizmati, kredit operatsiyalari, kredit munosabatlari.

#### **3.1 Xalqaro globallashuv va milliy bank-moliya tizimi o'rtasida raqobat muhitining shakllanishi jarayonlarida vujudga kelayotgan muammolar**

O'zbekiston Respublikasining zamonaviy bank tizimi xalqaro bank amaliyoti an'analariga mos ravishda shakllantirilgan. U mamlakat milliy iqtisodiyoti faoliyatida muhim o'rinn egallaydi. Chunki, bank tizimi vositasida pul kapitalining tarmoqlararo taqsimoti amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining bank tizimi mustaqillikka erishgandan so'ng shakllantirildi. Ushbu jarayonning ajralib turuvchi ahamiyatli tomoni shundan iboratki, unda tijorat banklarining paydo bo'lishi bilan birga turli mulkchilik shaklida tashkil etilganligi o'ziga xos xususiyatga ega. Jumladan, tijorat banklari kapitalining shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilayotgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakatimizda bank kapitalining boshlang'ich jamg'arilishi jarayonida byudjet mablag'lari, markazlashtirilgan ssudalar, davlat kafolatlari, xukumat dasturlari orqali moliyalashtirish kabi arzon resurslar manba bo'lib xizmat qilgan.

Hozirda mamlakatimizda bank tizimini isloq qilish iqtisodiy islohotlarning muhim, ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanganligi tufayli respublikamiz iqtisodiyotining boshqa tarmoqlarida bo'lgani kabi, bank – moliya tizimida ham sezilarli ijobji natijalarga erishildi. Lekin, shu bilan birga, bozor munosabatlarining tobora takomillashib borayotganligi barobarida, bank – moliya tizimida sog'lom raqobat muhitini kuchayishi, o'z navbatida, bu sohada olib borilayotgan islohotlarning yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish, shuningdek, tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish hamda investitsion jarayonlardagi ishtirokini faollashtirishni taqazo etmoqda.

Milliy bank tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarida yangi bank xizmatlari turlarini yaratish, ularni amaliyotga kiritish, mavjud bank xizmat turlarining sifat darajasini oshirishga to'siq bo'layotgan ayrim muammolar mavjudligiga ishonch hosil qilish mumkin. Bu muammolarni guruhlarga ajratish mumkin:

1. Tijorat banklarida bank xizmatlari bozorini segmentlashda tajribani yetishmasligi;
2. Tijorat banklari va mijozlar o'rtasidagi kommunikatsiyaning ayrim hududlarda «uzilib» qolganligi;
3. Zamonaviy bank xizmatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga kiritish uchun zarur infratuzilmaning yetishmasligi;
4. Tijorat banklarida bank xizmatlarini ko'rsatishda asosiy e'tiborni baho siyosatiga qaratilayotganligi.

Tijorat banklarida bank xizmatlari bozorining segmentlashda tajribani yetishmasligi muammosi. Tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, mamlakatimizdagi aksariyat banklarida asosiy e'tibor tajribadan o'tgan va qaltisligi kam bo'lgan bank xizmatlariga ajratiladi. Masalan, deyarli barcha tijorat banklari asosan qisqa muddatli iste'mol kreditlari bilan cheklanishgan. Bank xizmatlari bozorida mohiyatan yangi hisoblangan faktoring va lizing operatsiyalariga umuman e'tibor

qaratilmagan. Mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari o'zlarining marketing faoliyatini ishlab chiqishda ichki tashabbusdan emas, yuqorida keladigan topshiriqlarga asosiy e'tiborni qaratmoqdalar. Jumladan, uzoq yillar davomida saqlanib kelinayotgan kapitallashuv darajasini pastligi faqatgina O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi investitsiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilingandan keyingina ijobiy hal etila boshladi. Tijorat banklari tomonidan ipoteka kredit berishning rivojlanishi esa faqat, Prezidentning «Uy – joy qurilishi va uy – joy bozorini yanada rivojlanish chora – tadbirlari to'g'risida»gi Farmonidan so'ng yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan muomalaga plastik kartochkalar chiqarish sohasida ham xuddi shunday ahvolligini guvohi bo'lamiz. Bundan tashqari mamlakatimizdagi tijorat banklarining kredit, depozit siyosatlari deyarli bir – biridan farq qilmaydi. Marketing izlanishlari ham deyarli bir hil yo'naliishda olib borilmoqda.

Ma'lumki, elektron to'lov tizimining joriy etilishi bilan respublikamizdagi tijorat banklari tomonidan naqd pulsiz hisob – kitoblarning zamonaviy turi bo'lgan plastik kartochkalar orqali hisob – kitoblar keng yo'lga qo'yila boshladi. Albatta, tijorat banklari tomonidan muomalaga plastik kartochkalar chiqarish faoliyati yaxshi yo'lga qo'yilgan. Lekin plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish darajasi esa nisbatan past. Jumladan, plastik kartochkalar orqali bankomatlardagi naqd pul olishda muammolar mavjud. Bunda asosiy muammo tijorat banklaridagi bankomatlar sonida emas, balki mavjud bankomatlarni naqd pul bilan ta'minlashdadir. Ushbu holat ham tijorat banklariga mijozlar tomonidan bo'lgan ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlarini ishlab chiqish va uni amaliyotga kiritish uchun zarur infratuzilmaning yetishmasligi muammosi. Xalqaro bank amaliyoti shundan dalolat beradiki, bank faoliyatini globallashuvini tezlashtiruvchi omil bo'lib, yangi texnologiyalar hisoblanadi. Chunki, xozirgi zamon texnologiyalari tijorat banklari tomonidan o'z mijozlariga dunyoning turli joylarida ham xizmat ko'rsatishiga imkoniyat yaratadi. Xozirgi zamon texnologiyalaridan biri bo'lib SWIFT (inglizcha SWIFT – Society for Word – Wide Interbank Financial Telecommunications, yoki ruscha SVMFT – soobhestvo vsemirno'x mejbankovskix finansovo'x telekommunikatsiy) tizimi hisoblanadi<sup>58</sup>. 1977 yildan ishga tushgan ushbu tizim tijorat banklariga xalqaro hisob – kitoblar olib borishda tezkor, samarador, konfedentsial hamda himoya qilingan xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Xozirgi vaqtida dunyodagi tijorat banklarining amalga oshirayotgan xalqaro hisob – kitoblarning 80,0 foizidan ortiq SWIFT orqali amalga oshirilmoqda. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklarining ayrimlaridagina SWIFT tizimi mavjud. Ushbu omil esa SWIFT tizimi mavjud bo'limgan tijorat banklarining mavquiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy texnologiyalardan hisoblangan «Internet banking» va «SMS banking» ham hozirgi zamon texnikalarini talab etadi. Faqatgina zarur texnikaga ega bo'lgan tijorat banklarigina ushbu tizimlarni amaliyotga kiritishmoqda.

Tijorat banklarida bank xizmatlarini ko'rsatishda asosiy e'tiborni baho siyosatiga qaratilayotganligini muammosi. Ushbu muammo hozirda tijorat banklarining kredit va depozit siyosatini olib borish bilan bevosita bog'liqidir. Har bir tijorat banki mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jixatlarni hisobga olgan holda o'z kredit siyosatini shakllantirishi faoliyatning muhim tomoni hisoblanadi.

Bunda tijorat banklarining turli omillarga, bank xizmatlari bozori kon'yukturasiga va tijorat banking moliyaviy holatiga qarab turli maqsadlari bo'lishi mumkin. Amaliyotda bahoni shakllantirish usullari orasida keng tarqaganidan biri, raqobatni inobatga olgan holda aniqlanadigan usulidir. Bahoning xarajatlar asosida aniqlanish usuli respublikamizda asosan yirik tijorat banklari tomonidan qo'llanilmoqda, lekin, ushbu usuldan tijorat banking kredit operatsiyalari bo'yicha chiqimlar va xarajatlari aniq bo'lгandagina foydalanish mumkin. Hozirgi paytda, ko'p tijorat banklari kreditlar berishda va boshqa xizmatlarni ko'rsatayotganda aynan ushbu jarayonga alohida e'tibor bermagan holda sodda yo'llar bilan aniqlashmoqda. Ushbu omillar esa tijorat banklarida asosiy bank

<sup>58</sup> Финансы, деньги, кредиту учеб.под.ред.доц О.В Соколовой. –М.: «Юристъ» 2001. 202 6

xizmatlari bahosi optimal darajada emasligidan dalolat beradi. Bunga asosiy sabablar fikrimizcha quyidagilar hisoblanadi:

- tijorat banklari o'zlarining xarajatlari to'g'risida yetarlicha ma'lumotga ega emas va bozorda shakllangan baholarga qarab baho siyosatini olib bormoqdalar;
- tijorat banklarida alohida mijozlarga bo'lgan qiziqishining sustligi;
- taklif qilinayotgan kredit foizlarining haqiqatdan foiz stavkalariga mos kelmasligi;
- turli ichki va tashqi sabablarga asosan berilgan kreditlarning qaytarmaslik qaltisligini yuqori darajada mavjudlik va berilgan kreditlarning ta'minoti hajmi hamda turining xar hilligini mavjudligi.

Banklararo raqobat shaoitlarida eng asosiy e'tiborga ega masalalaridan biri, bank xizmatlari bozorida baho siyosatini to'g'ri tanlashdan iboratdir. Bu borada tijorat banklari va uning mijozlari teng manfaatdor bo'lishi lozim. Shunday ekan, yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda bank xizmatlari bahosini, unga ta'sir etuvchi barcha omillarni o'rghanishda marketingning ahamiyati ortib boradi.

Tijorat banklari xodimlari tarkibida marketing sohasidagi yuqori malakali mutaxassislarining yetishmasligi muammosi. Dunyodagi yetakchi xalqaro banklarining raqobat quvvatining manbalarini keltiramiz. Ushbu manbalar quyidagilardan iborat:

1. Kapitalning yetarlilik darajasi. Har bir mamlakatda nazoratchi organlar tomonidan kapitallashuv darajasiga bo'lgan talablarini o'zgartirib turishi natijasida kapitallashuv darajasi past tijorat banklarining faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin;

2. Aktivlarning sifati. Sifati past darajadagi tijorat banklari bank xizmatlari bozorida kuchli raqobatga bardosh bera olmaydi;

3. Inson resurslari, tijorat banklarining boshqaruvining malakaliligi, tadbirkorligi va kerakli ma'lumotga egaligi ularning bank xizmatlari bozorida oqilona va samarador faoliyat olib borishga imkoniyat yaratadi;

4. Ma'lumotlar, bank biznesining xususiyati juda boy ma'lumotga ega bo'lishdir. To'plagan mavjud ma'lumotlardan to'g'ri va kerakli vaqtida foydalana olishlik qobiliyati bank faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;

5. Moliyaviy innovatsiyalar. Innovatsiya inson kapitalining funktsiyalari, texnologiyalar, bozorning holati, tijorat bankini tartibga solib turish va korporativ madaniyatidan iborat;

6. Texnologiya. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, undan foydalana bilishlik bank xizmatlarini sifat darajasini oshirish va ular bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilishga imkoniyat yaratadi;

7. Franshiza. Nomoddiy, lekin juda muhim ahamiyatga ega aktivning turi hisoblanadi. Uning bahosi bankning tashkil topgani, moliya bozorida rivojlanish tarixi, taklif etayotgan xizmatlari va tijorat bankning mavqeい hamda raqobatbardoshlikka bog'liq. Franshizaning bahosiga tijorat banklarining filiallari va mijozlar bazasi ham ta'sir ko'rsatadi.<sup>1</sup>

Mamlakatimiz tijorat banklarida marketingning tashkil etishdagi muammolar tarkibida kapitalning yetarliligi darajasi, aktivlarning sifati, ma'lumotlar bazasi, zamonaviy texnologiyalarni ta'kidlab o'tdik. Fikrimizcha, ushbu yo'nalishdagi eng asosiy muammo bo'lib, tijorat banklarida xodimlarning malakasi va kasb – mahorati darajasi hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, AQShda Federal Zahira tizimi tomonidan tijorat banklarining faoliyatini baholashda foydalilanligan «CAMEL» testda ham asosiy e'tibor bank xodimlarining malakasi va tijorat banklarida menedjment hamda marketingni qay darajada tashkil etilganligiga alohida e'tibor beriladi<sup>59</sup>.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ravnaci uchun mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga talab beradigan moliya institutlari, bank – moliya infratuzilmasini yaratish va uning samarali ishlashi uchun salohiyati yuksak, bilimi chuqur, jahondagi ilg'or tajribani o'ziga singdirgan va uni ijobiy qo'llashga qodir bo'lgan mutaxassislarini tayyorlash yo'nalishida katta ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan kadrlar tayyorlash milliy dasturiga asoslangan kadrlar siyosati yuqoridagi vazifalarni bajarishga qaratilgandir. Xalqaro

<sup>59</sup> Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. Том I. Всемирный Банк. Вашингтон. Д.С. 1994. 20 б.

amaliyot shundan dalolat beradiki, tijorat banklarida mijozlar bilan barcha xodimlar o'rtasidagi muloqotning sifat darajasi asosiy e'tiborga ega.

Shu o'rinda, bank faoliyatini strategik rejalashtirishga alohida e'tibor qaratish joizdir. Strategik boshqarish inson salohiyatiga tayanib, ishlab chiqarish jarayonini iste'molchilar talablariga muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi, raqobatda ustunlikni ta'minlaydigan o'zgarishlarni o'z vaktida amalga oshiradi.

Strategik boshqarish tijorat banking ilg'or odimlar bilan rivojlanishi negizidir. Biroq, banklar bilan alokada bo'lган mijozlar va boshqa shaxs hamda korxonalarining ko'pchiligi uzoq faoliyat ko'rsata olmasligi, ularning ko'plari raqobatda sinib ketishi mumkinligini ham unutmaslik darkor. Shu sababli, bankning uzoq muddatli rivojlanishi - uning o'z vazifalarini sifatlari bajarishini, faoliyatidan o'zi va boshqa manfaatdor bo'lганlar, ya'ni mijozlar, hamkorlar va mulkdorlarning naf ko'rishini anglatadi.

Bank axborot tizimlarining barchasini fayl-server yoki mijoz-server texnologiyasi asosida ishlab chikilgan ikkita katta guruxga bo'lish mumkin. Mijoz-server texnologiyasi aslida andozaga aylanib kolgan. U axborot ishlash tezligining yuqoriligi, bu tezlik foydalanuvchilar soniga va ishlanadigan ma'lumotlar hajmiga uncha bog'lik emasligi; axborotni himoyalash imkoniyatlari rivojlanganligi, ma'lumotlarni tanlab olish va taxlil qilish jixatidan moslashuvchanligi kabi afzalliklariga ega. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, bunday texnologiyadan foydalanish kredit tashkilotining apparat-texnika jixatidan ta'minlanishiga, avvalo, ma'lumotlarni ishslashda ko'llanadigan server va tarmokli uskunalarga bog'lik. Mijoz-server tizimi afzalliklari bir vakting o'zida ishlaydigan ko'p sonli foydalanuvchilarning katta hajmli axborot bilan ishlay olishida namoyon bo'ladi.

Bank axborot texnologiyalari dasturiy ta'minotdan tashkari, bank operatsiyalarining axborot va apparat-texnika ta'minotiga oid vazifalarini ham hal qiladi. Shuningdek, axborot tizimini himoya qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni sanab o'tish mumkin:

- ❖ elektron imzoning ko'llanilishi;
- ❖ virusga karshi bazalarning muntazam ravishda o'zgartirib turish;
- ❖ serverlar resurslarini rejalashtirish va tarmokdagi kompyuterlar talablarini kuzatib borish;
- ❖ ayrim dasturiy mahsulotlarning muhofazasini ta'minlash;
- ❖ axborotlarning majburiy tartibda shifrlanishi;
- ❖ ma'lumotlarni yetkazish bo'yicha maxsus ajratilgan kanallardan foydalanish.

Xavfsizlikni ta'minlash muammosi fakat birgina texnika vositasi bilan xal kilinmaydi. Bu vazifani dasturiy-texnik va tashkiliy chora-tadbirlarning butun bir majmui yordamida hal etish mumkin. Bugungi kunda zamонавиъ axborot texnologiyalarining bank sohasiga tatbiq qilinishi nafakat iqtisodiy foyda keltiradi, balki bank operatsiyaini ko'rsatishda ko'p kulayliklar yaratadi.

Tijorat banklari faoliyatini rivojlantirishda asosiy masalalardan biri bo'lган likvidlilikni boshqarish maksadida:

- ❖ aktivlarni boshqarish orqali likvidlilikni ta'minlash;
- ❖ likvid mablag'lar talabini chetdan jalb kilingan mablag'lar xisobiga kondirish;
- ❖ likvidlikni boshqarishning balanslashtirilgan usuli kabi usullar ishlab chikilgan.

Mutaxassislarining fikricha, yuqoridagi usullardan tashkari, bankning likvid mablag'larga extiyoji va uni kondirishini baholashning asosiy usuli mavjud. U fond bozoridagi qoida va uni bajarish intizomiga asoslanadi. Ushbu usul bank raxbariyatini:

- a) axoli ishonchi;
- b) depozit sertifikatlari va boshqa karzlar bo'yicha xatarlar uchun mukofotlar;
- v) aktivlarning zarar bilan sotilishi;
- g) mijozlarning kreditga bo'lган talablarining kondirilishi singari bozor talablariga alohida e'tibor karatishga chorlaydi.

Ma'lumki, bank faoliyati samaradorligi arzon moliyaviy resurslarni jalb etib, aktiv operatsiyalarning to'g'ri va daromadli yunaltirilishiga asoslanadi. Bank shunday tashkil etilishi kerakki, unga ko'ra biznes komponentlar bo'yicha mas'uliyat bevosita aniq xodimlarga yuklanishi zarur. Bularidan ma'lum faoliyat turi bo'yicha zarur ma'lumotlar orqali strategik rejalashtirish amalg'a

oshiriladi. Shundan so'nggina, bank faoliyatining barqarorligini ta'minlash mumkin. Buning uchun tijorat banklari oldida kadrlarni tanlash, yangi innovatsiyalarni joriy etish kabi dolzarb muammolarni xal etish vazifasi mavjud bo'lib, bu o'z o'rniда bankning kelajak istikbolini ham belgilaydi.

Bozorning xar bir segmenti bir xildagi xizmatlarga talabi mavjud va bu xizmatlar uchun baxolar muayyan chegaralarida xak to'lashga tayer turgan iste'molchilar (mijozlar) guruxini anglatadi. Bozorni segmentlarga ajratishdan maqsad bankning faoliyatini bozorning hammasiga emas balki alohida segmentga karatish, faoliyat sifatini oshirish orqali raqobatda yutib chikishdir.

Ko'rsatib o'tilgan muammolarni hal etishga ko'maklashuvchi muhim yo'nalishlardan biri bank muassasalari faoliyatida marketing usullarini keng qo'llashdir.

Bu jarayon bank operatsiyalarini yaratish va rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Bank operatsiyalari bozorini rivojlantirish va uning faoliyati samaradorligini oshirish segmentlash ishlarini o'tkazish va maqsadli bozorlarni aniqlashni talab etadi.

Tijorat banklari faoliyatidagi asosiy mezon mijozlar ehtiyojlarini qondirishdan iborat bo'lib kelmoqda. Bank faoliyati odatda muntazam takrorlanib turadigan operatsiyalarga asoslanadi. Shuning uchun bankning maqsadi – mijozlar doirasini saqlab qolish va kengaytirish, uni uzoq vaqt mobaynida korxona va tashkilotlarga aylantirishdan iborat. Bank real ehtiyojlarni qondirishga intilishi, mijozga u juda ham muhtoj bo'lган operatsiyalarini taqdim etishga o'rganishi lozim.

Bank aktiv va passivlarini boshqarish tizimida axborot yetakchi ahamiyat kasb etadi. Chunki har qanday bank operatsiyalari bozorda vujudga kelgan muayyan vaziyatni tahlil etishga asoslanishi kerak. Buning uchun axborotlarni yig'ish, yetkazib berish, saqlash va ishlov berishning maxsus tizimini yartish talab qilinadi. Bu tizim o'z tarkibida ichki va tashqi axborotning yordamchi tizimlari, marketing tadqiqoti natijalari va axborot tahlilini jamlaydi.

Xozirgi paytda kredit tashkilotlariga operatsiya kiladigan dasturiy mahsulotlar bozorida xilma xil tizimlar mavjud. Ular vazifasi jixatidan ham, texnikaviy ijrosi, apparat platformasi, tizimli servis darajasi, axborotni himoya qilish usullari va boshqa jixatlari bilan ham farqlanadi.

Xulosa qilib aytganda, bank biznesi muhim yo'nalishlarini tanlash mavjud va bo'lg'usi bank mahsulotlari va xizmatlarini, bank raqobat borasida afzalliklarga ega bo'ladigan potentsial bozorlar va mintaqalarni hamda filiallar tarmog'i kengaytirilishi yoki isloh qilinishi yordamida biznesni rivojlantirish asosiy yo'nalishlarini belgilaydi. Mavjud imkoniyatlardan kerakli darajada foydalanish uchun strategik maqsadlarni qanday amalga oshirish kerakligini belgilash va bank boshqaruving barcha darajalarida keyingi xarakatlarni ishlab chiqish va yondashuvlar tizimini shakllantirishga imkon yaratadi.

### **3.2. Bank tizimida to'lov va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirishdagi mavjud muammolar.**

Moliyaviy sektor axborot xavfsizligi sohasida eng ilg'orlab ketganlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, AT-resurslarni miqyosli virtualizatsiyasi, mobil aloqaga kirishning tarqalib borishi, bulutli AT-infratuzilmasiga o'tish bilan bog'liq axborot texnologiyalari sohasidagi radikal o'zgarishlar moliyaviy biznes ishtirokchilarini, davlat va xususiy tuzilmalar bilan bir qatorda alohida shaxslarni ham yangi texnologiyalardan va axborot xavfsizligi (AX) vositalaridan foydalanishga majbur qiladi.

Moliyaviy tuzilmalarning bevosita pul bilan bog'liq operatsion faoliyati kiberbuzg'unchilar uchun ayniqsa jozibador ko'rindi. AX sohasidagi mutaxassislar masofali bank xizmatlari ko'rsatishni himoyalashda avvalgidek katta muammolarni ko'rmoqdalar. Bank sohasidagi mug'ombirliklar, ularni katta talafotlar yetkazuvchi frot bilan kurashuvchi qimmatbaho tizimlardan foydalanishga majbur qilmoqda.

Paydo bo'lish vaqtidan banklar jinoiy manfaat keltirib chiqargan. Bu manfaat nafaqat kredit tashkilotlarida naqd pul saqlanishi bilan, balki banklarda ko'pchilik odamlar, kompaniyalar, tashkilotlar va hatto butun boshli davlatlarning muhim va ko'pincha maxfiy moliyaviy va xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar to'planishi bilan bog'liq bo'lган.

Bugungi kunda elektron to'lovlar, plastik kartalar, kompyuter tarmoqlarining keng tarqalaganligi natijasida axborot hurujlarning ob'ektiga aylanmoqda. Pul o'g'irlashga har qanday shaxs urinib ko'rishi mumkin, buning uchun Internet tarmog'iga ulangan kompyuter bo'lsa bas.

Bunda bank ichiga jismonan kirish ham shart emas, undan minglab kilometr uzoq bo'lgan masofadan ham "ishlasa" bo'ladi.

Aynan mana shu muammo hozirda eng dolzarb va kam o'rganilgan hisoblanadi. Agar fizik va klassik axborot xavfsizligini ta'minlashda anchadan beri qo'llanilayotgan usullar (hatto rivojlanish bu yerda ham bo'layotgan bo'lsada) ishlab chiqilgan bo'lsa, kompyuter texnologiyalarida shiddat bilan sodir bo'layotgan radikal o'zgarishlar tufayli bank axborotlariga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimining xavfsizligi uslublari doimiy yangilanib borishni talab etadi. Amaliyot ko'rsatib turganidek, tarkibida xato bo'lmasdan murakkab kompyuter tizimlari mavjud emas.

Yirik bank axborotlariga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlarini yaratish g'oyasi doimiy ravishda o'zgarib turishi bois axborot tizimlarida topilgan xatoliklar va "tuynuk"larni to'g'irlash ko'p vaqtga yetmaydi, chunki yangi kompyuter tizimi yangi muammolar va yangi xatoliklarni tug'diradi, xavfsizlik tizimini qaytadan shakllantirishga majbur qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida va banklarda avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmati tashkil etilishi kerak. Avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish xizmati: axborotning saqlanishini ta'minlash ustidan nazoratni tashkil etadi; axborotni muhofaza qilish masalalarida uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi; avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotni muhofaza qilish tizimini loyihalash, sinovdan o'tkazish va qabul qilib olishda ishtirok etadi; avtomatlashtirilgan bank tizimida axborotdan ruxsatsiz foydalanishga urinishlar bo'lganligi, unga boshqacha shaklda aralashilganligi aniqlanganda hamda tizimning ishlash qoidalari buzilganda mazkur tizimdag'i axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'radi; axborotni muhofaza qilish chora-tadbirlarining holati va samaradorligini tahlil etadi; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Fikrimizcha har bir kishi o'zining bankka taqdim qiladigan shaxsiy ma'lumotlarining maxfiy bo'lib qolishiga manfaatdor bo'ladi. Shu sababli va bu muammoni o'rganish nafaqat qiziq, balki juda foydali hamdir.

Banklarda ma'lumotlarga ishlov berish avtomatlashtirilgan tizimlar faoliyatini qasddan buzish muammosi hozirgi vaqtida eng dolzarblardan hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmasdi. Bu da'vo axborot infratuzilmasi juda yaxshi rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qo'llanilishi adolatli bo'ladi, bu haqda quyida keltiriladigan raqamlar qat'iylik bilan guvohlik beradi.

Ma'lumki, 1992 yilda kompyuter jinoyatlaridan ko'rilgan zararlar 555 mln AQSh dollarini, 930 ish yili va 15,3 mashina vaqtini tashkil qilgan. Boshqa ma'lumotlarga ko'ra moliyaviy tashkilotlarning zarari yiliga 173 mln AQSh dollaridan 41 mlrdgacha AQSh dollarini tashkil qiladi.

Ushbu misoldan, ishlov berish va ma'lumotlarni himoyalash tizimlari hisoblash tarmog'iga ma'lumotlarni uzatishning potentsial ishonchsiz muhitiga bo'lgandek an'anaviy yondashuvni aks etishi to'g'risida xulosa qilsa bo'ladi.

Dasturiy-texnik muhitning xavfsizligini ta'minlashning bir nechta asosiy usullari mavjud:

— parollar yordamida identifikatsiyalash (autentifikatsiyalash) va avtorizatsiyalash.

— ma'lumot almashish maxsus prtokollarida uzatiladigan ma'lumotlarning inkapsulyatsiyasi. Bunday usullardan foydalanish ochiq kalitli shifrlash algoritmlariga asoslangan. Initsializatsiya bosqichida bir juft kalit yaratiladi: ochiq va yopiq. Ochiq kalitli shifrlash algoritmlarining mohiyati shundaki, shifrlash va deshifrlash amaliyotlari har xil kalitlar bilan amalga oshiriladi (ochiq va yopiq kalit bilan).

— axborot oqimlarining cheklanishi. Bu, lokal tarmoqni o'zaro bog'liq kichik tarmoqlarga ajratishga va ushbu kichik tarmoqlar orasida ma'lumot uzatishni nazorat qilishga va cheklashga imkon beruvchi hammaga ma'lum bo'lgan texnik usullar.

1) Firewalls (brandmauerlar). Ushbu usul bankning lokal tarmog'i va boshqa tarmoqlar orasida maxsus oraliq serverlar yaratilishini nazarda tutadi, ular o'zlaridan o'tkazadigan ma'lumotlar oqimini (tarmoq/transport darajalari trafigi) inspeksiya qiladi, tahlil qiladi va filtrlaydi. Bu korporativ tarmoqlarga tashqaridan noqonuniy kirib kelish xavfini keskin pasaytirishga imkon beradi, biroq ushbu xavfni umuman bartaraf qilmaydi. Usulning eng tarqalgan turi – bu maskarad (masquerading) usuli hisoblanadi, bunda lokal tarmoqdan chiqayotgan butun trafik firewall-server nomidan yuboriladi va shu vaqt yopiq lokal tarmoq deyarli ko'rinxaydi.

2) Proxy-servers. Ushbu usulda tarmoqda ma'lumot uzatish qoidalariqa qat'iy cheklanishlar kiritiladi: lokal va global tarmoqlar orasidagi tarmoq/transport darajalarining butun trafigi butunlay to'xtatiladi – marshrutizatsiya mavjud bo'lmaydi, lokal tarmoqdan global tarmoqqa murojaatlar maxsus oraliq-serverlar orqali amalga oshiriladi.

— virtual xususiy tarmoqlarni (VPN) yaratish ma'lumotning maxfiyligini samarali ta'minlashga, uni eshitishdan va uzatilishida shovqindan himoyalashga imkon beradi.

— noqonuniy kirishlarni aniqlovchi va zaifliklarni skaner qiluvchi tizimlar tarmoq xavfsizligining qo'shimcha darajasini yaratadi.

Yuqorida keltirilgan usullarni sarhisob qilar ekanmiz, ta'kidlab o'tish joizki, axborot tizimlarini ishlab chiqish parallel ravishda ma'lumotlarni uzatish va himoyalash texnologiyalarini ishlab chiqishni ham talab etadi.

Ushbu texnologiyalar tarmoqni "ishonchli"ga aylantrib uzatilayotgan ma'lumotlarni himoyasini ta'minlashi zarur, biroq ishonchlilik zamonaviy bosqichda jismoniy darajadagi emas, balki mantiqiy (axbrot) darajadagi sifatida tushuniladi.

Bugun banklarning aksariyati to'lov amaliyotlarini masofali amalga oshirish uchun u yoki bu kanallarga ega. "To'lovnoma"ni modernli ulanish yoki ajratilgan aloqa liniyasidan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri ofisdan yuborish mumkin. Bank amaliyotlarini Internet orqali amalga oshirish haqiqat bo'lib qoldi – buning uchun jahon global tarmog'iga ulangan kompyuter va bankda ro'yxatdan o'tgan elektron raqamli imzoning kaliti bo'lsa yetarli bo'ladi.

Bank tomonidan masofali xizmat ko'rsatish xususiy biznesning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bunda quyidagilar ta'minlanadi:

- vaqtini iqtisod qilish (bankka shaxsan kelmay turib, to'lovnvi har qanday vaqtida amalga oshirish mumkin);
- ishning qulayligi (barcha amaliyotlar odatiy ish holatida shaxsiy kompyuterdan amalga oshiriladi);
  - to'lov larga ishlov berishning yuqori tezligi;
  - hujjatga ishlov berish jarayonida hujjat holatini monitoring qila olish imkon;
  - hisob raqamlarda pul mablag'larining harakatlari haqida ma'lumotlarni olish.

Biroq, ochiq-oydin afzalliklarga qaramasdan, elektron to'lovlar unchalik tanilmagan, chunki bank mijozlarining ularning himoyalanganligiga ishonchi to'liq komil emas. Bu, avvalam bor, kompyuter tarmoqlarini qandaydir xaker osonlik bilan "buzishi" mumkin degan fikr bilan bog'liq. Ushbu mif insonning ongida mustahkam o'rashib olgan, navbatdagi veb-saytlarga uyushtirilgan hujumlar haqida OAVlarda muntazam chop etib borilishi ushbu fikrni yanada mustahkamlab bormoqda.

Ammo zamonlar o'zgarib boradi va elektron aloqa vositalari ertami-kechmi bir hisob raqamidan boshqasiga naqdsiz pul mablag'larini o'tkazishni amalga oshirmoqchi to'lovchining shaxsiy mavjudligini o'rnini bosadi.

Elektron – raqamli imzo (ERI) – xavfsizlik kafolati. Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan namunaviy shartnomaga muvofiq elektron hujjat ostida vakolatli shaxslarning ro'yxatga olingan elektron – raqamli imzolarining mavjudligi mijozning hisob raqamlarida amaliyotlarni amalga oshirish uchun etarli asos hisoblanadi.

Har bir elektron raqamli imzo kaliti vakolatli shaxsning o'z qo'li bilan qo'yilgan imzoning analogi bo'lib hisoblanadi. Agar tashkilotda qog'ozdag'i "to'lovnomalarni" odatda boshliq va bosh hisobchi imzolashsa, elektron tizimda ham shu tartibni saqlab qolish yaxshiroq hisoblanadi va ularga alohida elektron raqamli imzo kalitlaridan foydalanish tavsiya qilinadi.

ERI kaliti ikki qismdan iborat bo'ladi – yopiq va ochiq. Ochiq kalit egasi tomonidan generatsiya qilinganidan so'ng tasdiqlovchi markazga taqdim etiladi, uning vazifasini odatda bank bajaradi.

Shunday qilib, ERI sertifikati shakllanadi, uni bank elektron to'lovlar tizimlarida ro'yxatga olish zarur bo'ladi.

ERI yopiq kaliti (mahfiy kalit) uning egasi tomonidan hech qanday holatlarda boshqa shaxslarga berilishi kerak emas. Agar ushbu kalit qisqa vaqtga bo'lsa-da, boshqa shaxsga berilgan

yoki biror joyda qarovsiz qoldirilgan bo'lsa, ushbu kalitni ishonchni yo'qotgan (ya'ni nusxalash ehtimoli yoki kalitdan noqonuniy foydalanish nazarda tutiladi) hisoblanadi.

Boshqa so'z bilan aytiganda, kalit egasi bo'lмаган shaxs tashkilot rahbariyati tomonidan tasdiqlanmagan elektron hujjatni imzolash imkonini qo'lga kiritadi va bu hujjatni bank ijroga qabul qiladi va to'g'ri qilgan bo'ladi, chunki ERI tekshiruvi uning haqiqiyligini ko'rsatib beradi. Bunday holatda barcha javobgarlik kalit egasi zimmasiga yuklanadi. ERI kaliti egasining harakatlari plastik kartalar yo'qolganda amalga oshiriladigan paytdagidek bo'lishi zarur: kalit egasi xizmat ko'rsatuvchi bankka kalit "ishonchni yo'qotganligi" yo'qotilanligi) to'g'risida axborot berishi lozim. Shunda bank o'z to'lov tizimida ushbu ERI ning sertifikatini bloklab qo'yadi va qonunbuzar o'zining noqonuniy topilmasidan oydalana olmaydi.

Shunday qilib, biznesda elektron to'lovlarni qo'llash an'anaviy xizmat ko'rsatishga nisbatan katta afzalliklarni taqdim qiladi. ERI kalitlaridan foydalanish va ularni saqlash bo'yicha tavsiyalarni mijoz o'z bankidan olishi mumkin va unga rioya qilsa to'lovlarning ishonchliligi kafolatlanadi.

Xavfsizlik tizimlarining aksariyati jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini yo'qolishini oldini olish maqsadida foydalanuvchidan o'z shaxsini tasdiqlashni talab qiladi. Foydalanuvchini identifikasiysi quyidagilar asosida amalga oshiriladi:

- u muayyan bir ma'lumotni (maxfiy kod, parol) biladi;
- u muayyan bir predmetga ega (kartochka, elektron kalit, jeton);
- u shaxsiy xususiyatlar to'plamiga ega (barmoq izlari, qo'l panjalarining shakli, ovoz tembri, ko'z setchatkasining surati va h. k.);
- u maxsus kalit qaerdaligini va undan qanday foydalanishni biladi.

Birinchi usul klaviaturada muayyan kodli ketma-ketlikni terishni talab etadi – shaxsiy identifikasiya raqamni (Personal identification number – PIN). Odatda ushbu ketma-ketlik foydalanuvchi tranzaktsiyani amalga oshirayotganda kiritilishi lozim bo'lgan 4-8 raqamlardan iborat bo'ladi.

Ikkinci usul foydalanuvchi tomonidan identifikasiyalashning muayyan maxsus elementlarini taqdim qilinishini talab etadi – nusxalanmaydigan elektron qurilma, kartochka yoki jetondan o'qib olinadigan kodlarni.

Uchinchi usulda kirish vazifasini inson shaxsining individual va fizik xususiyatlari o'taydi. Har qanday biometrik mahsulotga tanib olishda qo'llaniladigan tegishli tasvirlar yoki boshqa ma'lumotlarni saqlovchi katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi hamrohlik qiladi.

To'rtinchi usulda uskunaning yoqilishi yoki kommutatsiya qilinishining alohida printsipi taklif etadi, bu uning ishlashini ta'minlaydi (bu usuldan kamdan-kam foydalaniladi).

Bank ishida ikkinchi guruhdagi shaxsni identifikasiyalash vositalari ko'proq tarqalgan: aniq bir predmet (kartochka, elektron kalit, jeton). Tabiiyki bunday kalitdan foydalanish birinchi guruhdagi identifikasiyalash vositalari va usullari bilan hamjihatlikda amalga oshiriladi: ma'lumotdan foydalanish (maxfiy kod, parol).

Keling bank ishida qo'llaniladigan identifikasiyalash vositalarini batafsil ko'rib chiqamiz.

Plastik kartalar. Bugungi kunda dunyoning turli davlatlarida bir yarim milliard trofidakartochkalar foydalanishga chiqarilgan.

Ulardan eng taniqli bo'lganlari:

- Visa va MasterCard kredit kartochkalari;
- Eurocheque va Posteheque xalqaro chekli kafolatlar;
- sayohatlar va ko'ngilxushliklarni to'lash uchun American Express va Diners Club kartochalari.

Magnit kartochkali. Bank ishida identifikasiyalash vositalari sifatida magnit polosali plastik kartochkalar anchadan beri tanilgan va foydalanib kelinmoqda (ko'pchilik tizimlar oddiy kredit kartochkalardan foydalanishga imkon beradi). Ma'lumotni o'qib olish uchun kartochkani (magnit polosa tomoni bilan) ridearning (o'qib oluvchi) maxsus tuynugidan o'tkazish zarur. Odatda riderlar tashqi qurilma ko'rinishida ishlangan bo'ladi va kom-pyuterning izchil ishlaydigan yoki universal porti orqali ulanadi. Riderlar, shuningdek klaviatura bilan birlashtirilgan holda ham ishlab chiqariladi.

Biroq ushbu kartalardan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari ham mavjud.

Kamchiliklar:

- magnit kartochka qo'l ostidagi usukuna yordamida osonlik bilan nusxalanishi mumkin;
- kirlanish, magnit qatlamiga o'tkazilgan kichik mexanik ta'sir, kartaning elektromagnit maydonlarining kuchli manbalari yon-atrofida bo'lishi kartaning ishdan chiqishiga olib keladi.

Afzalliklar:

- bunday kartalarni chiqarishga va ular orqali xizmat ko'rsatishga xarajatlar unchalik katta bo'lmaydi;

— magnit plastik kartalar industriyasi oxirgi o'n yillar davomida rivojlanib kelgan va hozirgi kunga kelib kartalarning 90% dan ortig'i – bu plastik kartalardir;

— magnit kartalarning qo'llanishi foydalanuvchilarining katta miqdori va kartalarning tez almashib turishi bilan o'zini oqlagan (masalan, mehmonxona nomeriga kirish uchun).

**PROXIMITY**-kartalar. Umuman olganda – bu elektron jetonlarni rivojlantirish g'oyasi hisoblanadi. Bu qurilma – ichida takrorlanmas kodi yoki radiouzatkichi bo'lган kontaktlari kartochka (biroq u brelok yoki braslet). Ma'lumotni o'quvchi uskuna doimiy ravishda elektromagnit energiya tarqatuvchi maxsus antenna bilan jihozlangan. Kartochka ushbu maydonga kirgan zahoti kartochkaning chipiga ishlov beriladi va karta o'qib oluvchi uskunaga o'zining takrorlanmas kodini yuboradi.

**SMART**-kartalar. Magnit kartadan farqli ravishda smart-kartada mikroprotsessor va energiya uzatish hamda o'quvchi uskuna bilan ma'lumot almashish uchun kontakt maydonchalari mavjud bo'ladi. Smart-karta himoyanganlikning yuqori darajasiga ega. Smart-kartalar texnologiyasi yigirma yildan beri mavjud va rivojlanib kelmoqda, biroq juda ham keng tarqalishi oxirgi bir necha yillarda ro'y berdi. Smart-karta bilan ishlash uchun kompyuter maxsus qurilma bilan jihozlangan bo'lishi zarur — bu ichki yoki tashqi kartrider. Kartalarning ko'pchiigi autentifikatsiyaning turli xilini (algoritmlarni) ko'zda tutadi. Elektron tanib olish jarayonida uch tomon ishtirot etadi: karta foydalanuvchisi, karta, terminal qurilma (kartani o'qish qurilmasi).

**Elektron jetonlar.** Hozirgi kunda foydalanuvchilari yoki egalarini identifikasiyasini talab qiluvchi turli tizimlarda elektron jetonlardan kirish usuli sifatida keng foydalanimoqda. Bunday jetoning tanilgan namunasi – elektron "tabletka". "Tabletka" zanglamaydigan po'latdan dumaloq korpusda ishlanadi va ichida takrorlanmas raqami bo'lган chip o'rnatilgan. Foydalanuvchining autentifikatsiyasi "tabletka", odatda kompyutering izchil ishlaydigan portiga ulanadigan maxsus kontakt qurilmaga tegganidan so'ng amalga oshiriladi. Shunday qilib, xonaga kirishga va shuningdek kompyuterda ishlashga ruxsat berish hamda noqonuniy foydalanuvchilarining kompyuterdag'i ishini to'xtatish mumkin.

Bank ma'lumotlarini himoya qilish muammosi, uni bee'tibor qoldirish uchun juda jiddiy hisoblanadi. Oxirgi vaqtida ba'zi banklarda maxfiylik darajasining buzilishi holatlari kuzatilmoqda. Bunga misol qilib turli tijorat kompaniyalari va alohida shaxslar haqidagi ma'lumotlarning kompakt-disklarda erkin foydalanishda paydo bo'lishini keltirsa bo'ladi. Nazariy jihatdan bizning mamlakatimizda bank ma'lumotlarini himoyalashni ta'minlash uchun qonunchilik bazasi yetarli, biroq uning amalda qo'llanishi hali ko'ngildagidan ancha yiroq. Hozirga qadar birorta bank ma'lumotni tarqatgani uchun yoki biror-bir kompaniya maxfiy ma'lumotga egalik qilishga uringani uchun jazolanganlik holatlarini uchratganimiz yo'q.

Bankdagi ma'lumotlarni himoyalash – bu kompleks masala bo'lib, faqat bank dasturlari doirasida hal bo'lishi mumkin emas. Yuqoridaqilarni umumlashtirgan holda, bank sohasida ishlayotganda korporativ va tijorat ma'lumotlar yopiq holda bo'lishiga ishonch hosil qilish kerak degan xulosaga kelsa bo'ladi. Biroq nafaqat hujjatlar va boshqa ishlab chiqarish ma'lumotlarini himoyasi uchun, balki tarmoq sozlamalari va kompyuterda tarmoq faoliyatining parametrlari uchun ham qayg'urish zarur bo'ladi.

Bankda ma'lumotlarni himoyalash masalasi boshqa tashkilotlarnikidan ko'ra ancha jiddiy tarzda qo'yiladi. Ushbu masalani hal qilish o'z ichiga himoyani ta'minlovchi tashkiliy, tizimli choratdbirlarni qamrab oladi.

### **3.3. Xalqaro bank ishida foydalaniladigan bank operatsiyalari va xizmatlarini milliy bank tizimiga joriy etishdagi mavjud muammolar/**

Bozor munosobatlariga o'tish iqtisodiyotda yemas, bank faoliyati sohasida ham jiddiy o'zgarishlarni talab qiladi. Yendilikda jahon miqyosida faoliyat ko'rsatayotgan xalqaro banklar mutlaqo boshqacha tamoyillar asosida tuzilib, ish olib bormoqdalar.

Xorijiy mamlakatlarda ko'p yillardan beri bank-moliya tizimiga nihoyatda katta ahamiyat berib kelinadiki texnika va texnologiyalarni tatbiq yetish bilan, bugungi kunda bu tizim nihoyatda rivojlanib takomillashdi. Bu sohada tezroq muvaffaqiyat qozonish uchun shu davrga qadar to`plangan hozirgi davr boshqaruviga doir mujassamlashgan bilimlardan foydalanish zarur. Bularni takomillashtirish, amaliyotga kiritish, foydalanish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida aholining ko`pchilik qismi, davlat va davlat tashkilotlari, koorporativ mijozlar tijorat banklari xizmatlaridan foydalanadilar. Iqtisodiy tamoyil va normativ qonunchilikka amal qilib, faoliyat ko'rsatayotgan bank tizimi iqtisodiyotni rivojlantirishga va milliy valyutani barqarorlashuviga olib keladi.

Xalqaro bank tushunchasi va uni nazariy tomonlarini o`rganish bo`yicha bir necha asrlardan beri iqtisodchi olimlar faoliyat olib boradilar. Masalan, Rossiya Moliya Akademiyasi professori E.Jarkovskayaning fikriga ko`ra, xalqaro banklar – jahon iqtisodiyotining o`ziga xos "qon tomiri" bo`lib, ularsiz zamonaviy jahon xo`jalik mexanizmini tasavvur qilish mumkin yemas. Bu tizimni turli xo`jalik sub`ektlari, xalqaro kompaniyalar, chet yel investorlari shakllantirib, pul va unga tenglashtirilgan qiymat resurslari muomalada bo`ladi.

DYVId Polfremen va Filip Fordlar o`zlarining «Osnovы bankovskogo dela» o`quv darsligida: «Xalqaro banklar – ular, o`zlaridagi kapitallar bilan boshqa davlat sub`ektlarining moliyaviy yehtiyojini qondiruvchi moliyaviy vositachilardir» deb ta`kidlaydilar.

O`zbekistonda bank tizimi mustaqil davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo`nalishlaridan biri bo`ldi. Bugungi kunda bank tizimi xalqaro talablarga javob beruvchi asosda shakllanib, faoliyat yuritmoqda.

Albatta, xalqaro banklar o`z faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy tamoyillarga amal qilishi qancha yuqori bo`lsa, u shunchalik ko`p foya ko`radi va natijada barqaror moliyaviy institutga aylanadi.

Har bir davlat o`z hududida bo`lgan va hududidan tashqaridagi mahalliy banklari barqarorligiga alohida ye'tibor qaratadi. "Xalqaro bank ishi" fanining maqsadi ham jahon xo`jaligida xalqaro banklarning tutgan o`rnini o`rgatishdan iborat. Shu bilan birga, "Xalqaro bank ishi" fanining xalqaro iqtisodiy munosabatlarda jahon banklarining tarixan shakllanishi, zamonaviy tuzilishi va operatsion faoliyati bilan tanishtiradi, ular faoliyatini taqqoslashga o`rgatadi.

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo`g`ini bo`lib, iqtisodiyotning korxonalar, tashkilotlar, aholiga bevosita xizmat ko'rsatadigan mustaqil sub`ektlari bo`lib hisoblanadi. Tijorat banklari pul mablag`larining harakatlanish jarayonini tashkil yetish bilan o`z mijozlari: yuridik va jismoniy shaxslarning moliyaviy yehtiyojlarini qondirib, bu mablag`larini yeng foydali tarzda joylashtirilishini ta`minlaydi. Xorijiy markaziy banklarning roli umuman qonun yaratuvchilik, tartibga soluvchilik, yemission faoliyat, kredit tizimining barqarorligini qo`llab-quvvatlash va shu kabilardan iborat.

Hozirgi bank amaliyotida bank turini belgilaydigan ikkita asosiy mezon qo`llaniladi:

1. Resurslarni jamlash usuli - o`z bo`limlariga yega va o`z bo`limlariga yega bo`lmagan, ssuda sarmoyalari bozorlarida (banklararo, pullik, obligatsiyali) mablag`larni jalb yetuvchi banklar ana shu usulga qarab farqlanadi;

2. Banklarning faoliyat sohasi — milliy yoki xalqaro hajmda, ya`ni (nerezidentlar bilan bank operatsiyalarining hajmi balansi umumiyligi summasining 1/3 qismidan ortiq bo`ladigan holatda).

Ko`rsatilgan mezonlar bank mijozlari tarkibi, mahsulotlar va xizmatlar turkumi, shuningdek, uning tashkiliy tuzilmasini shakllantirishda belgilovchi omillar hisoblanadi.

Banklar faoliyati tamoyillarining mavjud tasnifi ularning universallashuv va ixtisoslashuv yo`nalishlari bo`ylab rivojlanishining ikkita asosiy tendensiyasini belgilaydi. Bank operatsiyalarining

yo`nalishi milliy iqtisodiyot, kredit va pullik munosabatlar, kreditlar va moliya bozorlarining rivojlanishi darajasiga bog`liq bo`ladi.

Universallashgan banklar:

- bozorning barcha segmentlarida faoliyat ko`rsatadi va o`z mamlakatida va chet yellarda asosiy operatsiyalarning xamma turlarini o`tkazadi, o`z mijozlari — jismoniy va yuridik shaxslarni jaxon amaliyotida ma`lum bo`lgan barcha mahsulot va xizmatlar turlari bilan ta`minlaydi;

- bo`limlar tarmog`iga yega bo`ladi va mijozlar hamda kontragentlardan katta resurslarni jalgiladi.

Ixtisoslashgan banklar:

-bozorning bir segmentida (mijozlar, xizmatlar, xudud) faoliyat ko`rsatadi;

-bo`limlarga yega bo`lmasligi ham mumkin.

Ba`zi iqtisodchilar fikriga ko`ra, rivojlanayotgan bozor sharoitida ixtisoslashgan banklar ancha samarali ishlaydi. Universal bank faoliyati operatsiyalar, mahsulotlar va xizmatlar diversifikatsiyasi, hamda bank operatsiyalarini ta`minlash uchun zaxiralarni shakllantirish bilan bog`liqki, bu, o`z navbatida, katta hajmdagi o`z mablag`larini va aktivlar hamda passivlarning balanslashtirilgan tarzagi boshqariluvini talab qiladi.

Shuni qayd qilish maqsadga muvofiqki, universal banklar bilan ixtisoslashgan banklar o`rtasidagi tafovut chakana (retail) va ulgurji (wholesale) operatsiyalar o`rtasidagi farqi, shuningdek, filiallar tarmog`iga yega banklar yoki bo`lmagan banklar o`rtasidagi farq bilan belgilanmaydi.

Bankni faoliyatini rivojlantirishda xorij bankirlari segmentlash uslubiyotidan foydalananadilar. Bunday uslubiyot bank faoliyatida yeng oddiy turlar ro`yxatini tuzish va so`ngra-ularni quyidagi mezonlarga muvofiq ravishda bir xildagi guruhlarga solishdan iborat bo`ladi:

mijozlar;

raqobatchilik;

texnologiya.

Mutaxassislar bu guruhlarni strategik faoliyat sohalari deyishadi, amaliyotchilar yesa — ixtisoslashish deb ataydi.

So`ngra bu faoliyatning har bir sohasi moddiy, kishilik resurslarini va nou-xauni aniqlash maqsadida batafsil tahlil qilinadi. «Nou-xau» atamasi (inglizcha know how — bilish, qanday so`zidan) ko`nikmalar, bilimlar, tajribaning mavjudligini anglatadi. Ko`rsatilgan resurslar muvaffaqiyatning asosiy omillari hisoblanadi. Bunda banklar faoliyatning o`zaro bir-birini to`ldiradigan sohalarini rivojlantirishning maqsadga muvofiqligini hisobga oladilar va bunda asosiy ixtisoslashuvni, faoliyatning hamma turlari ichida texnologiya bilan yeng yaxshi tarzda jihozlangan turni ajratib ko`rsatishadi.

Bank faoliyatini segmentlash, qayd qilinganidek, mablag`larni jalg qilish usuli va faoliyat yuritish joyini tanlashni, shuningdek, mijoz omilini — yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko`rsatilishi hamda «bank mahsuloti» mezoni — uy-joy uchun kreditlash, iste`molchilik maqsadlaridagi kreditlash va boshqalarni o`z ichiga oladigan har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Tijorat banklari faoliyatida yo`nalishlarni, mahsulotlar va xizmatlar turkumini belgilab, o`zlarining raqobatchilik ustunliklarini belgilashadi.

Raqobatga qobiliyatlilik belgilariga quyidagilar kiradi:

Bank sektori ichidagi raqobatchilikni (bank ishi sohasidagi ixtisoslashuvni) belgilash. Bank tovarlari va xizmatlari bozorlariga yoki ta`sir ko`rsatish zonalariga kirib borishlarning cheklanishlarini belgilash orqali muvozanatga yerishiladi;

Yangi raqiblarning paydo bo`lishi mumkinligini o`rganish;

Mahsulotlar o`rnini bosuvchi tovarlarni taklif qilishlarni baholash (bevosita moliyalashtirish bilan bilvosita moliyalashtirish o`rtasidagi raqobatchilik);

Ishonchli mijozlar bazasini saqlab qolishga intiluvchi bank bilan operatsiyalardan foyda ola biladigan «kuchli» mijoz omilini baholash.

Bank o`z faoliyatini rejalashtirishda o`zining kuchli tomonlarini aniqlaydi:

hurmat-ehtiromga sazovor nufuz;

qayishqoq tashkiliy tuzilma va menejment xizmati;  
sifatli faoliyatni ta`minlashning texnik usullarini mohirona yegallaganlik;  
agentliklarning keng tarmoqlariga yega bo`lish va boshqalar.

Hozirgi tijorat banklari menejmentning sifatini oshirishga katta ye`tibor berishadi, bu quyidagilarni anglatadi:

hamma uchun tushunarli bo`lgan oddiy farmoyishlar yo`li bilan jamoaga va safarbar yetish uchun yetarli mavjud resurslarga rahbarlik qilish va ularni boshqarish qobiliyati;

qarorlar bilan umumiy tartib o`rtasidagi muvozanatni tutib turish.

Banklar kuchli va zaif tomonlarni aniqlagach, o`z faoliyat sohasini, potensial mijozlarini, xizmatlar ko`lamini tanlashga kirishadi.

Bank faoliyatining yo`nalishlarini tanlash ko`p jihatdan bankning raqobatchilik ustunliklariga va faoliyat turining jozibadorligiga bog`liq bo`ladiki, ular o`z navbatida, quyidagilarga bog`liq bo`ladi:

potensial, yangi yoki rivojlanayotgan bozorlardagi bank mahsulotlari va xizmatlariga talab-ehtiyojning mavjudligiga;

xarajatlarga nisbatan foyda olishning istiqbollariga;

ushbu tarmoqdagi raqobatchilikning intensivligiga;

bank ishi tomon kirib borishni chekllovchi to`siqlarga.

Bank faoliyatining rivojlanishi, moliyaviy va texnika resurslaridan samarali foydalanishiga qarab o`zining raqiblariga qaraganda yaxshiroq natijalarga yerishish imkoniyatiga yega bo`ladi.

Jahon tajribasining ko`rsatishicha, universal va ixtisoslashgan banklar faoliyati boshqaruvining o`ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, universal banklar mahsulotlar va xizmatlarni diversifikasiyalash, faoliyat sohasini kengaytirish, innovatsion mahsulotlarni gorizontal bo`yicha (jo`g`rofiy rivojlanish) o`zlashtirish yo`li bilan o`z taraqqiyotini ta`minlaydilar. Universal banklar faoliyatning turli-tuman yo`nalishlarini yuritishadi, talabga yega bo`lmagan yo`nalishlardan voz kechishadi va istiqbolli yo`nalishlarni rivojlantirishadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan, «intizomli» bank sektoriga yega mamlakatlarda universal banking ixtisoslashgan bankka nisbatan o`z tavakkalchiliklarini taqsimlashi ancha yengil kechadi, chunki zararlarni boshqa sektorlar hisobiga qoplash imkoniyati bo`ladi.

Ixtisoslashgan banklar faoliyatning bir sohasi bilan cheklanmaydi. Ular mijozlar bilan ishlar yekan, kuch-g`ayratlarini ularning yehtiyojlarini qondirishga qaratadi. Ixtisoslashgan banklar faoliyati shuni ko`rsatdiki - ular rentabellidir, chunki universal banklarga nisbatan kamroq sondagi tavakkalchiliklarni sug`urta qilishadi. Ixtisoslashgan bank yuksak kasbiy mahoratga yega bo`lib, o`zi uchun universal bank maqomidan ham yuksakroq baholanadigan, universal bankka nisbatan ancha tor doiradagi mahsulotlar turkumini ta`minlaydigan «mutaxassis» imidjini yaratadi. Bunda, odatda, ular yuqori kutilgan qiymatga yega bo`ladi (mol-mulkni boshqarish, moliyaviy injiniring), sifat va innovatsiyaga ko`proq ye`tiborni qaratadiki, bu taklif yetiladigan mahsulotlar cheklangan miqdorda bo`lganida talabni qondirish uchun ayniqsa zarurligiga. Odatda, kichik va o`rtacha banklar resurslarni jalb yetishning cheklangan imkoniyatlariga yega bo`lgach, ixtisoslashuv faoliyatini tanlashadi.

Bank faoliyat sohasini tanlagach, o`zining ushbu sohadagi o`rnini tanlashga o`tadi: uning raqiblariga nisbatan faoliyat rejasি belgilanadi.

Banklarning pozitsiyani tanlashining har xil variantlari: yetakchi bo`lish, yetakchilik qilishga da`vogarlik, o`rta hollik holatida bo`lishi mumkin.

Yetakchi bo`lishdan maqsad bank faoliyatining aniq sohasida birinchilardan biri bo`lish niyatidan iborat bo`ladi. Banklar maqsadga yerishganidan keyin yegallagan o`rnini saqlashga intilishadi. Yetakchi pozitsiyasi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanib, keng miqyosdagi taniqlilik, munosib imidjni keltiradiki, bu nafaqat potensial mijozlarni, shu bilan birga bank xodimlarini ham rag`batlantiradi, bunda xodimlar o`z kuchlarini qo`yilgan maqsadlarga yerishish uchun safarbar qilishadi.

Bank yetakchilik holatini saqlab qolish uchun rivojlanish, pozitsiyalarni himoya qilish siyosatini o`tkazishi zarur.

Faoliyatning rivojlanishi ichki va tashqi o'sishda amalga oshiriladi. Qayishqoq, tashkiliy tuzilma negizida mijozlar bilan munosabatlarni intensivlashtirish ichki o'sishga yordam beradi. Tashqi o'sish hozirgi bozor sharoitlarida boshqa kredit institutlari bilan qo'shilib ketishlar bilan bog`liq. Bunday usul ancha jadal, yangi bozorlarga, faoliyatning yangi sohalari, yangi jo`g`rofiy mintaqalarga kirib borishni yengillashtiradigan usul hisoblanadi.

Bank pozitsiyalarining himoyasi bank mahsulotlari sifatini takomillashtirish, moliyaviy innovatsiyalar bilan bog`liq.

Yetakchilik qilishga da`vogarlik bankning istiqbolda banklarning raqobatchilik sohasidagi yetakchilik qiluvchi guruhiga kirib olish niyatini belgilaydi.

Bank rolini bundan keyin yanada oshirishga tayyorgarlik uning zaif tomonlarini: yeskirgan bank mahsulotlari, mijozlarning qamrab olinmagan segmenti, agentliklar tarmog`ining noto`g`ri tashkil qilinganligi va boshqalarni aniqlash uchun yetakchi holatini teran tahlil qilish negizida amalga oshiriladi. Jahon amaliyotiga shu narsa ma`lumki, yuksak darajada to`yingan yoki o'sishning past sur`atlariga yega bozorlarda o`z ishtirokini kengaytirish faqat raqiblar hisobiga, birinchi navbatda, yetakchi hisobiga amalga oshirilishi mumkin. So`ngra bank o`z kuch-g`ayratlarini o`zining zarur moliyaviy, kasbiy va texnologik resurslar bilan ta`minlash, bozorning boshqa sektorlarida amal qiladigan boshqa banklar yoki korxonalar bilan aloqalarni o`rnatishtga yo`naltiradi. Tijorat banki shu maqsadda o`z sarmoyasida moliya-sanoat guruhining ishtirok yetishiga yo`l qo`yadi yoki boshqa bir bankni o`z nazorati ostiga oladiki, bu o`z pozitsiyalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Yetakchilik qilishga da`vogar oldindan tayyorgarlikni o`tkazar yekan, yetakchiga hujum uyushtiradi. Yoppasiga hujum amalga oshiriladi, bunda yetakchi qatnashadigan hamma bozorlardagi pozitsiyalarini yegallab olish uchun barcha vositalar: tajovuzkor reklama kampaniyalari, narx-navo qirg`inlari va boshqalar safarbar qilinadi.

Ba`zan harakatlarning «partizancha» usullari ishga solinadi. Yetakchilik qilish uchun da`vogar yetakchining faqat zaif pozitsiyalariga hujum qiladi, «parchalab tashlash» strategiyasidan maksimal foydalanadi. «Yetakchilik qilish uchun da`vogarlik tavakkalchilik bilan bog`liq, chunki yetakchi qarshilik ko`rsatadi. Shu sababli tayyorgarlik ishlari bosqichiga katta ye`tibor qaratiladi.

«O`rtacha hollik» varianti o`zining bozordagi ulushini kengaytirishga yemas, balki asosan foydani ta`minlashga qaratiladi. Ayrim banklar o`zlarini yetakchi rolini yegallay olmaydigan deb bilishadi, «yetakchilik qilish uchun da`vogar»lik yesa juda ko`p tavakkalchilik bilan bog`liq. Biroq, «o`rtacha hollik»-bank bozorda passivlik qilmaydi: u nima qilib bo`lsa-da bozorga ilinib qolish ilinjida raqiblarining monitoringini o`tkazadi, ularning harakatlariga tijoratchilik nuqtai nazaridan baho beradi, yangi mahsulotlarni va texnologik ta`minotni joriy qiladi. Bunday banklar o`z mijozlarini ushlab qolishga urinib, ularga yuqori sifatli xizmatlar ko`rsatishga harakat qilishadi. «O`rtacha hollik» banklar yetakchi bilan orasidagi masofani tutib turish uchun o`z afzallikkari va o`ziga xos xususiyatlarini ta`kidlashga intilishadi.

Umuman olganda, bank faoliyatini rivojlantirish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Bank faoliyatini rivojlantirish bo`yicha bank rahbariyati izchil shug`ullanishadiki, bu pirovard muvaffaqiyatni kafolatlaydi.

Bank faoliyatini rejalashtirish uning butun mexanizmini qo`yilgan vazifalarning bajarilishini ta`minlashga o`tkazish bilan bog`liq bo`lib, ushu vazifalarning muvaffaqiyatlari tarzda hal qilinishi ko`p jihatdan o`zgartirishlarning ob`ektiv zarurligi (hayotning o`zi taqozo yetgan) va rahbaryatning uni takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga bo`lgan intilishi bilan bog`liq bo`ladi. Professional gorizontga qarab uch-besh yillik biznes-reja tuziladi, bunday reja kredit tashkilotining vazifalari, maqsadlari va bozor siyosatining aniq, ifodasini o`z ichiga oladi. Jahon amaliyotida biznes-rejaning: bank faoliyati haqidagi umumiy axborotlar, rivojlantirish istiqbollari bayoni, boshqaruv tizimlari, uning faoliyatini har tomonlama ta`minlashning o`ziga xos xususiyatlari va boshqalarni o`z ichiga oladigan namunaviy tuzilmasi qo`llaniladi. Biznes-rejaga kredit instituti balansining hisobkitobi, uning aktivlari va passivlari, daromadlari va xarajatlari tarkibi, faoliyatning boshqa iqtisodiy o`ziga xos xususiyatlarining prognozi ilova qilinadi.

Faoliyatni rejalashtirish rivojlanayotgan bozor sharoitida alohida ahamiyatga yega bo`ladi. Bank rahbaryati bankni boshqarishning samarali vositasi — to`g`ri tashkil yetilgan rejalashtirish

negizida mashaqqatlarni izchillik bilan bartaraf qilishdan foydalangani holda tanazzulli munosabatlarning murakkab shart-sharoitlariga barham berish imkoniyatiga yega bo`ladi. Moliyaviy-iqtisodiy tangliklar oqibatlarini o`zida sinab ko`rgan rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko`rsatadiki, tanglik sharoitidagi bank faoliyatini rejalashtirishda quyidagi tamoyillarga rioya qilish zarur:

harakatlarning hujumkorligi (eson-omon qolish uchun muhim bo`lgan muammolarni birinchi navbatda, so`ngra muhimlarini va boshqalarni hal qilish);

ustuvor yo`nalishlarni belgalash (muammolarning bir tizimda kayd kilinishi). Bankiish uzlusiz faoliyat kursatishi jarayonini kullab-kuvvatlashga bevosita ta`sir kursatadigan zaif buginlar va jiddiy yelementlarni belgilash, anik, vaktli muddatlarni belgilagan xrlda izchil xatti-xarakatlarning puxta rejasini tuzish;

dasturlar, modellar, stsenariylarni ishlab chikish (real imkoniyatlar va axvolning salbiy tomonga karab uzgarishini hisobga olish asosida);

qarzlarning tartibga solinishiga ta`sir qiladigan tashqi va ichqi omillar ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, o`zgartirishlarni o`z vaqtida kiritish.

Bank faoliyatini rejalashtirish uning imkoniyatlari, istiqbollari va umumiyl iqtisodiy jihatlarini ko`rishdagi natijasi bo`ladi. Bank faoliyatining alohida bosqichlarga bo`lib boshqarilishi, ularning kamchiliklari va afzalliklarini, chiqimlar va natijalarini aniqlash, so`ngra tahsilning ayrim segmentlarini yagona axborot kompleksi qilib jamlash kredit institutlari faoliyatining istiqbollarini belgilashga nisbatan kompleks yondashuv negizida faoliyatning samarali natijalariga yerishishga yordam beradi. Bank faoliyatida ajoyib bir segmenti mavjudki, u bank marketingidir va u bo`yicha qisqacha to`xtalamiz.

Bankning hozirgi sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun o`z vazifalarining hal qilinishiga samarali yondashuv talab qilinadiki, bu xo`jalik yuritishning marketing konsepsiyasida o`z ifodasini topadi.

Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishning xozirgi sharoitida banklar marketing xizmatlarining turli-tumanligi mavjud. Xozirgi bank faoliyatini tashkil yetish uchun yeng xarakterli bo`lgan qarorlar xususida to`xtalishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

#### Novatorlik (innovations) xizmatlari

Iste`molchilar hozirda bank xizmatlarining standartlari bilan bog`lamaydigan yangi banklar yoki o`z imidjini o`zgartirish niyatidagi banklar tomonidan foydalaniladi. Banklar raqobatchilik afzalliklariga yerishish va novator bank degan imidjni mustaxkamlash maqsadlarida yangi mahsulotlar, texnologiyalar, yangi kadrlardan foydalanishadi.

#### Yangi bozorlarga tajovuzkorlik hujumi

Bankning yangi bozorlar, boshqa mintaqalarga chiqib olish niyati va o`zining yangi bozordagi ishtiroy yetish ulushini kengaytirish uchun barcha vositalarni tajovuzkorlik bilan qo`llanishi. Odatda, bunday marketing dasturlari investitsiya strategiyalari bilan birga qo`sib olib boriladi.

#### Diversifikatsiyalash xizmatlari

An`anaviy tusda operatsiyalar va bank xizmatlarining aloxida turlari bilan ishlaydigan va raqobatchilik sharoitida mijozlar bazasini saqlab qolish maqsadida ularni kengaytirish niyatidagi ixtisoslashgan banklar tomonidan qo`llaniladi.

Bozorning bank bilan zaruriy teskari aloqasini tashkil yetish uchun kredit institutining maxsus xizmati bankning bozordagi axvolining monitoringi bilan shug`ullanadiki, bu marketing strategiyalarini amalga oshirish usullari va muddatlariga talab qilinadigan o`zgartirishlar kiritilishiga olib keladi.

#### Operatsion zalda an`anaviy tusdagi xizmat ko`rsatish

Bankning chakana xizmatlarini tarqatish, shuningdek, hisob-kitob xizmatlarining katta xajmini yoki ularni olish uchun ixtisoslashtirilgan shart-sharoitlarni talab qilmaydigan korporativ mijozlar bilan ishslash uchun qo`llaniladi.

#### Bank — mijoz telekommunikatsiya tizimi

Xozirgi vaqtda banklar va ular filiallaridan olis masofalarda joylashgan yoki bank xizmatlarining katta xajmlarini olishga muhtoj korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish uchun keng qo'llaniladi.

Bank xizmatlarining mijoz xududida taqdim yetilishi

Valyuta almashtirish shoxobchasing ochilishi, korxona xodimlari bo'lgan mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha to'lov va hisob-kitob operatsiyalarining ta'minlanishi va boshqalar. Inkassatsiyaning ayrim turlari bunday xizmatlarga misol bo'ladi.

Bank xizmatlarining pochta, telefon, telefaks yoki kompyuter tarmoqlari orqali taqdim yetilishi

Mijozlarga xizmat ko'rsatishning bunday shaklining qo'llanilishi vaqtning «tejalishi»ga yordam beradi va istiqbolli hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bunday operatsiyalarining xavfsizligini ta'minlash tizimlari — ovoz, tasvirning muallifini aniqlash, kodlashtirish va boshqalar bank amaliyotiga tatbiq yetilmoqda.

Bankomatlar va mualliflashtirilgan terminallar tizimi

Plastik kartochkalardan foydalangan holda turli moliyaviy, ijtimoiy, savdo dasturlarining ishlab chiqilishi va qo'llanilishi. Mijozlar bilan hisob-kitoblar qilishda ularga qulaylik yaratish va milliy to'lov tizimlarini xalqaro standartlar darajasida qo'llab-quvvatlab turish uchun qo'llaniladi.

Valyutani almashtirish shoxobchalar

Xalqaro transport uzellari, mexmonxonalar va shu kabilarda mijozlarning valyutani almashtirishga doir yehtiyojlarini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, iqtisodiy tanazzul sharoitida bank xizmatlarini ko'rsatishning bunday usuli alohida katta qiziqish uyg'otadi va rivojlantirishga arziydi.

Odatda, ko'rsatilgan bo'limlar xizmatchilar mijoz bilan uchrashganida uning bankda olishi mumkin bo'lgan xizmatlar, ularni olish shartlari, ularning afzallikkleri va foydasi haqida ularni xabardor qilishadi, shuningdek, ushbu xizmatlarni xarid qilish yuzasidan aniq, qadamlar qo'yishni taklif yetishadi. Bank xodimi muzokaralar yakunida mijozga bankning tegishli xizmati yoki filialiga murojaat qilishni tavsiya yetadi va mijozning yextiyojlarini qayishqoq tarzda ta'minlash yo'lini yanada qidirish va o'zaro manfaatlarni amalga oshirish uchun yana uchrashish to`g'risida oldindan kelishib oladi.

Xalqaro bank tizimini xalqaro valyuta-kredit munosabatlari pozitsiyasidan bir nechta tabaqaga bo'lish mumkin.

Xalqaro moliyaviy va bank operatsiyalari o'z tarkibiga Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki (JB), Yevropa Taraqqiyot va Rivojlanish banki (YTRB) va boshqa tashkilotlar faoliyatini oladi. Bu tashkilotlarning funksiyalari Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), OYeSR va boshqa milliy organlar tomonidan belgilangan. Xalqaro tashkilotlar, asosan, Jahon valyuta tizimini tartibga solish, rivojlanayotgan davlatlarga va iqtisodiy inqiroz hamda nochor ahvolga tushib qolgan davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishdan iborat.

Markaziy banklar davlat manfaatini himoya qiladi, turli davlatlarda har xil darajada mustaqil, ammo doimo davlat manfaatidan kelib chiqib harakat qiladi va davlat funksiyasiga doir vazifalar bajaradi. Rivojlangan davlatlarda markaziy banklar, belgilangan tartibga asosan hukumatga to`g'ridan-to`g'ri bo'ysunmaydi, lekin o'z faoliyatini hukumat faoliyati bilan muvofiqlashtiradi. Markaziy bankning muhim funksiyalari valyuta kursini tartibga solish, mamlakatning oltin-valyuta zaxirasini boshqarish, tijorat banklari, pul yemissiyasi va bank tizimini kreditlash ustidan nazoratni olib borishdan iborat. Ko'pgina mamlakatlarda Markaziy bankka (ba'zi bir davlatlarda Milliy bank deb yuritiladi) davlat qarzini boshqarish, valyuta nazorati va boshqa vazifalar yuklatilgan.

Milliy banklar asosan o'z davlatlarining teritoriyalarida amal qiladi. Gohida ular xorijiy davlatlarda vakolatxonalarini va filiallarini ochishadi, bir so'z bilan aytganda, bular ham nisbatan uncha katta bo'limgan transmilliy banklar hisoblanadi. Xorijiy davlatlarda bir-ikki vakolatxonasi yoki filiali bo'lgan banklar milliy banklar guruhiba kiradi. Transmilliy banklar soni unchalik katta yemas. Misol uchun, Amerikadagi 15 ming banklari ichida 150 tasi (yoki jami banklarni 1%) transmilliy hisoblanadi. Milliy banklar, belgilangan tartibga asosan xorijiy banklar bilan keng korrespondentlik tarmog'iga yega bo'lishadi.

O`rtalik regional, tarmoq va ixtisoslashgan banklar, odatda, o`zining regioni yoki tarmog`i doirasida amal qiladilar. Ko`p hollarda bu banklar xalqaro valyuta bozorlariga va Yevrobozorga mustaqil ravishda chiqishmaydi. Bu guruhdagi banklar barcha milliy banklar bilan va ko`rgazma uchun xorijiy banklar bilan korrespondentlik munosabatlari o`rnatgan bo`lishadi. Jami bo`lib rivojlangan davlatlarda 28 mingtaga yaqin banklar bo`lsa, shundan katta qismi shu guruhdagi banklar qatoriga kiradi.

Ofshor banklar dunyo bank tizimida yana bir muhim guruhni tashkil yetadi. Hozirgi vaqtida ular juda keng tarqalgan. Ularsiz transmilliy banklarning operatsiyalarining birontasi ham amalgamoshirilmaydi. Ofshor banklar, ofshor kompaniyalari singari o`z oldilariga maqsad qo`yib tuziladi. Ulardan yeng asosiysi – soliq to`lanishini minimallashtirish.

Ofshor banklar quyidagi o`ziga xos tomonlarga yega:

bankni ro`yhatdan o`tkazgan davlatlarni rezidentlari bilan ishslash huquqiga yega yemaslik;

ro`yhatdan o`tish uchun to`lanadigan ustav kapitali miqdori, boshqa davlatlarga nisbatan ancha past bo`ladi;

bank soliq to`lovlaridan to`liq ozod yetilgan bo`ladi;

ofshorda rezerv saqlash va boshqa bank normalari bo`yicha talablar, boshqa davlatlarga nisbatan juda ham kam talab yetiladi, davlatdan tashqari operatsiyalar bo`yicha valyuta nazorati butunlay mavjud yemas.

Quyidagi ofshor banklar Jahon iqtisodiyotida katta ahamiyatga yega: Men, Gernsi va Jersi orollar, Bagam orollar, Sent-Kristofer va NYVI Federatsiyasi, Niderlandiyaning Antil orollar, Arubi (Italiya mafiyasining an`anaviy makoni), Kayman orollar, Qarib davlatlariga tegishli Terksa va Kaykosa orollar, Britaniyaning Virgin orollar, ofshor biznesining beshigi hisoblangan Panama va nihoyat bizga yaqin bo`lgan Kipr davlati. Keyingi vaqtida ofshor biznesi dongi chiqqan Shveysariyaning xususiy banklari orqali keng rivojlanmoqda.

Kayman orollarida 500 dan oshiq ofshor banklar va 1300 ta sug`urta kompaniyasi, Jahonning 50 ta yirik banklarini 43 ta filial va “sho`ba” banklari ro`yhatdan o`tkazilgan. Kayman orollaridagi bank filiallarida to`plangan depozit omonatining jami miqdori astronomik summaga yetib, 150 mlrd. dollarni tashkil yetmoqda. Gonkongda xorijiy banklarning 1,5 mingdan oshiq filiallari amal qilmoqda.

Hozirgi sharoitda Jahon trasmilliy kapitalining birona ham moliyaviy chizmasi ofshor banklarini ishtioksiz, umuman amalgamoshirilmaydi.

Jahon bank tizimi o`zida butun planeta tarmog`ini mujassam aks yettiradi, qaysiki uning bo`g`inlarida – xalqaro moliyaviy markazlar – yirik TMB va uning filiallari to`plangan (yoki yig`ilgan). Har bir global va yirik TMB o`zining filial tarmoqlari va sho`ba banklariga yega hamda ular Jahon davlatlarining katta qismida faoliyat ko`rsatmoqda. Bu tarmoqlar tizimdagি moliyaviy oqim uchun magistral quvur xizmatini o`taydi. Transmilliy va yeng avvalo, milliy banklarga hududiy va tarmoq banklari korrespondentlik munosabatlari tizimi orqali ulangan, ularni soni juda ham ko`p.

Xalqaro faoliyat ma`lum bir tashkiliy ishlarni talab yetadi. Odatda, bankning bosh ofisida ixtisoslashgan xalqaro departament amal qiladi. Unchalik katta bo`lmagan banklarda bo`lim yoki guruh bo`lishi mumkin.

Yendi banklarni xorijiy vakolatxonalari, filiallari va “sho`ba” banklari faoliyatini tahlil qilishga o`tamiz.

Xorijiy vakolatxonada, odatda, shtatlar uncha katta bo`lmaydi, bitta tajribali mutaxassis va kotibdan iborat bo`ladi. Ular mahalliy banklar bilan korrespondentlik munosabatlari to`g`risida kelishishadi, mahalliy moliya bozori to`g`risida ma`lumot yig`ishadi. Ba`zi bir davlatlarda xorijiy banklarni filiallari va vakolatxonalari ochilishi taqiqlangan. Ko`pincha vakolatxonalar ishi filial ochilishi bilan davom yetadi.

Xorijiy bank filiallari o`zining operatsiyalari bo`yicha mustaqil banklarga o`xshab ketadi. Ular mustaqil ravishda xodimlarni jalb qiladi, depozit va omonatlar qabul qiladi, kreditlar beradi va mahalliy moliya bozorida ish yuritadi. Filiallar ota bank (bosh bank) topshirig`i bo`yicha xalqaro operatsiyalarni amalgamoshiradi. Biror bir davlatda filial ochish uchun qabul qilayotgan davlatni hukumati va markaziy banki ruxsatnomasi bo`lishi zarur.

Ba`zi bir davlatlarda xorijiy banklarning filiallariga ma`lum bir operatsiyalar taqiqlangan. Misol uchun, AQSH xorijiy banklarining filiallari uchun, Federal Rezerv Tizimining (FZT) majburiy zaxira talabi, filialdagi jalg yetilgan depozitlar uchun sug`urta bo`yicha Federal korporatsiyaning majburiy sug`urta tartibi qo`llanilmaydi va ular bo`yicha sug`urta mukofoti to`lashning keragi yo`q.

AQSHda 1981 yildan boshlab, bosh ofisda AQSH hududida joylashgan, xorijiy banklarning filiallari xalqaro bank birligi (XBB) deb nomlanadigan, maxsus hisob ochish huquqiga yega. Bu XBB hisobida evrodollar depozitlarini qabul qilish va yevrodollar kreditlarini berish mumkin, bunda FZT zaxirasi talab yetilmaydi va FK sug`urta depoziti talabi bo`yicha sug`urta qilinmasdan amalga oshirish mumkin. XBB operatsiyalari faqat xorijiy rezedantlar bilan amalga oshiradi va kreditlar faqat AQSH territoriyasidan tashqarida ishlatalishi mumkin. Depozitlarni minimal miqdori XBB uchun 100 ming dollar darajada belgilangan.

Ofshor zonasida gohida shell-filial (shell branch) deb ataluvchi filial tuziladi, u mustaqil amal qiladi, bosh ofisda amalga oshirilayotgan operatsiyalar uchun, yuridik asos bo`lib xizmat qiladi xolos. Ular mahalliy bankirlar tomonidan nominal boshqariladi, chunki ular bosh ofis orqali real rasmiylashtiriladi hamda evrodepozit qabul qilish va evrokredit berish bo`yicha “pochta qutisi” sifatida ishlataladi. AQSH transmilliy banklarining 70 foizida o`zlarining shell-filiallari mavjud.

Xalqaro “sho`ba” banklari yuridik jihatdan mustaqil banklar hisoblanadi, ularni nazorat paketi “ota” bank amal qilayotgan davlatga qarashli bo`ladi. Bularidan farqi shundaki qo`shma bankda “ota” bank nazorat paketiga yega bo`lmaydi va nazoratni boshqa banklar va kompaniyalar bilan bo`lishadi. Ko`pchilik yirik transmilliy banklar, qayerda xorijiy filiallar ochilishi taqiqlangan davlatlar bo`lsa, filiallari va “sho`ba” banklarini tuzish orqali harakat qiladilar. Ammo keyingi yillarda transmilliy banklar tizimida “sho`ba” va qo`shma banklarni ulushini ko`payishi tendensiyasi yuzaga kelmoqda. “Sho`ba” banklar “ota” bankdan umumiylar direktivalar, normativlar va limitlar olishadi xolos.

To`rtinchı guruhi turli tuman bank xizmatlarini tashkil qiladi va ular xalqaro nokredit operatsiyalari deb ataladi. Hozirgi paytda bu zamona viy banklarga bu xizmatlar sezilarli darajada daromad keltiradi. Buning tarkibiga valyuta, fond va derivativ bozorlardagi ishlar hamda anderryating, moliyaviy konsalting, moliyaviy bozor marketingi va boshqalar kiradi.

### **Nazorat uchun savollar:**

1. Xalqaro banklarning rivojlanishida raqobatning o`rni qanday?
2. Mahalliy banklarni rivojlantirishda xalqaro banklarning qaysi jihatlarini o`rnak sifatida amaliyotda qo`llash mumkin?
3. To`lov tizimi deganda nimani tushunasiz?
4. To`lov instrumentlariga nimalar kiradi?
5. O`zbekiston Respublikasida to`lov tizimi va to`lov infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo`yicha qanday chora-tadbirlar ishlab chiqilgan?
6. Bank xavfsizligining ob`ekti sifatida -moliyaviy va moddiy mablag`larga nimalar kiradi?.
7. Konfidentsial xarakterga ega bo`lgan hujjatlardan ishlashda bank xavfsizligini ta`minlash qanday amalga oshiriladi?
8. Xalqaro banklarning milliy moliya bozoridagi o`rni.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

#### **Maxsus adabiyotlar**

1. Финансы, деньги, кредиту учеб.под.ред.доц О.В Соколовой. –М.: «Юристъ» 2001. 202 б
2. Диана Мак Нотон. Банковские учреждения в развивающихся странах. Том I. Всемирный Банк. Вашингтон. Д.С. 1994. 20 б.
3. Martin Weale, Andrew Blake, Nicos Christodoulakis, James E Made, David Vines., Macroeconomic Policy. UK, 2015, English.
